

N. J. ISAKULOVA

KASB TA'LIMI
METODIKASI



Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

ilgarigi berilmalar miqdori _____

0390 04.05.16

37-013-46
L-78

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

N.J. ISAKULOVA

KASB TA'LIMI METODIKASI

(O'QUV QO'LLANMA)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligining 3-mart 2014-yildagi
79-sonli buyrug'i bilan 5111000 – Kasb ta'limi
yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*



O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
"Fan" nashriyoti
Toshkent – 2014

O'zbekiston Davlat san'at
va madaniyat instituti
APM № 422 (e)

UO'K 37.013.46

KBK 74.6

I 78

O'quv qo'lanmada talabalarga O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga qo'yilgan talablar, "Kasb ta'limi metodikasi" fanining boshqa kasbiy ta'lim fanlari bilan aloqalari, tadqiqot metodlari yoritilgan. Kasb-hunar ta'limi tamoyillari, didaktik tizimlari, metodlari, tashkiliy shakllari, ta'lim vositalari, kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalariga qo'yiladigan talablar, o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish bayon qilingan.

O'quv qo'lanma talabalar uchun mo'ljallangan.

В учебном пособии сформулированы требования для сферы среднего специального профессионального образования, содержащиеся в Законе Республики Узбекистан "Об образовании" и в Национальной программе по подготовке кадров. Рассмотрены взаимосвязь предмета "Методика профессионального образования" с другими профессиональными предметами, а также исследовательские методы дисциплины. Изложены принципы профессионального образования, дидактические связи, методы, организационные формы, образовательные средства, требования к лабораториям, учебным и мастерским кабинетам колледжей и организация занятий в мастерских.

Учебное пособие для студентов.

It sets forth the requirements for the sphere of secondary-special professional education and contained in the Law of the Republic of Uzbekistan "On education" and National program for personnel training. The correlation of the subject "Methodology of professional education" with other professional subjects and research methods of discipline are considered in the present textbook. The principles of professional education, educational communication, methods, organizational forms, educational means, requirements to laboratories, training classes and workshops of colleges and organization of studies in the workshops are given.

The textbook for students.

Mas'ul muharrir:

pedagogika fanlari doktori, professor *Yu.G'.Mahmudov*

Taqrizchilar:

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent *N.Akbarov*

pedagogika fanlari nomzodi *R.Oripova*

ISBN 978-9943-19-298-0

© O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2014-y.

KIRISH

Yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va uzluksiz takomillashtirish hozirgi davrning asosiy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hisobiga kadrlarning sifatini oshirish ushbu muammolarni hal qilishning asosiy yo'lidir.

Yosh avlodga zamonaviy texnika va texnologiyalarni hamda milliy istiqloq g'oyalarini yetkazish uchun o'z sohasini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan biladigan mutaxassislarni tayyorlashda "Kasb ta'limi metodikasi" fanini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur fan pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida talabalarning "Pedagogika", "Psixologiya", umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlaridan olgan bilim va ko'nikmalarini amalga tadbiiq etish, kasb-hunar kollejlari umukasbiy va maxsus fanlar bo'yicha dars berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtiruvchi, ularni tayyorlashni o'rgatuvchi fan bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, "Kasb ta'limi metodikasi" fani kasb ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavr talabalariga ta'limning amaliy va metodologik asoslarini chuqur va izchil o'rganib boradi. Bu fanni mukammal egallagan mutaxassislar kasb-hunar kollejlari o'quv jarayonlarini tashkil etish va boshqarish prinsiplarini mustaqil yecha oladigan kasb egalari hisoblanadilar.

"Kasb ta'limi metodikasi" fani "Pedagogika", "Ta'lim texnologiyalari", "Psixologiya", "Kasbiy pedagogika", "Kasbiy psixologiya" va ixtisoslik fanlari bilan uzviy bog'liqdir.

Fanning maqsadi – o'z oldiga har tomonlama barkamol, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davri-

da ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy istiqloq g'oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta'lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs – kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash.

Fanning vazifasi – talabalarga pedagogik-psixologik bilimlarni umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish jarayoniga tadbiq etish, pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish, kasb ta'limini o'qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini (har bir kasbga o'rgatishning mazmuni va o'ziga xosligining mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda) o'rgatish¹.

Mazkur o'quv qo'llanmani kasb-hunar kollejlarida mutaxassislar tayyorlash hamda kasb ta'limi yo'nalishi bo'yicha ta'lim mazmunining uzviyligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlashda nazariy jihatdan baholash mumkin. Talabalarning mutaxassislik va yo'nalishlar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari hamda kasbiy tayyorgarligi bo'yicha o'quv reja va dasturlar mazmunini, kasb-hunar kollejlarida o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishni, ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarida o'rtasida aloqalar o'rnatishni bilishi va amalda qo'llay olishi jarayonida amaliy ahamiyatini baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

“KASB TA'LIMI METODIKASI” FANINING UMUMIY MASALALARI

- 1.1. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ni amalga oshirish jarayonida “Kasb ta'limi metodikasi” fanining predmeti, maqsad va vazifalari
- 1.2. Kasb-hunar ta'limi tamoyillari
- 1.3. Kasb-hunar ta'limining didaktik tizimlari
- 1.4. Kasb-hunar ta'limini amalga oshirish metodlari
- 1.5. Kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari
- 1.6. O'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi

1-BOB

¹“Kasb ta'limi metodikasi” bo'yicha fan dasturi. Toshkent, 2012.

1-BOB. "Kasb ta'limi metodikasi" fanining umumiy masalalari

1.1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida "Kasb ta'limi metodikasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" da o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga qo'yilgan talablar.
2. "Kasb ta'limi metodikasi" fanining boshqa kasbiy ta'lim fanlari bilan aloqalari.
3. "Kasb ta'limi metodikasi" fanining tadqiqot metodlari.

Tushunchalar va tayanch iboralar: integratsiya, mehnat uslublari, metodik vositalar, maqsad, vazifa, kasb, ta'lim, uslubiyot, fan, metod, kasb ta'limi, nazariya, amaliyot.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga qo'yilgan talablar

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 13-moddasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga quyidagicha izoh berilgan:

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beradi.

Akademik litsey – o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji – o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir [5. 23-b.].

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi – uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilari tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

Akademik litsey davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradi. O'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalarda) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi, o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi ji-

hatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

– akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ bazalarini ishlab chiqish va joriy etish;

– soha uchun oliy ta'lim muassasalarining, ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasining mutaxassislarini jalb etgan holda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

– o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar ishlab chiqish;

– akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

– kasb-hunar kollejlari tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

– hududlarning jo'g'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etilishini va ularni oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

– akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

"Kasb ta'limi metodikasi" fanining boshqa kasbiy ta'lim fanlari bilan aloqalari

Ta'kidlash joizki, ta'lim-tarbiya sohasida islohotlar o'tkazish va ularning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish lozim. Bu borada ta'lim jarayonini fanlararo aloqadorlikda yoki integratsiya asosida tashkil etish o'z samarasini beradi. Ta'lim jarayonida fanning o'rnini va u qanday aloqadorlikda o'z samarasini berishi haqida mulohaza yuritamiz. Ta'lim – jamiyatni harakatlantiruvchi kuchdir. Ta'lim borasida yutuqlarga erishilmasa, jamiyat o'z harakatini davom ettira olmasligi barchaga ma'lum. Behbudiy: "Ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kundan-kun qo'ldan ketganidek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur", – deb bayon qilganlar [6. 164-b].

Lui Pasterning ta'kidlashicha, "Fan vatanning eng kichik qiyofasi bo'lmog'i zarur, zotan barcha xalqlar ichida fikr va aqliy faoliyat sohasida boshqalardan o'zib ketgan xalqgina birinchi o'rinni oladi" [6. 172-b.]. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da "fan – yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi", deb ta'riflangan [6. 144-b.].

Demak, fan jamiyat rivojlanishidagi asosiy kuch hisoblanadi. Kishilik dunyosini fan nuqtai nazaridan izohlash, garchi keyinroq boshlangan bo'lsa-da, uning ayrim oddiy unsurlari jamiyatning kelib chiqish davridan mavjud. Bu bilimlar avval eng sodda ko'rinishda bo'lib, kishilar dunyosi haqidagi eng umumiy qarashlarga oddiy tarzda ifodalangan. Kishilar tevarak-atrofidagi o'simliklar va hayvonlar to'g'risida ma'lum bilimlarga ega bo'lsalar-da, ularning jamiyat haqidagi bilimlari juda qiyinchilik bilan, uzoq davrlar davomida to'planib borgan. Mazkur kuch samarali bo'lishi uchun ta'lim jarayonida fanlar aloqasi muhim.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida fanlar o'z o'rganish ob'yektlari va predmetlariga ko'ra yirik guruhlar bo'lingan. Le-

kin moddiy va ma'naviy olamni o'rganuvchi turli fanlarning o'zaro hamkorligi tabiiy jarayon bo'lib, ularning taraqqiyotida 2 ob'yektiv tendensiya, ya'ni differentsatsiya (tarmoqlanish) va integratsiya (qo'shilish) namoyon bo'ladi. Natijada, olamning yaxlit, umumiy ilmiy manzarasi yaratilishiga imkon bo'ladi. Fanlar integratsiyasi asosida sivilizatsiyaning noyob yutuqlari o'rganilmoqda. Demak, ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlik va integratsiya so'zlari uchrab turadi.

Tadqiqotchilarning *integratsiyaga oid tadqiqot ishlari* bilan tanishib chiqqanimizda integratsiya tushunchasining mohiyatini G.Isayeva "psixologik-pedagogik nuqtai nazar asosida ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, biror bir yangilikni ijtimoiy sohaga tezkorlik bilan tatbiq etish va ta'lim jarayonini jadallashtirish", deb ta'kidlagan [9. 42-b.]. Mazkur tahlilimizda yangilik so'zi bilan chegaralanib qolgan, nafaqat yangilik, balki muammo, masala, mashq bo'lishi mumkin. Yangilikni ijtimoiy sohaga tezkor tatbiq etib bo'lmaydi, balki uni yillar, asrlar davomida tatbiq etilishi barchaga ma'lum.

Z.E.Azimova o'zining ilmiy ishida "zamonaviy fan va ta'lim tizimlari insonni va shaxs rivojini tushunishning yaxlit nazariyasini yaratishda fanlararo integratsiya jarayoniga tayanadi", deb bayon qilgan [3. 3-b.]. Mazkur tadqiqotda fanlararo integratsiya jarayoni jumlasidan noo'rin foydalanilgan. Tasavvur qiling, fanlar aloqadorligini bir irmoq deb olsak, integratsiya jarayoni esa daryoga tenglashtiriladi, ya'ni irmoqlar daryoga kelib quyiladi.

Bugungi kun o'rganuvchi – bilim oluvchini biror fan asoslariga qiziqtirish murakkab didaktik jarayon hisoblanib, o'qituvchidan ta'lim jarayonini tashkil qilish masalalarida katta psixologik va pedagogik bilim, ko'nikma va malakani talab etadi. Ta'lim jarayonida qiziqarli vaziyatlarni vujudga keltirish salohiyati yetarli bo'lib, fanlar aloqadorligidan foydalanib, ta'limni loyihalashtirish o'z samarasini beradi. Bu borada farangistonlik faylasuf, riyoziyotshunos, tibbiyotshunos olim va metodik nazariyotchi R.Dekart o'z mulohazasini "barcha fanlar bir-biri bilan shu qadar chambarchas

hog'lanib ketganki, ularni bitta-bittalab o'rganishdan ko'ra birvarakayiga o'zlashtirish osonroqdir", deb bildirgan [27. 266-b.]. Yoki ingliz faylasufi U.Okam: "Garchi, har qanday fan alohida bir narsani o'rganish tufayli kelib chiqsa-da, aslida birgina narsani o'rganuvchi fan bo'lishi mumkin emas. Menimcha, ana shu alohida narsalarni belgilovchi umumiy tushunchalar haqidagi fan mavjuddir", – deb ta'kidlagan [27. 219-b.].

Ta'lim jarayonida fanlarning aloqasiga oid tadqiqot ishlari mavjud. Barcha tadqiqotchilar fanlararo aloqadorlikni ta'lim-tarbiya tizimining tarkibiy qismi sifatida bilishgan hamda uning bir, ikki fan turkumlari, integratsiya yo'nalishlarini tadqiq etishgan. Tadqiqot mavzusi yuzasidan fanlar aloqadorligiga doir tadqiqot ishlari mavjud. Demak, fanlar aloqadorligiga doir tadqiqot ishlari tahlilidan ma'lum bo'ladi-ki, fanlar aloqadorligining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyatli jihatlari mavjud.

Ta'lim jarayonida *integratsiya va fanlararo aloqadorlik xususiyati* quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

– olamni o'rganishda fanlar *harakati* tushunchasi. Ya'ni tabiatni o'rganayotganda fizika, kimyo, botanika va boshqa fanlar harakatlanadi, bu fanlarni esa boshqa bir fan harakatlantiradi. Bunday harakat zanjirining nihoyasi yo'q; integratsiyada fanlar yaxlitlik asosida harakatlanadi;

– fanlar *sabab* tushunchasi bilan izohlanadi. Bir fan ikkinchi bir fan shakllanishiga sabab bo'ladi; integratsiya esa fan shakllanishiga emas, balki birlashishiga sabab bo'ladi;

– fanlar *turli darajada* ekanligi bilan belgilanadi. Masalan, fan ko'proq yoki kamroq darajada mukammalligi, asosli va samaraliligi bilan bir-biridan farqlanadi; integratsiyada yaxlitlik darajasi muhim hisoblanadi;

– tabiat *tartib-qoidalari* bilan izohlanadi. Ya'ni tabiat tabiiy, ijtimoiy, aniq asoslarini o'rganishda fan turkumlariga ajratiladi; integratsiyada fan yaxlitligi e'tiborga olinadi.

Ta'lim jarayonida *fanlar aloqadorligining ahamiyati* quyidagicha:

- ini tashkil etishda optimal yo'l;
- ta'lim jarayoni muammosi bir necha fanlar aloqadorligida o'rganiladi;
 - mashg'ulot marta turli fanlar yondashadi;
 - dars mavzusi har bir tomoni kuchayadi;
 - darsning qiziqarli mashg'ulot davomida o'zlashtirilgan axborotlar ko'lami kengayadi;
 - talabning bilim yuzasidan xulosa chiqarish imkoni shakllanadi;
 - turli fanlar yordamini amalga oshiradi.
- Ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlik bir fan misolida o'zaro yaqin bo'lgan mavzularning yaqinlashishi, bir mavzu yuzasidan fanlarning bog'lanishi, masalaning aynan o'quv dan fan turkumlarining bog'lanishi, ta'lim jarayonining shakllantiraja va dasturga mos bo'lishi, ta'lim jarayonining shakllantiruvchi shakllari asosida nazariy bilimlarni amalda qo'llashda o'z ifodasini topadi.
- Demak, ta'limning sifatini oshirishda fanlararo aloqadorlik pedagogik muammosi, prinsip, metod, muhim samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Integratsiya esa jarayon sifatida namoyon bo'ladi.
- Tadqiqot mavzusi yuzasidan fanlararo aloqadorlikka doir tadqiqot ishlari mavjud bo'lib, ular quyidagicha tahlil etilgan:
- bir fan misolida aloqadorlikni o'rganish;
 - ikki fan misolida aloqadorlikni o'rganish;
 - fan turkumlari asosida fanlararo aloqadorlikni tahlil etish;
 - integratsiyaga oid tadqiqot ishlari;
 - tadqiqot mavzusi asosida fanlararo bog'lanish yuzasidan tavsiflar berish.
- "Kasb-hunar pedagogikasi" mavzusidagi o'quv-metodik qo'llanmada predmetlararo aloqadorlik masalasi nazariya va amaliyotda quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etilayotganligini ko'rsatadi:
1. Muammoning nazariy asoslari – P.R.Atutov, S.Y.Batishchev, A.P.Belyayeva, Sh.I.Ganelin, R.S.Gurevich, N.I.Dumchenko, Ye.I.Martinova, I.D.Zverev, A.A.Kiveryalg, V.N.Maksimova, M.I.Maxmutov, A.V.Usova, O.F.Fedorova va shu kabilar [4. 123-b.].

chenko, Ye.I.Martinova, I.D.Zverev, A.A.Kiveryalg, V.N.Maksimova, M.I.Maxmutov, A.V.Usova, O.F.Fedorova va shu kabilar [4. 123-b.].

2. O'quv dasturiy hujjatlar tuzilmasida aloqadorlik imkoniyatlarini tadqiq etish – P.M.Baduyeva, G.S.Gutorov, X.F.Rashidov, B.F.Boyarchuk, I.I.Babkin, A.P.Belyayeva, V.I.Andriyanova, I.D.Klochkov, Y.K.Vasilyev, I.Y.Kuramshin, Q.Olimov, K.A.Zoyirov va ularning bir qator maslakdoshlari [4. 123-b.].

3. Predmetlararo aloqadorlik prinsipidan foydalanishning turli shakl, usul va vositalarining imkoniyatlari – I.P.Kulyagin, V.A.Polyakov, L.V.Savelyeva, I.Y.Kuramshin, A.Aliyev, D.G.Davidova, V.I.Palamarchuk, V.A.Skakun, G.Jumasheva, G.S.Gutorov, O.Tolipov, A.Z.Shakirzyanov, B.I.Muranov, B.M.Mirzahmedov, O.L.Musurmonov, F.Musayev, O.Abduxalilov, G.F.Fedorets, N.M.Berulova, A.Ibragimov, I.Aliyev, R.Zaynobbiddinova va boshqalar [4. 124-b.].

Shuningdek, tadqiqotlarda oldindan, keyindan va davomli bog'lanishlar, ichki va tashqi, sinxron, asinxron, integrativ, uzviy bog'lanishlar, tushuncha va faktlar orasidagi, tekshirish metodlari va ilmiy tafakkur orasidagi amaliy ko'nikma va malakalar shakllanishidagi, o'qitishning bilish metodlari orasidagi bog'lanishlar o'rganilgan.

Mutafakkirlardan Y.A.Komenskiy, I.G.Pestalotsi, A.Dистерveg va K.D.Ushinskiylar fanlararo aloqadorlik prinsipiga turli xil yondashuvlari bilan o'quvchilarni dunyoni bilishga o'rgatuvchi bilimlar sistemasidagi aloqadorlikni, xabardorlikni o'quvchilar mushohadasiga berishga va shu bilan birga qo'yilgan ta'limiy maqsadni amalga oshirishga harakat qildilar.

M.N.Skatkin, asosan, uch ko'rinishdagi bog'lanishga, ya'ni: oldindan bog'lanish, keyindan bog'lanish, davomli bog'lanishlarga ajratadi va har bir bog'lanishlarning o'ziga xos tavsifnomasini keltiradi. Lekin, N.V.Verzilin, P.G.Ku-

lagin, Y.Keytkeviguslar qarayotgan tushunchaning o'quvchilar bilish faoliyati bilan aloqadorligini e'tiborga olgan holda bog'lanishni ikki kategoriyaga, ya'ni: sinxronli bog'lanish, asinxronli bog'lanishlarga ajratadilar. K.P.Korolev bog'lanishlarni asosan quyidagi tartibda belgilaydi: 1) tushuncha va faktlar orasidagi bog'lanish; 2) tekshirish metodlari va ilmiy tafakkur orasidagi bog'lanish; 3) umumiy ko'nikma va malakalarini shakllanishidagi bog'lanish; 4) o'qitishning bilish usullari orasidagi bog'lanishlar [20. 23-b.]. Shuningdek, fanlararo aloqadorlikda ichki va tashqi aloqadorlik, uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik hamda integrativ aloqadorlik tushunchalaridan ham foydalanildi. Ma'lumki, predmetlararo aloqadorlik o'rganilayotgan ob'ektni har tomonlama chuqur o'rganishni ta'minlaydi. U pedagogikada uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik hamda integrativ aloqadorlik darajalarida talqin etiladi.

Uzviylik – o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning asta-sekinlik bilan kengayib, chuqurlashib, mukammallashib borishida ko'zda tutiladi.

Predmetlararo aloqadorlik – mohiyatiga ko'ra keng tushuncha bo'lib, o'rganilayotgan ob'ektning turli jihatlari, xususiyatlarini har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi.


O'zaro aloqadorlik – mohiyatiga ko'ra o'quv predmetlari orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi.

Integrativ aloqadorlik esa nisbatan yuqori darajadagi aloqadorlik hisoblanadi [21. 7-b.].

Bola faqat o'quvchilik yillarida narsa va hodisalarning mohiyati haqida tushunchaga ega bo'lib, ularga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini to'liq, erkin bayon eta oladi. V.G.Belinskiy gumanitar fanlar (ona tili, adabiyot, tarix)ni maktabda o'qitiladigan fanlar orasida eng muhimi: kishilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga, ularni "odam qilishga" yordam beradigan fanlardir, deb hisoblar edi [12. 275-b.].

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarga katta ahamiyat berilishi kasb to'g'risida talabalarga juda ko'p foydali ma'lumotlar berishi jihatidagina g'oyat muhimdir. Shuningdek, umumkasbiy fanlar hamda ixtisoslik fanlari bilan bog'lanish mazkur fanni chuqur o'rganishda muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, har bir o'quv fanining "Kasb ta'limi metodikasi" fani bilan aloqadorligi 1-rasmda shakllantirildi:




1-rasm. "Kasb ta'limi metodikasi" fani bilan aloqadorligi

Metod (yunoncha *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar, usullar majmui [16. 78-b.].

Metodologiya – tadqiqotchining nazariy-amaliy pedagogik faoliyatini tashkil etish tamoyillari, u amal qiladigan me'yoriy-huquqiy, nazariy-falsafiy yondashuvlar, qonuniyatlarni, qarashlar yig'indisi [16. 78-b.].

Tadqiqot metodi – 1) bilimlarning ijodiy qo'llanishini ta'minlash metodi; 2) ilmiy bilish metodlarini izlash jarayonida ularning o'zlashtirilishiga qaratilgan metod [16. 116-b.].

“Kasb ta'limi metodikasi” fanining tadqiqot metodlari 2-rasmda ifodalangan:



2-rasm. “Kasb ta'limi metodikasi” fanining tadqiqot metodlari

Kuzatish metodi – 1) ob'yektiv borliqdagi narsa-hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni; 2) psixologik-pedagogik tadqiqotlardagi asosiy empirik metodlardan biri. Psixologik-pedagogik hodisani maqsadga qaratilgan tizimli o'rganishda muayyan sharoitlarda ulardagi xususiy o'zgarishlar va ularning sabablarini aniqlash maqsadida qo'llaniladi; 3) voqelikni ta'lim jarayonida idrok

qilish imkoniyatini beradigan pedagogik tadqiqot metodi [16. 64-b.].

Suhbat – o'quvchi, talaba va o'qituvchi orasida ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladigan o'zaro so'zlashuv, mulohaza usuli [16. 115-b.].

Tajriba – pedagogik voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni [16. 116-b.].

“Tajriba vositasida o'qitish sikli” metodi (D.Kolb g'oyasi) – reflektiv kuzatish, abstrakt xulosalash (konseptuallashtirish), tajriba vositasida o'qitish sikli, faol tajriba olib borishga tayyorlanish, aniq tajriba o'tkazish kabi metodlar turkumi [16. 116-b.].

Tahlil – muayyan ob'ekt, voqea-hodisani har tomonlama tahlil qilish, chuqur tekshirish, o'rganish [16. 128-b.].

Tahlil metodi komponentlari – axborotni anglab idrok etish; ma'lum va noma'lumning muhim belgi va munosabatlar elementlariga ajratish va boshlang'ich tarkibli birlikni topish; aloqalarni anglash va tushuntirishdan iborat bo'lgan metod [16. 128-b.].

Empirik metod – tajriba-sinov metodikasiga ma'lum bo'lgan adabiyotlar, g'oyalar, tajribalarni o'rganib chiqish asosida tug'iladigan farazlar, modellar, bajarilishi kerak bo'lgan ishlar loyihasini sinab ko'rish va amaliyotga tadbiiq qilish metodi [16. 148-b.].

Nazorat savol va topshiriqlari

1. “Kasb ta'limi metodikasi” fanining asosiy maqsadi va vazifalari haqida ma'lumot bering.
2. Uslub va uslubiyot tushunchalariga izoh bering.
3. “Kasb ta'limi metodikasi” fanining tadqiqot metodlari va ularga izoh bering.
4. Ta'lim jarayonida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati qanday?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. “Kasb ta'limi metodikasi” fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi yuzasidan “Klaster” texnologiyasini ishlab chiqing.
2. Quyidagi 1,2-jadvallarni to'ldiring va blis-so'rovni bajaring:

1-jadval

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga qo'yiladigan talablar	Kasb-hunar kolleji	Akademik litsey

2-jadval

"Kasb ta'limi metodikasi" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi	"Kasb ta'limi metodikasi" fanining metodlari

Blis-so'rov: Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi

3-jadval

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Tushunchalar	Tushunchalarga izoh
					Birinchi bosqich (1997-2001 yillar)	Milliy dasturni to'liq ro'yo-bga chiqarish, mehnat bo-zorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar-ni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish
					Ikkinchi bosqich * (2001-2007 yillar)	To'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijti-moiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari-ga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomil-lashtirish va yanada rivojlan-tirish

3-jadvalning davomi

					Uchinchi bosqich * (2007 va undan keyingi yillar)	Mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida, ushbu tizimni isloh qilish va rivojlan-tirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moli-yaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish
					Shaxs	Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartib-ga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari
					Davlat va jamiyat	Malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib ta'limning barcha turla-rini, davlat ta'lim standartla-rini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi
					Uzluksiz ta'lim	Kadrlar tayyorlash tizimin-ing bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlar-ning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi
					Fan	Kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyor-garlik sifati va saviyasiga nis-batan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtma-chi, kadrlar tayyorlash tizimi-ni moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash jarayoni-ning qatnashchisi
					Ishlab chiqarish	Yuqori malakali mutaxassis-lar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or peda-gogik va axborot texnologi-yalarini ishlab chiquvchi

1.2. Kasb-hunar ta'limi tamoyillari

Reja:

1. Kasb-hunar ta'limi jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalar.
2. Kasb-hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillar.

Tushunchalar va tayanch iboralar: bilim, ko'nikma, malaka, kasbiy mahorat, tamoyil, nazariya, amaliyot, reduksiya, model, kompleks, individual.

Kasb-hunar ta'limi jarayonlari tahlili va asosiy didaktik tushunchalar

Didaktikaning asosiy tushunchalariga ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim tamoyillari, ta'lim metodlari, ta'lim shakllari, ta'lim vositalari, bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish, o'qish va shu kabilar kiradi.

Ta'lim – o'quvchi va talabalarga bilim berish, ularni tarbiyalash, rivojlantirish ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi [16. 121–122-b.].

Ta'lim axboroti – muayyan faoliyat turi, ixtisosini amalga oshirishda qo'llashi uchun ta'lim oluvchiga taqdim etiladigan bilim [16. 122-b.].

Ta'lim berish, o'qitish – 1) ta'lim jarayonining asosiy tomonlaridan biri, o'quvchining tezkor faoliyati, bilimlar zaxirasini o'zlashtirishi, ularni mustaqil egallash usullarini o'rganishi hamda amalda qo'llashni bilishiga yo'naltiriladi; 2) o'qituvchi tomonidan o'quvchi va talabalarga bilim berish, rivojlantirish va ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayoni [16. 122-b.].

Ta'lim vositasi – muayyan o'qitish metodi yoki usullaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari [16. 122-b.].

Ta'lim genezisi – ta'lim va uning tarkib topish (yuzaga kelish) jarayoni bilan bog'liq murakkab so'zlar bo'lagi [16. 122-b.].

Ta'lim granti – ta'lim sohasida amalga oshiriladigan faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun davlat yoki byudjetdan ajratilgan pul [16. 122-b.].

Ta'lim dasturi – ta'limning muayyan yo'nalishi, bosqichi va darajasiga ko'ra belgilab berilgan ta'lim mazmuni [16. 122-b.].

Ta'lim jarayoni monitoringi – kompyuter texnologiyalari majmuida foydalanish asosida ta'lim jarayoni borishi, natijalari va samaradorligini uzluksiz kuzatish va to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni [16. 122-b.].

Ta'lim jarayonini loyihalash – o'qituvchi tomonidan ishlab chiqiladigan ta'lim jarayonining texnologik tuzilmasi, uning natijasini ta'minlovchi metod va vositalar yig'indisi [16. 122-b.].

Ta'lim mazmuni – o'quvchilarni haqqoniy ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi [16. 123-b.].

Ta'lim metodikasi – muayyan o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan metod, qoida va usullari tizimi [16. 124-b.].

Ta'lim metodi – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, pedagogik bilimlarni yaratish va asoslash usuli [16. 123–124-b.].

Ta'lim monitoringi – ta'limdagi biror jarayonni baholash maqsadida maxsus tashkil etilgan muntazam kuzatuv va nazorat qilish [16. 124-b.].

Ta'lim prinsiplari – yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda ta'lim maqsadlariga muvofiq o'qitishning asosiy xarakterini belgilab beruvchi tayanch qoidalar [16. 124-b.].

Ta'lim standarti – muayyan ta'lim jarayonining modeli, namunasi, etaloni, me'yorlari, qoidalari, talablari davlat tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjat [16. 124-b.].

Ta'lim texnologiyalari – 1) ta'limning yanada samaraliroq shakliga erishish uchun inson zaxiralarini va ular o'rtasida o'zaro ta'sirni hisobga olgan holda bilimlarni o'zlashtirish,

ta'lim jarayonini baholash, amalga oshirish, tizimli rejalashtirish metodi; 2) ta'limning texnik vositalari va kompyuterlarni shunchaki qo'llash emas, balki ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan omillarni tahlil etish asosida loyihalash usuli, material (o'quv-metodik) va maqbul metodlar yordamida ta'lim jarayonini qulaylashtirish usullarini ishlab chiqish va uning tamoyillarini aniqlash; 3) aniq maqsadga ko'ra o'quv jarayonini boshqarishga oid didaktik muammolarni hal qilish, bunda erishiladigan yutuqlar aniq tavsif va ta'riflarga asoslanishiga erishish metodi [16. 125-b.].

Ko'nikma – o'quvchi yoki talabaning o'zlashtirgan bilimlari asosida muayyan amaliy harakatni bajara olish faoliyati [16. 65-b.].

Malaka – o'quvchi yoki talabada muayyan o'quv material va kasbni chuqur o'zlashtirish natijasida hosil bo'lgan avtomatlashgan mahorat [16. 72-b.].

Bilim – o'quvchi va talabalarning tabiat, jamiyat, fan-texnika yutuqlari haqida hosil qilgan ma'lumotlari. O'quvchi yoki talabalarga taqdim etiladigan nazariy ma'lumot [16. 18-b.].

Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash – o'qituvchining o'quv materiallarini taqdim etish jarayonida mustahkamlik prinsipini ta'minlashga qaratilgan maxsus ishlari [16. 18-b.].

Ma'lumot – shaxsning o'qish, o'rganish natijasida o'zlashtirgan bilim, ko'nikmalari hajmi, yo'nalishi va darajasi [16. 74-b.].

Kasbiy yo'nalish – motivatsiya sohasidagi xohish-mayilarga ko'ra aniqlanadigan kasbiy faoliyat motivatsiyasining integral tavsifnomasi bo'lib, shaxs qiziqishlari munosabatlari va maqsadga qaratilgan intilishlaridan iborat yo'nalishdir [16. 57-b.].

Kasbiy mahorat – ta'lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion-pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta'limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan

samarati foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi [16. 57-b.].

Kasbiy motivatsiya – kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo'naltirishga oid faoliyat ta'sirida shakllanuvchi mayl [16. 57-b.].

Kasbiy tajriba – avlodlarning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish va ularni boshqaruv amaliyotida qo'llashni ta'minlab beruvchi tushunchalar tizimi bo'lib, rahbarning o'z faoliyati davomida fan-texnika yangiligiga, ilg'or tajribalarga tayanish hamda mazkur tajribalar asosida o'zining ko'nikma va malakalarini shakllantirib borishi bilan bir qatorda, jamoa faoliyatini boshqarish tajribasi [16. 57-b.].

Kasbiy tayyorgarlik – ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon [16. 58-b.].

Kasbiy tarbiya – inson kasbiy madaniyatiga oid strategiya, usul, malaka, kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni [16. 58-b.].

Kasbiy ta'lim – muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim [16. 58-b.].

Kasbiy o'z-o'zini aniqlash – shaxs fikrining tanlangan, o'zlashtirilgan yoki bajarilgan mehnat faoliyatida ifodalaniishi [16. 58-b.].

Kasb-hunar kolleji (KHK) – 1) muayyan kasb-hunarni egallashga ixtisoslashtirilgan o'rta maxsus ta'lim muassasasi; 2) o'quvchilarning kasb-hunar moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb tanlash imkonini beradigan ta'lim muassasasi [16. 58-b.].

Kasb-hunar ta'limida umumdidaktik tamoyillar

Ta'lim prinsiplari o'qituvchining faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l-yo'riqlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim prinsiplari – o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri xal qilishning asosiy qonuniyatlaridir. Qonuniyat bu – barqarorlik, zaruriyat, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar o'quv jarayonining xarakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini qonuniy ravishda aniqlab beradi.

Ta'lim prinsiplari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun-qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

O'qitish prinsiplari ta'limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri xal qilishning asosiy negizi hisoblanadi. Quyidagilar eng muhim didaktik prinsiplar qatoriga kiradi:

- 1) ta'limning ilmiy, muntazam va izchil bo'lishi prinsipi;
- 2) ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi;
- 3) ta'limda nazariyaning amaliyot bilan birligi prinsipi;
- 4) ta'limning ko'rsatmali bo'lish prinsipi;
- 5) ta'limda ongliklik va faollik prinsipi;
- 6) ta'limni puxta va mustahkam o'zlashtirish prinsipi;
- 7) ta'lim jarayonida o'quvchilar yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish va tushunarli qilib o'qitish prinsipi.

Shuningdek, quyidagi ta'lim tamoyillari ham mavjud:

Pedagogik jarayonning tizimlilik (yaxlitlik, bir butunlik) *prinsipi* – ta'lim-tarbiya va shaxs rivojlanishi (kamoloti)ning uyg'unligi, muayyan tizimga ega ekanligini anglatadi.

Asoslanganlik prinsipi – turkum o'quv predmetlarini o'rganish ob'ekti (predmet, hodisa, jarayon, hatto tirik mavjudot sifatida inson)ning mohiyati, muhim xususiyatlari, aloqalari, ob'yektiv olam bilan muayyan munosabatlarini o'zida ifodalaydi. U har bir o'quv predmetini tegishli fan asoslari sifatida talqin etib, o'zi uchun "yadro", "o'zak" hisoblangan tizimlashtiruvchi ma'lumotlarga ega bo'ladi va shu ma'lumotlarning shaxs tomonidan o'zlashtirilishi, uning aniq soha

bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishida tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlashtirish prinsipi – pedagogik amaliyotda insoniy lashtirish bilan birgalikda qo'llaniladi. Har ikki tushuncha ham lug'aviy jihatdan yunoncha "humanus" – insoniylik va "humanitas" – insoniyat so'zlaridan olinib, bir o'zakka ega bo'lsada, ularning boshqa-boshqa ma'nolar anglatishi olimlar tomonidan e'tirof etilgan [4. 50-b.].

Uzluksizlik prinsipi – fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotda keng ko'lamda qo'llash hozirgi zamon va istiqbolda mustaqil ravishda ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun shaxsga uning butun umri uchun yetarli bo'lgan bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarini belgilangan vaqt davomida berish mumkin bo'lmay, balki u butun hayoti davomida takomillashtirib borishini nazarda tutadi. Maskur prinsip o'qituvchidan ta'lim-tarbiya ishida o'quvchilarning mustaqilligini ta'minlash uchun kerakli shart-sharoit yaratishni talab qiladi.

Nazariyaning amaliyot (hayot) bilan bog'liqlik prinsipi – o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlari ularning bevosita hayot faoliyatida qo'llangan yoki dasturilamal bo'lib xizmat qilgan-dagina ahamiyatli ekanligiga ishora qiladi. Amaliyotda qo'llanmagan bilimlar asossiz bo'lib, qisqa vaqt davomida unutiladi.

Ta'limning ilmiylik prinsipi – ilmiy bilish hodisadan mohiyatga, narsaning tashqi ta'siridan uning ichki tuzulishini tasvirlashga o'tishdan iboratdir. Agar o'quv materialini o'quvchini qonunlar, tushunchalar, formulalar va teoremlar olami bilan tanishtirsa, bunday bilimlar ilmiy bilimlar deb ataladi.

Tushunarlilik prinsipi – bilimlarni o'zlashtirishning osonglik, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi ularning o'quvchilarning rivojlanish darajasi, shaxsiy tajribasi bilan aloqasini ko'rsatadi. Agar bunday aloqalarni aniqlab bo'lmasa, bilimlar tushunarli deb hisoblanmaydi.

Ta'limning ko'rsatmalilik prinsipi – XVII asrda Y.A. Komenskiy ko'rgazmalilik tamoyilini har qanday tarzda o'qitishning muvaffaqiyatli bo'lishi negizi sifatida ta'rifla-

siyatlari, senzitiv rivojlanish davrlari, rivojlanishning keyingi bosqichlariga o'tish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni ko'zda tutadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy ta'minot prinsipi – pedagogik jarayonning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini nazarda tutib, barcha turdagi ta'lim muassasalari faoliyatini bu jarayon ishtirokchilari imkoniyatlari davlat va jamiyat ta'lablari, fan taraqqiyoti, ishlab chiqarish ehtiyojlarini hisobga olish, ularni uyg'unlashtirish, integratsiyalashni ko'zda tutadi [4. 54-b.].

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Kasb-hunar ta'limining qanday didaktik tushunchalari mavjud?
2. Mazkur didaktik tushunchalarga izoh bering.
3. Kasb-hunar ta'limida qanday umumdidaktik tamoyillar mavjud?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Kasb-hunar ta'limining didaktik tushunchalarini "Klaster" metodi yordamida ishlab chiqing.
2. Quyidagi 1–2-jadvallarni to'ldiring:

1-jadval

Kasb-hunar ta'limining asosiy didaktik tushunchalari	Kasb-hunar ta'limining asosiy didaktik tushunchalari mazmuni

2-jadval

Kasb-hunar ta'limining didaktik tamoyillari	Kasb-hunar ta'limining didaktik tamoyillari mazmuni

1.3. Kasb-hunar ta'limining didaktik tizimlari

Reja:

1. Ta'limning didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha.
2. Predmet tizimi, operatsiya tizimi, operatsiya-predmet tizimi, motorli-mashq tizimi va boshqa tizimlar.

Tushunchalar va tayanch iboralar: kasb-hunar ta'limi, tizim, didaktika, bilim, ko'nikma, malaka, predmet.

Ta'limning didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha

Bilim jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lim, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika – ta'lim nazariyasi shug'ullanadi.


Didaktika – grekcha so'z bo'lib, "didasko", ya'ni "o'qitish", "o'rgatish" ma'nolarini bildiradi. Ta'lim qonuniyatlarini o'rganish, tahlil qilish jarayonida ta'lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vazifalari, o'qitish prinsiplari, shakllari haqidagi bilimlar bayon etiladi. Didaktika pedagogikaning "nimaga o'qitish", "nimani o'qitish" va "qanday o'qitish" kabi savollariga javob izlaydi.

Ta'lim – insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta'limdagi yutuqlar, avvalo, o'qituvchiga bog'liq. Mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo'lish psixologik-pedagogik va uslubiy bilim hamda malakalarni egallashi, turli pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o'rganish va baholash, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak.

Mustaqil ishlash iste'dodini shakllantirish, kasbiy layoqat hissini, pedagogik voqea va hodisalarni taqqoslash, tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalarini rivojlantirish – bularning barchasi ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridir.

Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilardan bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarini shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'planagan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tasavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim ro'l o'ynaydi. Ta'lim berish – yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir [19. 111-b.].



3-rasm. O'qitish faoliyati tarkibi

O'qituvchi, o'quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonini to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olish zarur. Ta'limda o'qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o'quvchilarda ishdagi mus-

taqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsani ongli ravishda o'zlashtirib olishga erishiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to'g'risida ham g'amxo'rlik qiladi.

O'qituvchi o'quvchi – talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni bilim berish orqali o'z maqsadini hal qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi:

1. Ta'limiy maqsad – o'quv materialining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tatbiq qila olishdir.

2. Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon-e'tiqodlarini shakllantirishdir.

3. Rivojlantiruvchi maqsad – ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi – talabada mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi. Uni o'ylashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi.

Bu bog'liqlikni, avvalo ta'limni amalga oshirish bosqichlarida ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

Birinchi bosqich – o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi-talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich – ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich – yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

To'rtinchi bosqichda – ular o'zlashtirib olgan bilimlarni imkoniyatga qarab amaliyotga tatbiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayoni samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining barcha bosqichlarida o'qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan:

1. O'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.
2. Ularning dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi.

3. Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, tarbiyali kishilar bo'lib yetishishlariga, qobilyat va iste'dodlarini o'stirishlariga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik – pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu, avvalo pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko'rinadi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchiga qiziqib qarashi, uning ehtiyoji va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim.

O'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablari darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi [19. 198–202-b.].

Predmet tizimi, operatsiya tizimi, operatsiya-predmet tizimi, motorli-mashq tizimi va boshqa tizimlar

Kishilik jamiyatining turli bosqichlarida ishlab chiqarish ta'limining quyidagi tizimlari qo'llanilganligi pedagog-olimlar tomonidan e'tirof etilgan:

a) *predmet tizimi* – shogird tomonidan buyumning izchil ravishda, muayyan miqdorda, butun murakkabligida boshidan oxirigacha tayyorlanish jarayonini qamrab oladi. Bu tizimning kamchiliklari: shogird o'zi tanlagan kasbi bo'yicha

boshlang'ich kasbiy (elementar) ko'nikmalarga ega bo'la olmaydi, shuningdek, mazkur tizim o'quvchilarda tegishli ixtisoslik bo'yicha to'laqonli bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish imkoniyatiga ega emas. Undan foydalanishda didaktik prinsiplarga to'laqonli amal qilinmaydi, o'quv dasturidan foydalanish imkoniyati deyarli mavjud emas. Nazariy va amaliy ta'limning aloqadorligi hisobga olinmaydi;

b) *operatsiya tizimi* – mehnat jarayonlarini aniq operatsiyalarga bo'lishga asoslanadi. Unga 1868-yilda Moskva shahridagi Bauman nomidagi oliy texnika bilim yurtida asos solingan. D.K.Sovetskiy, V.P.Markov va ularning maslakdoshlari bu tizimning asoschilari hisoblanishadi. Bu tizim manbalarda "rus tizimi" deb ham yuritiladi va quyidagi ikki bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda o'quvchilar o'quv ustaxonalarida operatsiyalarni bajarishni o'zlashtirsa, ikkinchi bosqichda ular bevosita buyum [4. 106-b.], mahsulot (tovar) ishlab chiqarish jarayonida qatnashadilar;

v) *operatsiya-predmet tizimi* – XIX asrning 90-yillarida S.A.Vladimirskiy tomonidan taklif etilgan. Ushbu tizim ishlab chiqarish ta'limini yanada takomillashtirdi. Chunki bu tizim o'quvchilar tomonidan mehnat operatsiyalarini o'ylab tanlangan buyumlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Buyumlar tayyorlashda oddiydan murakkabga, osondan qiyin prinsipi-ga amal qilinadi;

g) *mashq motor tizimi* – Markaziy mehnat instituti tomonidan 1927–1930-yillarda operatsion tizimning qayta ishlab takomillashtirilgan shaklidir.

Bu tizimdagi ta'lim quyidagi besh davrga bo'linadi.

1. Asosiy mehnat faoliyati va harakatlarini o'zlashtirish bo'yicha mashq mashg'ulotlari.

2. Mehnat usullarini o'zlashtirish bo'yicha mashqlar o'z ichiga avval o'rganilgan xatti-harakatlarni qamrab oladi.

3. Mehnat operatsiyalarini bajarishga doir mashqlarda o'rganilgan usullar qo'llaniladi.

4. Oddiy detallarni yasash jarayonida o'zlashtirilgan majmuaviy ishlarni bajarishgacha o'zlashtirilgan ish-harakat usullari murakkablashtirib boriladi.

5. Korxonalarda ish o'rinlarida tanlangan kasb bo'yicha xarakterli ishlar bajariladi va h.k. [4. 106-b.].

Ishlab chiqarish ta'limining yuqorida qayd etilgan tizimlari muayyan kasbdagi ishga oid asosiy mehnat usullari va operatsiyalarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishlarini ta'minlaydi, o'quvchilarni aniq ishlab chiqarish mehnatiga o'rgatadi, malakali ishchilar uchun zarur bo'lgan malaka va sifatlarni tarbiyalash imkonini beradi.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Ta'liming didaktik tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Didaktika pedagogikada qanday savollarga javob izlaydi?
3. Ta'lim jarayoni deganda nimani tushunasiz?
4. O'qitish tizimlari nechaga bo'linadi, ularga izoh bering.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Mavzuni mustahkamlash uchun BBB texnologiyasi asosidagi quyidagi topshiriqni bajaring:

Bilaman	Bilmayman	Bilishni xohlayman

2. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Ishlab chiqarish ta'limining tizimlari	Ishlab chiqarish ta'limining tizimlari mazmuni
Predmet tizimi	
Operatsiya tizimi	
Operatsiya-predmet tizimi	
Mashq-motor tizimi	

1.4. Kasb-hunar ta'limini amalga oshirish metodlari

Reja:

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi metodlari klassifikatsiyasi.
2. Kasb-hunar ta'limining og'zaki metodlari.
3. Kasb-hunar ta'limining amaliy metodlari.
4. Kasb-hunar ta'limida ko'rgazmalilik metodlari to'g'risida tushuncha.

5. Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari.

6. Kasb-hunar ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: kasb-hunar ta'limi, metodlar, klassifikatsiya, pedagogik texnologiya.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi metodlari klassifikatsiyasi

Hozirgi kunda ta'lim amaliyotida qo'llanib kelinayotgan amaldagi o'qitish metodlarini asosan 3 guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin (1-jadval):

1. O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodlari.
2. Kuzatish va ko'rsatish metodlari.
3. Amaliy mashg'ulotlar metodlari.

1-jadval

Toifalash jadvali: Ta'lim metodlari

Bilim bosqichlari	Bilim manbai	O'qitish metodlari
Jonli mushohada	Yaqqol obraz	Ko'rgazmali metodlar: a) namoyish, ko'rish b) kuzatish v) ekskursiya
Abstrakt tafakkur	So'z, nutq	Og'zaki metodlar: suhbat, hikoya, tushuntirish, kitob bilan ishlash, maktab ma'ruzasi
Amaliyot	Amaliy faoliyat	Amaliy metodlar: a) laboratoriya ishi b) amaliy ishlar v) mashqlar

Kasb-hunar ta'limining og'zaki metodlari

O'quv materiallarini og'zaki bayon qilish metodi maktab ta'limi tizimida eng ko'p qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, mazkur metodlarda deyarli barcha sinflarda va hamma o'quv fanlari bo'yicha olib boriladigan darslar jarayonida murojaat etilishi mumkin. Bu metodlar bayon qilinayotgan bilimlarning to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining jonli nutqi orqali

idrok qilinishi bilan xarakterlanadi va boshqa o'qitish metodlaridan shu bilan farq qiladi.

Og'zaki bayon qilish metodida har ikkala faoliyatning, ya'ni, bir tomondan, o'qituvchining o'quv materialini mohirlik bilan og'zaki bayon qilib borishi va ikkinchi tomondan, bayon qilinayotgan materiallarni o'quvchilar diqqat bilan tinglab, ongli va mustahkam o'zlashtirishlari birligiga amal qilinadi. Biroq o'qituvchi bayon qilayotgan materialni butun dars davomida bir yo'sinda og'zaki davom ettira olmaydi va davom ettirishi mumkin ham emas. Shunga ko'ra garchi dars umuman materialni og'zaki bayon qilish yo'li bilan olib borilsa ham, shu darsning ma'lum bosqichlarida boshqa o'qitish uslublarining ayrim elementlarini ishlatish mumkin. Demak, butun bir darsni og'zaki bayon qilish metodi vositasida o'tib bo'lmaydi. O'qitilayotgan mavzuning xarakteri, sinf o'quvchilarining darsga bo'lgan munosabatlari va o'zlashtirish darajalariga qarab material turlicha bayon qilinishi mumkin.

Shuningdek, o'quvchilarni o'tilajak materialning mavzusi, maqsadi va uni bayon etish va boshqalar sinf o'quvchilarining faolligini oshirishda, mustaqil mantiqiy fikr yuritishlarini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, materialni bayon qilish sur'ati (tezligi yoki sekinligi) o'qituvchining nutqi ta'sirchan ohangda bo'lishi, mashg'ulotning haddan tashqari jiddiy yoki zerikarli bo'lmasligi kabi qoidalar nazarda tutilmog'i lozim. O'quv materiallarini og'zaki bayon qilish metodi 5 turda qo'llaniladi: hikoya qilish, o'quv materialini tushuntirish, maktab ma'ruzasi, suhbat, darslik va kitob ustida ishlash [18].

Kasb-hunar ta'limining amaliy metodlari

Ta'limda amaliy metodlar amaliy mashg'ulotlar, loyihalash, mashqlarni bajarish tariqasida olib boriladi. Quyida metodlarning tahlilini keltiramiz:

Amaliy mashg'ulotlar – maxsus jihozlangan xona yoki alohida ajratilgan tajriba maydonida tashkil etilib, tahsil olu-

vhilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish ko'nikma va malakalarini hosil qilishga yo'naltirilgan ta'lim shakli [16. 8–9-b.].

Loyihalash metodi – pedagogikaning pragmatik yo'nalishiga asoslangan holda, ta'lim jarayonida o'quvchilarga beriladigan amaliy topshiriqlarni loyihalash va ularni o'quvchilarning bajarishlari jarayonida bilim va ko'nikmalarini namoyon qilishlarini ta'minlovchi ta'lim shakli [16. 66-b.].

Mashq – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida uni ko'p marta takrorlash. Masalan, o'qish, yozish. Mashq ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi [16. 74-b.].

Kasb-hunar ta'limida ko'rgazmalilik metodlari to'g'risida tushuncha

Ta'limda ko'rsatish uslubi namoyish etish, illyustratsiya (kuzatish) va ekskursiya tariqasida olib boriladi. Quyida metodlarning tahlilini keltiramiz:

Namoyish etish metodi – 1) o'qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan ilmiy-nazariy bilimlarning tahsil oluvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishi uchun ularning sezgi organlari – eshitish, ko'rish, hid va ta'm bilish, teri sezgilarining bir ob'ektga alohida yoki bir necha sezgi a'zolarini bir yo'la safarbar qilishga imkon beradigan ko'rgazmali metod; 2) tahsil oluvchilarning o'quv materiallarini aniq obrazlar vositasida bevosita idrok qilishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim metodi [16. 85–86-b.].

Kuzatish metodi – 1) ob'yektiv borliqdagi narsa-hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni; 2) psixologik-pedagogik tadqiqotlardagi asosiy empirik metodlardan biri. Psixologik-pedagogik hodisani maqsadga qaratilgan tizimli o'rganishda muayyan sharoitlarda ulardagi xususiy o'zgarishlar va ularning sabablarini aniqlash maqsadida qo'llaniladi; 3) voqelikni ta'lim jarayonida idrok qilish imkonini beradigan pedagogik tadqiqot metodi [16. 4-b.].

Ekskursiya (lot. *excursion* – sayr qilish) – 1) bilimni bo'yitish, amaliy tajriba hosil qilish yoki madaniy-ma'rifiy maq-

sadda diqqatga sazovor joylarga jamoa bo'lib borish; 2) bevosita kuzatish asosida muayyan jarayon, voqea-hodisa yoki faoliyat mazmunini yorituvchi bilimlarning puxta o'zlashtirilishini ta'minlovchi ta'lim shakli [16. 145-b.].

Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari

Bolaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkonini beradi.

Ta'lim metodlari o'sayotgan organizmning anatomik-fiziologik, biologik xususiyatlariga ham bog'liqdir. Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilishda ularning yoshiga xos biologik o'sishni hisobga olish kerak. Bunga sabab ta'limning ko'pgina jihatlari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ish qobiliyati, charchashi, ijodiy kayfiyati, jismoniy sog'lig'i, maktabdagi gigiyena sharoitlari va shu kabilarga bog'liqdir [28. 167-b.].

Mutaxassislar tayyorlashning shaxsiy faoliyati konsepsiyasi bo'yicha ta'lim jarayonida individual ta'lim jarayonini individual-ijodiy shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida qarashga, shuningdek, o'qitishni nafaqat o'qitiladigan fan mantiqiga, balki shaxsning rivojlanishi mantiqiga muvofiq holda tashkil etishga imkon beradi, deb qaraladi [28. 167-b.].

Ta'lim oluvchining yaratuvchilik qobiliyati, uning muloqot qila olish qobiliyatini, ta'lim olish madaniyatini, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatini oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasini bajarish (axborot texnologiyalari sohasi, axborot ta'lim hujjatlari, foydalanuvchilari)ni va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qo'lga kiritishni kafolatlaydi. Buning uchun ta'limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga to'g'ri keladi va uning natijasida faol ta'lim jarayonini amalga oshirish mumkin bo'ladi [28. 168-b.].

Faol ta'lim – bu ta'lim jarayoni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki, mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimiy-pedagogik jarayondan iborat.

Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal tizimli, mantiqan tugal va turli tahlil chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. Bunda, asosan, quyidagi ta'lim metodlaridan foydalaniladi: bahs-munozara; fikrlashga jalb qilish; doskada mustahkamlash; turli ta'limiy-kasbiy o'yinlarni amaliyotga joriy etish va h.k.

Ta'lim oluvchilarda faol o'rganish qobiliyati, ya'ni ta'lim oluvchilarning tadqiq qilish (ijod) va o'rganishga qiziqishini (intilishini) yuzaga chiqaruvchi faoliyatli yondashuv ta'lim metodlarini faollashtirishga asosiy didaktik asos bo'la oladi.

Ta'lim metodlarini faollashtirish quyidagi ta'lim qonunlariga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi:

• Ta'limda intellektual sohani rivojlantirish qonuni.

Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini), xotirasini, diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, egiluvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil qilish va h.k.), bilishini (ta'lim oluvchilarni qarama-qarshi muammolarni qurish, savollar qo'ygan farazlarni ilgari surish va h.k.), o'rganishini, bilishini rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarini tashkillashtirishning istiqbolli usullari ishlab chiqiladi va ulardan amaliyotda foydalanish shakllari yaratiladi [28. 168-b.].

• Ta'limda iroda sohasini rivojlantirish qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchidagi maqsadga intilishni shakllantirish jarayoni e'tiborga olinadi. Unda, asosan, asab va muskullarning zo'riqishini yenga olish, tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish, o'zini boshqara olishni rivojlantirish, bilimlarni o'qitish (qanday faoliyat ko'rsatish), faoliyatni rivojlantirish, uni qanday amalga oshirish va nazoratni tashqi ko'nikmasiz olib borish kabi qobiliyatlar hisobga olinadi [28. 169-b.].

• **Ta'limda emotsional sohani rivojlantirish qonuni.**

Bu qonun ta'lim oluvchiga o'z hissiyotini va ruhiy holatini boshqarish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidan iborat bo'lib, unda ortiqcha havotirni yengish va o'zini holisona baholash ko'nikmasiga ega bo'lishlikni tarbiyalash muhim hisoblanadi [28. 169-b.].

• **Ta'limni axborotlashtirish qonuni.** Bu qonun bo'yicha axborotlashtirilgan jamiyat sharoitida ta'lim oluvchilarning jamoatchilik va kasbiy faoliyatida to'laqonliroq samarali qatnashishiga tayyorlash maqsadida ta'lim tizimining barcha komponentlari kompyuterli va axborotli texnologiyalar yordamida yaxshilanadi.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv-uslubiy ishlarni qayta tashkil etish;
- ta'lim beruvchi va uning rolini o'zgartirishga qo'yilgan talablar orttiriladi;
- ta'lim oluvchi shaxsning va uni individuallashtirish xususiyati rolining ortishi [28. 169-b.];
- ta'lim muassasasi rolining zamonaviylashuvi, o'zgarishi va uning ta'lim oluvchilar tarkibi joylashgan joylarga ta'sirini e'tiborga olish [28. 170-b.];
- axborot resurslarining mumkin bo'lgan hajmini to'satdan ortishini hisobga olish;
- zamonaviy axborot xizmati ko'rsatishga bo'lgan talabning muntazam ravishda ortib borishi asosidagi axborotlashtirishning ahamiyati o'sishi, ayniqsa bashoratli, ta'limiy va ilmiy harakterdagi yo'nalishning rivojlanishini hisobga olish;
- beshta muhim masalani hal qilishni kafolatlash. Ular: ta'lim sifatini oshirish; ta'lim jarayonini qulay holga keltirish asosida ta'lim olishni yengillashtirish; aholi savodxonligi oshishini ta'minlash; mamlakatning iqtisodiy potentsiali (quvvati) o'sishini ta'minlash; milliy ta'limning jahon ta'limi tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash.

• **Ta'limda mustaqillik qonuni.** Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchilarning bilimlarini hayotga qo'llay olish uchun ta'lim berish jarayonini **faol fikrlash** jarayoniga aylantirish

asosida ularda ijodiy tashabbuskorlik va **mustaqil** tafakkur, nutq, madaniyati va ilmiy dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishning optimal variantlari ishlab chiqiladi.

Yuqorida qayd etilgan ta'lim metodlarini faollashtirishga imkon beruvchi ta'lim qonunlari mustaqil va namunali ta'limdan amaliyotda foydalanishga keng imkoniyat yaratadi. Bu, ayniqsa ta'lim oluvchilar bilan uyushtiriladigan mustaqil ta'limda yaqqol seziladi.

Professorlar R.X.Djurayev va S.T.Turg'unovlarning qayd etishicha, **mustaqil ta'lim** – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlarning jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, **mustaqil fikrlash** qobiliyati asosiy rol o'ynaydi [28. 170-b.].

Mustaqil fikrlashga o'rgatish. Har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi.

Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining alohida-alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi.

Muayyan fanlar bo'yicha ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga darsliklardan o'rin olgan, ilm ahliga, darslik muallifi va ta'lim beruvchiga avval ma'lum bo'lgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarni har bir ta'lim oluvchi o'zining imkoniyati doirasida o'z yo'li bilan angatiladi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi, yoxud ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savol-topshiriqlar ta'lim oluvchini matn mazmunini hikoyalashga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak.

Demak, **mustaqil ta'lim** – bu olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli [28. 171-b.].

Kasb-hunar ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Pedagogik texnologiya (PT) – shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillikda ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, bilimga chanoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantiriladi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, unga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Chunki mamlakatimiz tez sur'atlar bilan taraqqiy etib, jahon hamjamiyatida iqtisodiy-siyosiy mavqeyi kundan-kun ortib bormoqda. Lekin ijtimoiy sohada, ayniqsa, ta'lim-tarbiyada umumiy taraqqiyotdan orqada qolish holatlari sezilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish bilan bunday holga barham berish mumkin. Quyidagi holatlar ilg'or texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning dolzarbligini ko'rsatib beradi:

- “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish uchun, ma'lum sabablarga ko'ra, jahon hamjamiyati taraqqiyotidan ortda qolib ketgan jamiyatimiz taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or pedagogik tadbirlardan foydalanish zarurligi;

- an'anaviy o'qitish tizimi yozma va og'zaki so'zlarga tayanib ish ko'rish tufayli “axborotli o'qitish” sifatida tavsiflanib, o'qituvchi faoliyati birgina o'quv jarayonining tashkilotchisi sifatidagina emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib qolganligi yoki ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchi rolini o'zgartirish zarurligi;

- fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlarning keskin ko'payib borayotganligi va ularni yoshlarga bildirish uchun vaqtning chegaralanganligi;

- kishilik jamiyati taraqqiyotining shu kundagi bosqichida nazariy va emperik bilimlarga asoslangan tafakkurdan tobora foydali natijaga ega bo'lgan, aniq yakunga asoslangan texnik tafakkurga o'tib borayotganligi;

- barkamol avlodni tarbiyalash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan ob'yektiv borliqqa tizimli yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi.

Pedagogika fani va amaliyotida keyingi paytlarda keng qo'llanilayotgan “pedagogik texnologiya” atamasi inglizcha “an educational technologi” so'zidan olingan bo'lib, “ta'lim texnologiyasi” degan ma'noni bildiradi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi va unga beriladigan ta'riflar

“Texnologiya” tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha – *texos* – san'at, hunar va *logos* – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, “hunar fani” ma'nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to'liq tavsiflab berolmaydi, texnologik jarayon har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda amallarni (operatsiyalarni) muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, texnologik jarayon – bu mehnat qurollari bilan mehnat ob'yektlari (xomashyo)ga bosqichma-bosqich ta'sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi mashina)ning faoliyatidir.

Ishlab chiqarishda texnologiya so'zidan kelib chiqadigan quyidagi tushunchalar ishlatiladi.

Texnologik jarayon – ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalarning yig'indisi.

Texnologik operatsiya – ishchi tomonidan o'zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko'rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita – ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalar ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim – texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo'lib, ma'lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Ana shu ta'rif va tushunchlarni o'quv jarayoniga ko'chirib quyidagi xulosaga kelish mumkin: **Pedagogik texnologiya** – bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'quvchi (talaba)larga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda “O'qitish texnologiyasi”, “Ta'lim texnologiyasi” tushunchalari ham ishlatiladi.

O'qitish texnologiyasi – birinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-harakat aspektini anglatadi. Bu ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi usul va vosita (texnologik operatsiya)larning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli-bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatining loyihasini bajarishning bayonidir (texnologik xarita).

Ta'lim texnologiyasi pedagogik texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli.

Bugungi kunda ilmiy va ommabop adabiyotlarda “pedagogik texnologiya” tushunchasini ta'riflashda turli xil tasniflarni uchratishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab bergan rossiyalik olim V.P.Besspalko: “Pedagogik texnologiya – amaliyotga joriy etish mumkin bo'lgan pedagogik tizimning

loyihasidir”, – deb, quyidagi ta'rifni beradi: “Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir”².

Bu ta'rif mazmunidan quyidagi muhim tamoyillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– PT o'quvchi (talaba)larda ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun loyihalanaadi.

– Loyihalangan tayyor texnologiyani amalga oshirish fan o'qituvchisidan katta mahorat talab etmaydi.

– Yakuniy natija, albatta, kafolatlanadi.

T.S.Nazarova ta'rificha: “Pedagogik texnologiya – ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan usullar, vositalar majmuyidir”³.

Nufuzli YUNESKO tashkiloti ma'qullagan ta'rif bo'yicha “Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning ta'sirini inobatga olib, o'qitish va bilim o'zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo'llashning tizimli metodidir”⁴.

Nemis olimi Kurt Levin, shveysariyalik psixolog Jan Piajler XX asrning 40-yillaridayoq guruhda ko'pchilikning yagona bir qarorga kelishining psixolog tabiatini o'rganishar ekan, pedagogik taxnologiyalarning ahamiyatini alohida qayd etib o'tishgan.

Amerikalik olimlar Benjamin Blum, Levi Stross, Jon Morenolar fikricha “...pedagogik texnologiya ta'lim maqsadlarini ko'zlangan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida oydinlashtirishdir”⁵.

Rus olimi N.V.Kuzmina pedagogik tizim o'zida ta'lim va

² Б е с п а л к о В. П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. М.: Педагогика, 1995.

³ Н а з а р о в а Т. С. Педагогическая технология: новый этап эволюции. Ташкент, 1999. С. 16.

⁴ Ф а р б е р м а н В. Л. Прогрессивные педагогические технологии. Ташкент, 1999. С. 3.

⁵ L e w y l t r o s s, B a t h o r y Z. The Taxonomy of Educational obektiv in Continental. Evrop, Univ. of Chikago. 1994. P. 146–163.

tarbiya maqsadiga bo'ysindirilgan o'zaro bog'liq tarkibli elementlardan tashkil topishini uqtiradi⁶.

Bir guruh rus olimlari "pedagogik texnologiyalar ob'yektiv jarayon va u yangicha sifatli muammolarni yechish uchun ta'limni evolyutsion bosqichga ko'tarish shartlaridan biri", deb qaraydilar (M.V.Klarin, M.Klark, T.A.Ilina). M.V.Klarin fikricha, PT – o'quv jarayoniga yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib o'quv jarayonini loyihalashdir.

Rossiya pedagoglaridan V.M.Monaxov pedagogik texnologiyaga quyidagi ta'rifni beradi: "Pedagogik texnologiya – avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir", – va uning xususiyatiga e'tibor qaratib, – PT – o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'yektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi", – deydi.

V.P.Bespalkoning o'zbekistonlik shogirdlaridan N.Sayidahmedov fikricha: "PT – bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir"⁷.

Yirik pedagog olimlarimizdan biri M.Ochilov pedagogik texnologiya sohasidagi tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosaga keladi: "Pedagogik texnologiya – tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'yektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir"⁸. U pedagogik texnologiyaga ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. "Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiyaning ob'yektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida

⁶ Кузьмина Н. В. Метод системного педагогического исследования. Л.: ЛГУ, 1980. – 172 с.

⁷ Сайдахмедов Н. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati // Xalq ta'limi. 1999 yil 1-son. 98-bet.

⁸ Очилов М. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. Qarshi: Nasaf, 2000. 13-bet.

o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir", – deb ta'rif beradi.

Ko'rib turganimizdek, "pedagogik texnologiya" tushunchasini ta'riflashda hali yagona fikrga kelinganicha yo'q.

Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiya – ta'lim-tarbiya jarayonlari, ta'lim usuli, vositalari, shakllari, o'qituvchi va tahsil oluvchi o'rtasidagi munosabatlar majmui bo'lib, ta'lim jarayoniga tizimli, texnologik yondashuvni talab qiladi va o'zida ta'lim maqsadlarini oydinlashtirishni, natijasini kafolatlashni va ob'yektiv baholashdek muhim belgilarni aks ettiradi.

Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'yektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Pedagogik texnologiya XX asrning oxirlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqalib, nufuzli YUNESKO tashkiloti tomonidan ham tan olindi va qo'llab-quvvatlandi. Hozirda ko'pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda.

Ko'pgina mamlakatlar pedagogik texnologiyadan foydalanib, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar.

Ta'limni texnologiyalashtirishning asosini, ta'lim jarayonini, uning samaradorligini oshirish va ta'lim oluvchilarni berilgan sharoitlarida va belgilangan vaqt ichida loyihalashtirilayotgan o'quv natijalariga erishishlarini kafolatlash maqsadida to'liq boshqarish g'oyasi tashkil etadi.

Pedagogik texnologiya yordamida 3-ming yillikda O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida ham tub o'zgarishlar yuz berishi, o'qituvchi-o'quvchi faoliyati yangilanishi, yoshlarda hurfiylilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari tizimli ravishda shakllantirilishi ko'zda tutilmoqda [7. 255-b.].

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Kasb-hunar ta'limining qanday metodlari mavjud?
2. Kasb-hunar ta'limining qanday og'zaki metodlari bor?
3. Mustaqil ta'lim nima?
4. Kasb-hunar ta'limi deganda nimani tushunasiz?
5. Pedagogik texnologiyalarga izoh bering.


Mustaqil ish topshiriqlari

1. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Kasb-hunar ta'limining metodlari	Metodlar mazmuni

2. Ta'lim olish jarayonining "Nima uchun" sxemasini ishlab chiqing.

Mavzu: Ta'lim olish jarayoni



1.5. Kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari

Reja:

1. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarning asosiy shakllari.
2. Ishlab chiqarish ta'limini tashkil qilishning asosiy shakllari.
3. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, o'rta maxsus kasb-hunar kollej ta'limining xo'jalik yuritishning yangi shakllarini o'qitish.
4. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida masofaviy o'qitish.
5. Ishlab chiqarish amaliyoti: maqsad va vazifalari, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish, ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: ta'limni tashkil etish shakllari, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, kurs ishi, diplom ishi, pedagogik amaliyot.

Nazariy va amaliy mashg'ulotlarning asosiy shakllari

O'tmish davrlarda ta'lim qanday shakllarda tashkil etilgan? Uning taraqqiyot bosqichlari qanday?

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz ta'limni tashkil etish shakllari ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos holda paydo bo'lgan va rivojlangan. Dastlabki davrlarda ta'lim berish ishlarini odamlarning mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan uzviy bog'langan hamda bilim berish, o'rgatish ishlari yakka tartibda olib borilgan.

Davr o'tishi bilan ko'pchilikka bilim berish ehtiyoji paydo bo'ladi, ta'lim tizimi mazmuni, bilimlarning murakkablashuvi bolalarni guruh-guruh qilib, to'plab o'qitishni taqozo qilgan hamda ta'lim bilan shug'ullangan mutaxassis-o'qituvchilar tayyorlash zaruriyati kelib chiqadi.

Shu davrda sinf-dars tizimi paydo bo'la boshlaydi. Xalq orasida hayotiy tajribaga, bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar murabbiy, o'qituvchi bo'lib faoliyat ko'rsatadi.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz, maktab va madrasalarda yoshlarga bilim berish bilan shug'ullanganligi "Avesto" va boshqa tarixiy manbalardan ma'lum. Ammo qadim davrlardan ta'limni qat'iy chegaralangan vaqtda bir xil

yoshdagi bolalar bilan olib borish, ta'lim mazmunini bosqich-ma-bosqich berish masalalariga aniqlik kiritilmagan edi.

Forobiyning "Fan va aql-zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlariga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan.

Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning xizmatlari katta, uni sinf-dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

Y.A.Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil etish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishi, guruhdagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini to'plab, materialni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonida nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Biz hammamiz sinf-dars tizimida o'qiganmiz. Xo'sh, bu tizimning mohiyati nimadan iborat va u qanday tuzilishga ega?

Ta'limning maqsadi – mustaqil jamiyatimizning ravnaqiga nazariy va amaliy hissa qo'sha oladigan "barkamol avlod"ni tarbiyalash.

Ta'limning vazifasi – yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish.

Darsning maqsadi – o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini o'quvchilarga bildirishi va o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mavzuga zamin yaratish.

Darsning mazmunini o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan tugal ma'noga ega matn tashkil etadi. Uni o'quvchilar ongiga singdirish jarayonida manba, xulosa va hikoyalardan foydalaniladi.

Sinf deganda, yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Dars – aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi-yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlardir. Dars – o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsad va tugal mazmundan iborat.

Darsning maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari

asosida belgilanadi. Dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

– Har bir sinfda o'quvchilarni yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishi lozim.

– Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilangan muddatda olib borilishi kerak.

– Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

– Dars, o'quv fanining xarakteri, o'qitilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalarda olib boriladi hamda ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi, navbatdagi bilimlarni o'zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Shuni unutmash kerakki, ta'lim ishlari darsdan tashqari ham to'garak, ekskursiyalar shaklida olib boriladi [7.234-235-b.].

Rus olimi P.I.Pidkasistiy dars tiplarini quyidagicha tahlil etgan:

Yangi mavzu darsi: ma'ruza-dars, seminar-dars, kino-dars, nazariy va amaliy mustaqil ishlar darsi, aralash dars [17. 336-b.].

Bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirish darsi: o'tilgan mavzuni mustahkamlash darsi, takrorlash darsi, BKMLarni kompleks ravishda qo'llash darsi, BKMLarni shakllantirish darsi [17. 337-b.].

Umumlashtirish va tizimlashtirish darsi: chorak, yarim yil va yillik o'quv materiallarini o'rganish darsi [17. 338-b.].

Kombinatsiyalashgan dars – o'quvchilarni mashg'ulotga tayyorlash (uyushtirish) darsi, o'tilgan mavzularni takrorlash va o'quvchilar bilimini baholash, muhim bo'lgan bilimlarni va bugungi o'tilayotgan materialni anglash darsi, yangi mavzu va o'quvchilar qabul qilishi hamda anglashi asosida umumlashtirilishini o'qituvchining joriy qilishi, yangi mavzu va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy qo'llashni mustahkamlash darsi, uyga vazifa berish va bajarish, yakunlash darsi [17. 339-340-b.].

Bilim, ko'nikma va malakalarni korreksiyalash, nazorat qilish darsi: og'zaki savol, yozma ish, diktant, insho, bayon, misol va masalalar yechish, sinov, amaliy (laboratoriya) mashg'ulot sinovi, amaliy dars va mustaqil ishlar nazorati, imtihon [17. 341-342-b.].

Mavzu asosida dars turlariga quyidagicha tavsiya berilgan: yangi mavzuni tushuntirish darsi; o'quvchilarning mustaqil ish jarayonlarida o'quv materiallarini qayta ishlash seminar darsi; amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari darsi; mavzu asosida sinov darsi; jamoa tomonidan bajarilgan ijodiy ishlarni himoya qilish darsi [17. 365-b.].

Dars o'tish shakllaridan biri – ma'ruza. Yuqorida qayd etilgan mashg'ulot mazmuni nazariy ma'lumotlarini ma'ruza orqali o'quvchilarga beramiz. Ma'lumki, ma'ruzalar bir necha turlarga bo'linadi: ma'lumotnomali, muammoli, ko'rsatmali, ikki kishilashib o'tadigan ma'ruza, oldindan kamchiliklari rejalashtirilgan, matbuot-konferensiyali [10. 27-b.].

Amaliy mashg'ulotlar. “Kadrlar tayyorlash Milliy dastur-i”da odatdagi o'zlashtirish ta'limi, asosan, ta'lim mazmunini axborotlar, tushunchalar majmuini o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, yoshlarni, talabalarni amaliy o'quv ko'nikma, malakalarini, mustaqil ijodiy sifatlarini, omilkorlik, tadbirkorlik, ish-bilarmonlik kabi o'quvlarini juda kam rivojlantirishi asoslab berilgan edi. Yuqorida sanab o'tilgan o'quv-amaliy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun ayrim amaliy misollar yechish yoki ayrim amaliy mashg'ulotlar yetarli emas. Talabalarining bilish faoliyatlarini aktivlashtirish uchun ularda zamon, istiqbol talablari darajasida va amaliy, ijodiy o'quv ko'nikmalar hosil qilish uchun o'quv jarayoniga rang-barang amaliy-ijodiy mashg'ulotlar tuzishni olib kirish taqozo qilindi. Bu ishni samarali hal qilish yo'llaridan biri ta'lim dasturini talabalar mustaqil amaliy-ijodiy egallashlari mumkin bo'lgan mavzularni ajratish, bu mavzularni amaliy mustaqil o'rganish shakllari, usullari, vositalari va shart-sharoitlari, murabbiylar hamkorligida ularni o'tkazish texnologiyalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogikaning vazifasi o'quv dasturidagi taxminan 50 foiz mavzularni talabalarni amaliy-ijodiy egallashlariga erishishi bilan birga, yoshlarni pedagogik amaliyotda shunday mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazishga o'rgatishdan ham iboratdir.

O'quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari ham bormi? Ularga nimalar kiradi?

O'quv mashg'ulotlarining sinfdagi shakli, darsdan tashqari yana qo'shimcha qator ta'lim shakllari mavjud bo'lib, bular amaliy tajriba mashg'ulotlari, qo'shimcha darslar, fakultativlar, ekskursiya kabilardir.

Bular darsda berilgan bilimlarni to'ldirish, mustahkamlash, amaliyot bilan bog'lash uchun uyushtirilgan qo'shimcha mashg'ulotlardir.

Bulardan tashqari, o'quv yurtlari tajribasida fan to'garaklari, ishlab chiqarish amaliyoti, o'yin shaklidagi mashg'ulotlardan ham foydalanilmoqda.

Laboratoriya mashg'ulotlarida bolalar turli o'quv predmetlari bo'yicha tajribalar, turli qurilmalar yordamida sinov ishlari o'tkazishadi. Laboratoriya mashg'ulotlari amaliy dars ham deb yuritiladi. Amaliy darslarda o'quvchilar guruhlariga ajratilib, turli eksperimental topshiriqlarni bajarishadi.

Seminar mashg'ulotlari nazariy muammolarni faol o'rganish shakli hisoblanadi. O'rta umumta'lim maktablari-da seminarlar quyidagicha o'tkaziladi: seminar uchun mavzu tanlanadi; mavzu bo'yicha reja, ko'rsatmalar beriladi; tayyorgarlik uchun yetarli vaqt ajratiladi; asosiy manbalar, ularning betlari aytiladi; maslahatlar beriladi. Seminarga barcha o'quvchilar tayyorgarlik ko'rishadi. Seminarning oxirida o'qituvchi yakunlovchi suhbat o'tkazib, kelgusi seminarda qilinadigan ishlarni belgilaydi [7. 239-240-b.].

Oliy ta'lim tizimida ta'limning qanday tashkiliy shakllari qo'llanilmoqda?

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichalarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud. Jumladan, ikki bosqichli oliy ta'lim tizimida ta'lim shakllari mavjud. Bularga: ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlar, kafedra o'qituvchilarining ochiq ma'ruzalarida qatnashish, ma'ruza matnini tayyorlash va muhokama qilish, o'quv kurslari bo'yicha dasturlar tayyorlash ishlari kabilari kiradi.

Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga, uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqod, g'oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'qituvchi har bir ma'ruzaning

mazmunini, fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim.

Ma'ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llaridan biri – o'qituvchilar bilan talabalar o'rtasidagi do'stona, faol munosabatlarni tiklab olishdan iborat.

Bundan tashqari, dars va ma'ruzaning samarali natijasi o'quvchi-talabalarning o'quv jarayonidagi ruhiy holatlarini qay darajada hisobga olinishiga ham bog'liq. Shunday ekan ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshqa shakllaridan o'qitish jarayonida foydalanishlari uchun shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagogik madaniyati, o'z fanini puxta bilishligi va o'quvchi-talabalar bilan umumiy til topa olishlari g'oyat katta ahamiyatga ega.

Ta'limni tashkil etishning zamonaviy (noan'anaviy) shakllari zarurati nimada? Uning qanday shakllari qo'llanilmoqda?

Mustaqil O'zbekistonimizda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirishda ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bilan bog'liq ishlar qilinmoqda. Ta'limni KVN, munozara, disput, konferensiya, mushoira, sud o'yinlari va boshqa shakllarda tashkil etishga harakat qilinmoqda. O'quvchilar faolligini oshiruvchi turli interfaol usullar keng qo'llanilmoqda. Bularga misol tariqasida Sinkveyn, Klaster, Aqliy hujum, T-chizma, Insert jadvali, BBB jadvali, Venna diagrammasi, Konseptual jadval, Semantik xususiyatlar tahlili va boshqalarni keltirish mumkin [7. 241-b.].

An'anaviy va noan'anaviy ta'lim shakllarini taqqoslab quyidagi jadvalni to'ldiring:

2-jadval

Ta'lim shakllari

Ta'limning an'anaviy shakli		Ta'limning noan'anaviy shakli	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

Ishlab chiqarish ta'limini tashkil qilishning asosiy shakllari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-fevraldagi "Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining


ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida O'rta maxsus, "Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tomonidan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tash tartibi to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqildi. Ushbu Nizomda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 11-fevraldagi "Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori ijro uchun qabul qilinishi, "Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tomonidan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tash tartibi to'g'risida"gi Nizom ilovaga muvofiq amaliyotga joriy etilishi, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o'tkazishni takomillashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan qat'iy monitoring olib borish jadvalini ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda amaliyotga joriy etish, kasb-hunar kollejlari ilmiy pedagogik kengashlarida o'quvchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tash natijalarini muntazam ravishda tahlil etib borish kabi vazifalar tilga olingan.

Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, o'rta maxsus kasb-hunar kollejida xo'jalik yuritishning yangi shakllarini o'qitish

Dars jarayoni darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun poydevor hisoblanadi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'zaro aloqadorligi ta'lim jarayonida muhim. Dars jarayonida olingan nazariy va amaliy bilimlar darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchi nazorotida amalga oshiriladi. Shuningdek, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'zaro aloqadorligini quyidagicha ifodalaniladi (4-rasm):

Matbuot (Devoriy gazeta) – barcha bosma mahsulotlar majmui, tor ma'noda davriy nashrlar, asosan, gazeta va jurnallarni ifodalaydi. Matbuot – XV asrning o'rtalarida Yevropada tarkib topgan, qariyb 5 asr mobaynida (ommaviy axborot vositalarining boshqa turlari – radioeshittirish va televideniye paydo

bo'lguniga qadar) kishilararo ommaviy muloqotning, bilim va g'oyalar tarqatishning asosiy vositasi sanalgan. Dastlabki bosma nashrlardan iborat bo'lgan, XVII asrning boshlarida gazetalari, keyinroq esa jurnallar tashkil topdi; XIX asrning o'rtalarida matbuot agentliklari vujudga kela boshladi [25. 507-b.].



4-rasm. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar aloqadorligi

Sayohatni uyushtirishdan maqsad – o'quvchilar uchun mazmunda ekskursiyani tashkil etish va uni o'tkazish shakllarini ishlab chiqishdan iborat. Masalan, ekologik jihatdan tabiat qo'yniga sayohat juda ahamiyatli, o'quvchilarning tabiatga mehr hissini shakllantirishga xizmat qiladi, tafakkurni rivojlantiradi, fanlararo bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, mustaqil ishlashni o'rgatadi, "Fzika, Kimyo, Biologiya hamda Geografiya" adagi asosiy qoidalarni takrorlaydi, o'qituvchi esa nazariy bilimlarni o'quvchining amalda qo'llay olishini tahlil etadi, ularning fanlararo bilimlarini nazorat qiladi va boshqalar.

To'garak – muhim tarbiyaviy vazifani bajaradi. Zero, jonli burchaklarning tashkil etilishi jonivorlar, qushlar va o'simliklarni asrab-avaylash mas'uliyatini, burchini, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayrim o'quv fanlarining nozik joylarini to'garaklar yordami bilan to'ldirish imkoniyatlari mavjud bo'ladi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limida masofaviy o'qitish

Masofaviy o'qitish – o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalari asosida olib boriladigan masofadan turib o'qitish.

Toifalash jadvali: Masofaviy o'qitish jarayoni

1. MASOFAVIY TALIMGA KIRISH

	Masofaviy ta'lim tushunchasi	Masofaviy ta'lim tizimlari
Ushbu bo'limdagi materiallar masofaviy ta'lim sohasi bilan tanishtiradi, jumladan, bunda quyidagi masalalar ko'riladi:	Ta'riflar qismida masofaviy ta'lim ta'riflariga xos xususiyatlarga e'tibor qaratiladi.	Afzalliklari qismi masofaviy ta'limning afzalliklari haqida bo'lib, unda masofaviy ta'lim yordamida mavjud muammolarni hal qilish yo'llari haqida so'z yuritiladi.
• Masofaviy ta'limda keng qo'llaniladigan atamalar	Tushunchalar haqida so'z yuritilganda ishchi lug'atni shakllanishiga yordam beruvchi materiallar keltiriladi.	Tizimli yondashuv deganda masofaviy ta'lim tizimiga oid barcha qismlari bir-biri bilan bog'liq holdagi qarashlar tushuniladi.
• Masofaviy ta'lim tizimiga xos xususiyatlar (vaqt va o'qish joyi)	Vaqt/joy qismida masofaviy ta'limda mavjud sharoitlardan kelib chiqib tashkillashtiriladigan o'qitishning turli yo'llari muhokama qilinadi.	Vazifalari qismida masofaviy ta'lim tizimi vazifalari keltiriladi. Bunda masofaviy ta'limning ahamiyati ko'rib chiqiladi.
• Masofaviy ta'limning afzalliklari		Shuningdek, masofaviy ta'lim muassasalari va dasturlarining har xil turlari muhokama qilinadi.
• Masofaviy ta'limga tizimli yondashuv		
• Masofaviy ta'lim vazifalari		
• Masofaviy ta'lim turlari		
2.1. Ta'riflar	2.2. Asosiy tushunchalar	2.3. Vaqt va o'qish joyi
2. Masofaviy ta'lim tushunchasi		

3-jadvalning davomi

<ul style="list-style-type: none"> • O'qituvchi va o'rganuvchi vaqt va masofa bilan ajralib turishi 	<p>Yozishmalar orqali ta'lim olish, uy sharoitida va mustaqil ravishda ta'lim olish kabi masofaviy ta'lim uslublarining xususiyatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Bir necha yillik tarixga ega • Yakka tartibda, mustaqil o'rgatuvchi materiallarga asoslangan uslub, bunda o'rganuvchilar uy sharoitida o'qishlari mumkin. • Pochta xizmati yoki telefon orqali aloqa o'rnatiladi. Bundan tashqari turli vositalardan ham foydalanish mumkin, masalan, elektron pochta, tele-radio dasturlari va audio-video kassetalari. • Misol: oxirgi 15 yil ichida Shimoliy Amerikaning ko'plab universitet dasturlari o'zlarining yozishma-alloqa dasturlarini hozirgi zamon tilida yurita boshladilar – masofaviy ta'lim yoki mustaqil ravishda ta'lim olish. 	<p>1. Bitta joyda va bir vaqtda: Sinfda o'qitish, yuzma-yuz o'qitishlar va seminarlar, yotoqxonali o'quv muassasalari.</p>
<ul style="list-style-type: none"> • Muassasaning ro'yxatidan o'tishi – o'qitish faoliyatini olib boruvchi muassasa maxsus ruxsat (litsenziya)ga ega bo'lishi va o'qish nihoyasida guvohnoma berilishi kerak. Bu yakka tartibdagi mustaqil o'qishdan tubdan farq qiladi, chunki u kabi o'qitish biron-bir muassasaning guvohnomasi bilan tasdiqlanmaydi. 	<p>O'quv muassasasidan tashqarida o'qish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'quv muassasasidan chetda olib boriladigan ta'lim olish jarayonidir. • O'qishni tashkil etishning turli usullarini o'z ichiga oladi: konferensiya (audio-video, kompyuter) yoki uyda ta'lim olish. 	<p>2. Bitta joyda, ammo turli vaqtlarda: O'rganuvchilar bo'sh vaqtlarida qatnashgan O'quv Resurs Markazlari.</p>

3-jadvalning davomi

<ul style="list-style-type: none"> • Turli media vositalaridan foydalanish – masalan, radio va televideniye dasturlari, audio-video kassetalar, kompyuter yordamida o'qitish, informatsion oladi va aloqa texnologiyalaridan foydalanish. Bu kabi kurs materiallari foydalanishdan oldin sinovdan o'tkazilib tasdiqlanishi kerak. 	<p>Masofaviy o'qitish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Masofaviy ta'limning yarmini bildiradi: masofaviy ta'lim masofaviy o'qitishning yordamida o'qitish, balki o'rganishni ham qamrab oladi. • Tizimga emas, o'qituvchiga ahamiyat qaratadi. 	<p>3. Turli joylarda, lekin bir vaqtda: Audio va video konferensiyalar; telefon yordamida o'qitish.</p>
<ul style="list-style-type: none"> • Ikki tomonlama aloqa – o'rganuvchi va o'qituvchilarni (tyutorlarni) o'zaro aloqaga kirishishlarini bildiradi. Bu aloqa sinxron va asinxron tarzda o'tkazilishi mumkin. 	<p>Mustaqil o'rganish jarayoni:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'quv materiallari bosqichma-bosqich o'zlashtiriladi. • O'rganuvchilar uchun o'zlarini baholashga oid mashqlar juda muhim hisoblanadi. • O'qitish qog'oz yoki kompyuterga asoslangan bo'lishi mumkin. 	<p>4. Turli joylarda va turli vaqtlarda: Uyda o'qitish, kompyuter konferensiyasi, faks, elektron pochta orqali tyutor ko'magi.</p>
<ul style="list-style-type: none"> • Yuzma-yuz uchrashuvlar imkoniyati – o'qitish jarayonida, o'rganuvchilarning o'zaro hamkorligida, kutubxona o'qishlarida va amaliy mashg'ulotlarda amalga oshirilishi mumkin. 	<p>Kattalarga ta'lim berish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Kattalarni o'qitishga qaratilgan tizim. Buni andragogika deyiladi (bolalarni o'qitish – pedagogika). 	

3-jadvalning davomi

<ul style="list-style-type: none"> Mehnat jarayonini tartiblash – keng qamrovli masofaviy ta'limda kursni ishlab chiqish guruhlari uchun va turli xodimlar uchun mehnat va vazifalar taqsimoti mavjuddir. 	<p>Texnologiyalar asosida o'qitish:</p> <ul style="list-style-type: none"> Nashrdan tashqari boshqa texnologik vositalar birlamchi hisoblangan o'qitish Ikki ko'rimishi mavjud: yakka tartibda (masalan, elektron darsliklar) va konferensiyalar yordamida (masalan, audio, video yoki kompyuter konferensiyalar) o'qitish. 	
	<p>O'rganuvchiga yo'naltirilgan o'qitish ta'lim falsafasi bo'lib, shaxsning mustaqilligi va erkinligi birlamchi hisoblanadi. Buning natijasida:</p> <ul style="list-style-type: none"> o'rganuvchiga mos keladigan o'qitish tartibiga; kelishilgan maqsad va mazmunga; kelishilgan o'rganish usullariga; ko'mak mexanizmlarining tanloviga erishiladi. 	
	<p>Ochiq ta'lim tizimi quyidagi sohalarda o'rganuvchilarga tanlash imkoniyatini beradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> Ta'lim olish usulini yoki vositani: nashr, kompyuter tarmog'i, televideniye/video. O'qish joyini: uy, ish joyi, o'quv muassasasi. O'qish tezligini: masalan, tez, belgilanmagan 	

3-jadvalning davomi

	<ul style="list-style-type: none"> Ko'mak mexanizmlarini: o'qituvchi (tutor), audiokonferensiya yoki kompyuter yordamida o'rganish. O'qishga kirish va tugatishga oid imkoniyatlarni. <p>O'rganuvchiga moslanuvchan o'qitish tizimi o'rganuvchiga quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan muhitni yaratishni nazarda tutadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> Ochiq va masofaviy ta'lim usullari, media vositalar va sinf ishlari orasidagi hamohanglik. O'rganuvchi o'qitish jarayoni markazida bo'lgan muhit. O'rganuvchilarning ehtiyojlari va o'rganish qobiliyatlari xilma-xilligini tan olish O'quv reja va pedagogikaning hamohangligi. Turli o'rganish resurslari va vositalaridan foydalanish. Uzluksiz ta'lim g'oyasini qo'llab-quvvatlash. 	
3.1. Masofaviy ta'limning afzalliklari	3.2. Masofaviy ta'limga tizimli yondashuv	3.3. Masofaviy ta'limning vazifalari

3-jadvalning davomi

<p>3.1.1. Masofa "muammosini" hal qilish</p> <p>Masofaviy o'qitish usuli masofa bilan bog'liq bo'lgan quyidagi mummolarni hal qilishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'quv muassasasidan uzoqda joylashgan o'rganuvchilar o'qishga borish imkoniyatiga ega emaslar yoki xohishlari yo'q. • O'rganuvchi va o'qituvchi hududiy jihatdan ajralib qolganlar, masalan, o'qituvchi shaharda, o'rganuvchi esa qishloqda bo'lishi mumkin. • O'rganuvchilar o'qishga borish imkoniyatiga ega emaslar yoki xohishlari yo'q. 	<p>Muammolarni hal etish uchun masofaviy ta'lim dasturlarida, guruhlarda va muassasalarda o'qitish jarayonini bosqichma-bosqich ifodalaydigan model qo'llanadi:</p> <p>Tahlil → tashkillashtirish → ishlab chiqish → amalga oshirish → baholash → qayta ko'rib chiqish</p>	<p>Mablag' va boshqa resurslarni izlab topish va umumli foydalanish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Grantlar yoki o'z mablag'laridan foydalanish. • Ishlab chiqarish va boshlang'ich xarajatlarning yuqoriligi. • Insoniy ko'mak – nisbatan qimmat komponent.
<p>3.1.2. Vaqt "muammosini" tartibga solish</p> <p>Masofaviy o'qitish usuli vaqt yoki o'qish jadvali bilan bog'liq bo'lgan quyidagi mummolarni hal qilishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Guruh a'zolari uzoq vaqt davomida birga to'planishga qodir emaslar yoki bunga istaklari yo'q. • O'rganuvchilar to'liq ish soatiga egalar • Oilaviy majburiyatlar kabi omillar. 	<p>Tahlil: muammoni har tomonlama o'rganib chiqishdir.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qanday muammo hal qilinishi kerak? • Muammo o'quv jarayoni bilan bog'liqligi yoki sharoit bilan? • Muammo kimda mavjud? • Muammoni hal etishda qanday imkoniyatlar mavjud? • Qanday to'siqlar bo'lishi mumkin? <p>Tahlil natijasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Muammoning aniq ifodalanishi • Mo'ljaldagi qatnashuvchilarning batafsil tavsifi • Resurs va kamchiliklar aniqlanganligi 	<p>Dastur va kurslarni ishlab chiqish va sotib olish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Keng ko'lamdagi ishlab chiqishga ko'p vaqt talab etiladi. • Kurslarni boshqa masofaviy ta'lim muassasalaridan sotib olish yoki lizing asosida ularni qo'llash mavjud resurslardan samarali foydalanishni bildiradi. • Alohida mualliflardan boshlab mutaxassislar guruhigacha nisbatan yondashuvlar ko'pligi

3-jadvalning davomi

<p>3.1.3. Talabalar sonini ko'paytirish</p> <p>Masofaviy o'qitish usuli quyidagi holatlarda talabalar sonini ko'paytirishga yordam berishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Kichik universitetlar, mutaxassislarni tayyorlash muassasalari yoki fakultetlarda • Qabul uchun joylar ozligida. 	<p>Tashkillashtirish: muammoni batafsil hal qilish dasturini talab qiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> • Mo'ljaldagi qatnashuvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar kimlar? • Muammoni hal qilish nimalarni keltirib chiqaradi? • Kurs yoki dasturni o'zlashtirgan tinglovchilarda qanday o'zgarishlar bo'ladi? • Tinglovchilar maqsadlariga qanday yetadilar? • Kurs yoki dastur qanday ishlab chiqiladi? • Sizing muammoni hal etishingiz samarali ekanligini qanday aniqlaysiz? <p>Tashkillashtirish natijasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Muammoni hal qilishning batafsil tavsifi, ya'ni qanday, qachon va kim tomonidan qanday narxda hal qilinadi? 	<p>O'qishga qabul qilish va qo'llab-quvvatlash</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'rganuvchilarning ehtiyojlarini tahlil qilish va baholash • Ma'lumotlarni vaqtda ta'minlab berish • Vaqt, narx va bajariladigan ishlar haqida aniq ma'lumotni ta'minlash. • Qachon, qayerda va qanday qilib ish boshlash to'g'risida aniq ma'lumot berish. • Bo'lajak o'rganuvchilarga tizimning qonuniyligini va ishonchligini tushuntirish.
<p>3.1.4. O'qituvchilarning cheklangan sonidan samarali foydalanish</p> <p>Masofaviy o'qitish usuli quyidagi holatlarda cheklangan sonidagi o'qituvchilardan samarali foydalanishga yordam berishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Talab bo'lgan sohadagi malakali o'qituvchilarning yetishmasligi 	<p>Ishlab chiqish: quyidagi savollarga javob berishi kerak</p> <ul style="list-style-type: none"> • Har bir maqsad yoki vazifa uchun qanday strategiya, vosita va usullardan foydalaniladi? • Qanday o'quv resurslari talab etiladi? • Qayerda, qachon va qanday usulda testkari aloqa ta'minlanadi? • Qayerda, qanday va qachon baholash faoliyati olib boriladi? 	<p>Ishlab chiqiladigan, qayta ishlab chiqiladigan, saqlanadigan va tarqatiladigan materiallar</p> <ul style="list-style-type: none"> • Kurs materiallari qog'ozda bosma ko'rinishida, audio-video yordamida va kompyuter programmasi asosida tayyorlanishi mumkin.

3-jadvalning davomi

<p>O'qituvchilarning bir hududda to'planib qolganligi.</p> <ul style="list-style-type: none"> Ma'lum malakaga ega o'qituvchilarning yetishmasligi. 	<ul style="list-style-type: none"> Muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz natijalar nimaldan iborat bo'ladi? O'qitish qanday baholanadi va qayta ko'rib chiqiladi? <p>Ishlab chiqish jarayoni natijasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> Barcha materiallar, qurollar, jihozlar va dasturlarga ega kurs yoki dasturning to'la paketi. 	<ul style="list-style-type: none"> Tarqatiladigan materiallar xat, kuryer, transport tashkilotlari, telekommunikatsiya vositalari, tele-radio uzatish kanallari va sun'iy yo'ldoshlar orqali yuborilishi mumkin. Materiallarni ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarish ko'p vaqt talab etadi. Saqlash, yig'ish, yuborish va inventarizatsiya qilish jarayonlarida maxsus uskuna va xodimlar talab etiladi.
<p>3.1.5. Ijtimoiy masalalar</p> <p>Masofaviy o'qitish usuli quyidagi sobalarda qulay bo'lishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> Ayollarning bilim olish imkoniyatlarining ortib borishida Iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan fuqarolarni o'qitish Jismoniy qobiliyatlari cheklangan shaxslarni o'qitish (masalan, nogironlar) 	<p>Amalga oshirish: muammoni hal qilishni amalda qo'llash</p> <ul style="list-style-type: none"> Barcha zarur bo'lgan resurslar mavjudmi (mehnat, jismoniy va moliyaviy)? Ma'lumotlar to'plash mexanizmi mavjudmi? Muammoni hal qilish va hujjatlar yuritish mexanizmi mavjudmi? <p>Amalga oshirish jarayoni natijasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> O'rganuvchining o'qishdagi muvaffaqiyati va bajarish ko'rsatkichlarining hujjatlarda qayd etib borilishi. Turli mabzalardan olingan ma'lumotlar (masalan, hujjatlar va muammoni hal qilish yo'llari). Baholash bo'yicha boshqa ma'lumotlar (masalan, subbatlar, savolnomalar). 	<ul style="list-style-type: none"> Qabul qilish va ro'yxatga olish Oddiy ro'yxat yoki elektron tizimi orqali amalga oshiriladi. Qat'iy belgilangan yoki o'zgaruvchan qabul qilish kunlarida bo'lishi mumkin. O'qishni tashkil etishning turli usullari mavjud.

3-jadvalning davomi

<p>3.4. Masofaviy ta'lim tizimi turlari</p>	<p>Baholash: qo'shimcha emas, balki tarkibdagi komponent</p> <ul style="list-style-type: none"> Dastlab belgilab olingan maqsadlarga tizim qay darajada javob beradi? O'rganuvchilar va boshqa manfaatdorlar ehtiyojlarini u qay darajada qondiradi? Yetarli darajada maxsus ma'lumotlar mavjudmi? Bunday ma'lumotlar qanday olinadi? Tizimni yaxshilash uchun qanday o'zgartirishlar kiritilishi kerak? <p>Baholash jarayonidan kelib chiqadigan natija:</p> <ul style="list-style-type: none"> Hujjatlar va ma'lumotlar tahlili Muammoni vaqt, narx va boshqa resurslarni inobatga olib hal qilish yo'li 	<p>O'quv dasturlar va kurslar:</p> <ul style="list-style-type: none"> Ikki tomonlama aloqa talab etiladi. Baholash va teskari aloqa. Tashkilotlar bilan hamkorlik. Kutubxona xizmatlari. Hujjatlarni yuritish tizimi.
<p>Bitta o'qish turiga ega muassasa</p> <ul style="list-style-type: none"> Asosan masofaviy ta'lim berish dasturlariga ega Ma'lum darajada yuzma-yuz muloqotlar mavjud, ammo ular majburiy emas O'qitish va o'rganish jarayoni har xil media vositalar yordamida olib boriladi: bosma usuli, yozishmalar ham bunga kiradi; 	<p>Qayta ko'rib chiqish: oldingi jarayonlarni inobatga olgan holda qabul qilingan qarorlar va faoliyatlarining tahlili</p> <ul style="list-style-type: none"> Dastlabki tahlillar to'la va to'g'ri edimi? Tahlillarni qayta ko'rib chiqish zarurati mavjudmi? Baholash uchun mo'ljallangan ma'lumotlarga qanday o'zgartirishlar, tuzatishlar kiritildi? 	<p>O'rganuvchini qo'llab-quvvatlash, ko'mak berish:</p> <ul style="list-style-type: none"> Alohida ko'mak: maslahat berish O'quv ko'mak: o'qitish, baholash va imtihon olish Yuzma-yuz yoki turli vositalar yordamida

3-jadvalning davomi

<p>– audio vositalar: kassetalar, telefon, audiokonferensiya va bir tomonlama yoki ikki tomonlama aloqaga ega radio;</p> <p>– video vositalar: bir tomonlama va ikki tomonlama aloqaga ega televideoniye, kassetalar, videokonferensiyalar;</p> <p>– kompyuter vositasi: elektron pochta, kompyuter konferensiyasi, internet</p> <p>Ikkita o'qish turiga ega muassasa</p> <ul style="list-style-type: none"> • Buning ikkita usuli mavjud: – odatdagi sinfona darsi usuli-dan foydalanish; – masofaviy ta'lim usulidan foydalanish. • Yuqoridagi ikkita usul umumiy intihonga ega bo'lgan bitta kursni o'qitishda qo'llanishi mumkin. • Masofadan o'qiydigan o'rganuvchilarni ikki toifaga ajratish mumkin: uy sharoitida o'rganuvchilar va o'quv muassasasidan tashqarida o'rganuvchilar. 	<ul style="list-style-type: none"> • Tavsiya etilgan o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun resurslar yetarlimi? • Nimalar qilinishi kerak? <p>Qayta ko'rib chiqish jarayoni natijasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Kurs materiallari, o'rganuvchiga ko'mak ko'rsatish va baholash dasturi va qayta ko'rib chiqilgan kursni baholash dasturi 	
		<p>Imtihon o'tkazish, baholash, bitiruv hujjatlarini berish:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Maviud baholash turlari • Imtihon va baholash talablari • Mutaxassis tashkilotlarni jalb qilish

3-jadvalning davomi

<p>Aralash turdagi muassasa</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'rganuvchilarga o'rganishning keng imkoniyatlarini taklif qiladi: – mustaqil, guruhga asoslangan yoki ularning kombinatsiyalari; – yuzma-yuz, media vositalar orqali yoki ularning qandaydir kombinatsiyasi. • O'qish sur'ati va joyini tanlashda keng imkoniyat yaratadi • Yuzma-yuz va masofaviy o'qitishning hamohangligi natijasi. 		<p>Baholash va qayta ko'rib chiqish jarayoni, dastur va kurslar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • O'rganuvchining bajarish ko'rsatkichi • O'rganuvchining qoniqishi • Maqsad va vazifalarga loyqligi • O'zgarishlarga qarshi tura olishi
		<p>Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish</p> <ul style="list-style-type: none"> • Yangi pedagogik texnologiyalar va yondashuvlarga qaratilishi • Masofaviy ta'limning afzallik va kamchiliklaridan xabardor bo'lish

Masofaviy o'qitish texnologiyasi – 1) bu inson va texnik resurslarni, ularning o'zaro aloqasini hisobga olgan holda, ta'lim xizmatining yaxlit tizimli jarayonini yaratish, qo'llash va ommalashtirishdan iborat texnologiya; 2) inson bosh miyasi to'qimalarining modulli tashkil etilganligiga asoslangan o'qitishning istiqbolli tizimi; 3) inson va texnik resurslarning o'zaro aloqasi yordamida amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni.

Masofaviy ta'limga kirish va u haqidagi ma'lumotlar 3-jadvalda ifodalangan.

Ishlab chiqarish amaliyoti: maqsad va vazifalari, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish, ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish

Quyida kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tomonidan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tash tartibi to'g'risida⁹gi Nizom bilan batafsil tanishishingiz mumkin:

I. Umumiy qoidalar⁹

1. Ushbu Nizom "Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tomonidan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tash tartibini belgilaydi.

2. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining (keyingi o'rinlarda o'quvchilar deb ataladi) korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosiy ta'lim dasturining tarkibiy qismi hisoblanadi.

3. Nazariy ta'lim berish jarayonida o'quvchilar tomonidan olingan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish olinadigan mutaxassislik bo'yicha zarur layoqatga, ko'nikmalarga va amaliy ish tajribasiga ega bo'lish ishlab chiqarish amaliyotining maqsadi hisoblanadi.

4. Ishlab chiqarish amaliyoti o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash shakllaridan biri hisoblanadi hamda ularni ishlab chiqarish sharoitlarida olingan kasb-hunar bo'yicha ko'nikmalari va bilimlarini mustaqil ravishda qo'llashga, o'quv dasturlarida nazarda tutilgan ishlarni sifatli va unumli bajarishga o'rgatishni vazifa qilib qo'yadi.

⁹ Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari tomonidan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tash tartibi to'g'risida Nizom.

5. O'quvchilarning korxonalar, muassasalar va tashkilotlardagi ishlab chiqarish amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tarmoq ta'lim standartiga muvofiq amalga oshiriladi.

6. Ishlab chiqarish amaliyoti o'quvchilarning kasb-hunar kolleji bilan korxonalar, muassasalar yoki tashkilot o'rtasidagi shartnoma asosida ishlab chiqarish yoki texnik jarayonda muntazam va bevosita qatnashishi yo'li bilan o'tkaziladi.

7. Kasb-hunar kolleji tarmoq ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda tegishli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi hamda o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etadi.

8. Ishlab chiqarish amaliyoti qoidaga ko'ra korxonalar, muassasalar yoki tashkilotning ixtisoslashuviga bog'liq holda, ushbu maqsad uchun maxsus ajratilgan o'quvchilar o'qishni tugatgandan keyin ishga joylashishi mumkin bo'lgan o'quv-ishlab-chiqarish joylarida o'tkaziladi.

II. Kasb-hunar kollejlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazishdagi faoliyati

9. Kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish amaliyotini sifatli tashkil etish va muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'quv dasturlariga muvofiq o'quvchilarni oldindan nazariy jihatdan tayyorlashni ta'minlaydilar, o'quvchilar tomonidan texnika xavfsizligi qoidalarining puxta o'rganilishini tashkil qiladilar.

10. Kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish amaliyoti boshlanishidan kechi bilan bir oy oldin korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan ularning bazasida ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzadilar.

Shartnomada kasblar bo'yicha o'quvchilar soni, ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish muddatlari va har bir o'quvchining ishlab chiqarish amaliyoti dasturida nazarda tutilgan barcha ish turlarini mustaqil ravishda bajarishga o'rganishi uchun o'quvchilarning ishlab chiqarish yoki texnik faoliyatining bir turidan boshqasiga o'tish jadvali belgilangan.

11. Kasb-hunar kollejlari ishlab chiqarish amaliyoti vaqtida: o'quvchilarning ishlab chiqarish asbob-uskunalariga, jihozlarga, moslamalarga va boshqa mehnat anjomlariga eh-

tiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini: xomashyo, materiallari va elektr energiyasining tejimli sarflanishini: o'quvchilar tomonidan korxonalar, muassasa va tashkilotning tegishli ma'muriy va ishlab chiqarish xodimi ko'rsatmalari va farmoyishlari bajarilishini ta'minlash shart.

12. Kasb-hunar kolleji: Ishlab chiqarish ta'limi ustalariga yoki ishlab chiqarish amaliyot rahbari bo'lgan o'qituvchilarga ularni amaliyot o'tkaziladigan joylarga yuborishda xizmat safari xarajatlarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanishini: o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish rejalarida nazarda tutilgan ekskursiyalarini tashkil etish bo'yicha xarajatlarni to'lanishini ta'minlaydi.

13. Kasb-hunar kolleji ishlab chiqarish amaliyotiga uslubiy rahbarlikni, o'quv dasturlarida nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishini, shuningdek, ko'rsatib o'tilgan tadbirlarning o'quvchilar tomonidan bajarilishini va ular bajarilgan ishlarining texnik shartlarga muvofiqligini tekshirish amalga oshiradi.

14. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar ishlab chiqarish amaliyoti davrida quyidagilarga majbur:

- o'quvchilar uchun xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va ulardan olinadigan mutaxassislik bilan bog'liq bo'lmagan, shuningdek, zararli mehnat sharoitlarida foydalanishga yo'l qo'ymaslik;

- o'quvchilarni ishlab chiqarish binolari, trening kabinetlari, zarur materiallar, asbob-uskunalar, texnik hujjatlar bilan o'z vaqtida ta'minlash va o'quvchilarning yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini, yuqori unumli ish metodlarini o'zlashtirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- o'quvchilarga yo'l-yo'riqlar berishni va ishlab chiqarish amaliyotiga texnik rahbarlikni tashkil etish;

- kasb-hunar kollejining pedagog xodimlariga ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazishda yordam ko'rsatish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- o'quvchilarga ishlab chiqarish amaliyoti davrida tegishli mutaxassisliklar va kasblar ishchilari uchun nazarda tutilgan maxsus kiyim-boshlar, yakka tartibda himoyalash vositalari berish;

- zarur holatlarda o'quvchilarni ishlab chiqarish amaliyoti o'taydigan joyga yetkazishni va u yerdan olib kelishni ta'minlash;

- o'quvchilar bajargan ishlarni ushbu korxonalar, muassasa va tashkilotda belgilangan tartibda hisobga olish va qabul qilish;

- ishlab chiqarish amaliyoti tugagach, har bir o'quvchiga uning ishlari sifatini, erishgan natijalarini, ishga munosabatini, shuningdek unga tavsiya etilayotgan tarif razryadini ko'rsatgan holda ishlab chiqarish tavsifnomasini berish.

III. Ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish bosqichlari

15. Nazariy jihatdan o'qitish, o'rganilayotgan mutaxassislik bo'yicha zarur layoqatni, ko'nikmalarni va amaliy ish tajribasini egallash jarayonida o'quvchilar olgan bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish maqsadida:

- kasb-hunar bo'yicha boshlang'ich layoqat va ko'nikmalarni olish bo'yicha o'quv amaliyoti;

- mutaxassislik sohasi bo'yicha ishlab chiqarish amaliyoti;

- diplom ishini bajarishdan oldingi malaka oshirish (tajriba orttirish) amaliyoti o'tkaziladi.

16. O'quv amaliyoti o'quvchilarni kasb bo'yicha umumiy va maxsus fanlarning ongli va puxta o'rganishga tayyorlash, ularning tanlangan mutaxassislik bo'yicha amaliy kasb layoqati va ko'nikmalarini egallashi uchun o'tkaziladi.

17. Ishlab chiqarish amaliyoti korxonalar, muassasa, tashkilot faoliyatini o'rganish va boshlang'ich amaliy tajribaga ega bo'lish asosida maxsus fanlarni o'rganishda olingan bilimlarni mustahkamlashga, kengaytirishga, chuqurlashtirishga va tizimlashtirishga yo'naltirilgan.

18. O'quvchilarning diplom ishini bajarishdan oldingi amaliyoti o'qitishning yakunlovchi bosqichi hisoblanadi va ularning boshlang'ich kasb-tajribasiga va malakaga ega bo'lishi, o'quvchilarning mustaqil ravishdagi mehnat faoliyatiga kasb bo'yicha tayyorligini tekshirish hamda diplom loyihasi (ishi)ga zarur materiallar to'plash maqsadida o'tkaziladi.

19. O'quvchilarning tajriba orttirishi diplom ishini bajarishdan oldingi amaliyotini o'tkazish turlaridan biri hisoblanadi va yakuniy davlat attestatsiyasida diplom loyihasi (ishi)ni bajarish nazarda tutilmagan holatlarda o'tkaziladi.

IV. Amaliyotni tashkil etish

20. Amaliyotni tashkil etish uning barcha bosqichlarida:

Olinadigan mutaxassislik va beriladigan malakaga muvofiq o'quvchilarni tayyorlashning zarur va yetarli darajasi-

ga bo'lgan talablarning bajarilishiga, o'quvchilar tomonidan ishlab chiqarish amaliyoti dasturiga muvofiq kasb (mehnat) faoliyati ko'nikmalarini egallashning uzluksizligi va izchilligiga yo'naltirilgan.

21. Ishlab chiqarish amaliyoti barcha bosqichlarining mazmuni o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tarmoq ta'lim standartiga muvofiq ishlab chiqiladigan ishlab chiqarish amaliyotining namunaviy dasturida belgilanadi.

22. O'quv amaliyoti o'quv, o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida, o'quv xo'jaliklarida, o'quv-tajriba uchastkalarida va kasb-hunar kollejining yoki korxonada, muassasa, tashkilotning boshqa yordamchi ob'ektlarida o'tkaziladi.

23. O'quv amaliyoti, qoidaga ko'ra, ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan o'tkaziladi. O'quv amaliyoti fanlarni (geodeziya, pedagogika, tibbiyot va boshqa fanlarni) o'rganishning davomi hisoblanadigan holatlarda u maxsus fanlarning o'qituvchilari tomonidan o'tkaziladi. O'quv amaliyotlari ro'yxati kasb-hunar kolleji tomonidan belgilanadi.

24. Ishlab chiqarish amaliyoti: ishlab chiqarish ta'limi darslari; amaliy mashg'ulotlar; tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqarish amaliyoti dasturi talablariga javob beradigan tovar mahsulotlarni o'quvchilar tomonidan tayyorlash bo'yicha ishlab chiqarish faoliyati; o'quvchilarning tajriba-eksperiment, konstruktorlik, ixtirochilik ishlarida qatnashishi shakllarida o'tkaziladi.

25. Ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish muddatlari kasb-hunar kolleji tomonidan, o'quvchilarning nazariy jihatdan tayyorlanganligini va kasb-hunar kollejarining (ustaxonalar, o'quv poligonlarining) o'quv-ishlab chiqarish bazasining, shuningdek, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

26. Ishlab chiqarish amaliyoti uzluksiz siklda, shuningdek, amaliyot mazmuni bilan nazariy o'qitish o'rtasidagi aloqa ta'minlangan taqdirda kunlar (haftalar) bo'yicha nazariy mashg'ulotlar bilan navbatma-navbat o'tkazish orqali amalga oshirilishi mumkin.

27. Ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish uchun joylar kasb-hunar kollejlari bilan korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlar o'rtasida tuziladigan shartnomalar asosida belgilanadi.

28. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar o'quvchilarga haqi to'lanadigan ish joylari, mustaqil ob'ektlar, ishlab chiqarish amaliyoti dasturlariga muvofiq o'quvchilarning ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlaydigan uchastkalar berish huquqiga ega.

29. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda ishlab chiqarish amaliyotini o'tashda quyidagilarga majbur:

- ishlab chiqarish amaliyoti dasturida nazarda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarish;
- korxonada, muassasada yoki tashkilotning ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya qilish;
- texnika xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va yong'in xavfsizligi qoidalarini o'rganish va ularga qat'iy rioya qilish.

30. Baho va (yoki) sinov ishlab chiqarish amaliyoti har bir bosqichining natijasi hisoblanadi.

31. Ishlab chiqarish amaliyotining kasb-hunar kollejidagi rahbarlari: korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqarish amaliyotining ish dasturini tuzadilar; yakka tartibdagi topshiriqlar mavzusini ishlab chiqadilar:

- o'quvchilarni mutaxassisliklar bo'yicha taqsimlashda yoki ularning ish turlari bo'yicha bir joydan ikkinchi joyga o'tkazishda qatnashadilar;
- amaliyot davrida o'quvchilar mehnatidan to'g'ri foydalanishni nazorat qiladilar;

- o'quvchilar tomonidan yakka tartibdagi topshiriqlarni bajarishda va diplom loyihasi(ishi)ga materiallar to'plashda ularga uslubiy yordam ko'rsatadilar;

- o'quvchilar tomonidan ishlab chiqarish amaliyoti dasturining bajarilishi natijalarini baholaydilar.

32. Korxonada muassasa yoki tashkilotlarning rahbari, yoxud uning o'rinbosari, yoki yetakchi mutaxassislardan biri ishlab chiqarish amaliyotiga umumiy rahbarlik qiladi.

33. O'quvchilarning hisobot berish shakli kasb-hunar kolleji tomonidan belgilanadi [22. 175-181-b.].

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Ta'lim shakllari haqida umumiy tushuncha, dars va uning tuzilishini tavsiflang.

2. Ma'ruza qanday tuziladi? Seminar va amaliy mashg'ulot qanday olib boriladi?

3. Kurs, diplom ishining mazmuni nimadan iborat va qanday tayyorlanadi?

4. Ishlab chiqarish ta'limini tashkil qilishning asosiy shakllari nimalardan iborat?

7. O'rta maxsus, kasb-unar kollej ta'limida ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya, fermer xo'jaliklari, firmalar, qo'shma korxonalar bazalarida va ijara pudrati asosida qanday tashkil qilinadi?

8. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida masofaviy o'qitish qanday olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Kurs, diplom ishining mazmunini "Venna diagrammasi" asosida tayyorlang.

2. Ishlab chiqarish amaliyoti yuzasidan quyidagi jadvalni to'ldiring:

Ishlab chiqarish amaliyoti	Mazmuni
Umumiy qoidalar	
Korxonalar faoliyati	
Ishlab chiqarish amaliyoti bosqichlari	

1.6. O'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi

Reja:

1. Zamonaviy ta'lim vositalarining turlari va tavsifi.
2. Ta'lim vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi hamda ulardan majmuaviy foydalanish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: ko'rgazmalilik, zamonaviy ta'lim vositalari, texnologiya, istiqbollari, surat, qog'oz, slyd, skrepka, shablon, chizg'ich, flamaster, fotonusxa, flipchart, doska, bo'r, ekspluatatsion ko'rsatmalar, kinoproeksiya, diaproyeksiya, epiproeksiyalar

Zamonaviy ta'lim vositalarining turlari va tavsifi

Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim vositalaridan foydalanish jihatini quyidagi 3 qismga ajratish mumkin:


- 1) o'qituvchi uchun;
- 2) o'quvchi uchun;
- 3) dars o'tkazish uchun.

Quyidagi chizmada ta'lim vositalarini tanlash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan:

1. O'qituvchi uchun vositalar: o'quv-metodik qo'llanmalar, metodik tavsiyalar, metodik ishlanmalar, o'quv dasturlari, dars rejasi, ma'ruza matni.

2. O'quvchi uchun vositalar: darsliklar, o'quv qo'llanma, jadvallar, yo'l-yo'riq xaritalar, texnologik xaritalar, topshiriq varaqalari va h.k.

3. Dars o'tkazish uchun vositalar: plakatlar, modellar, maketlar, jihozlar, audiovizual vositalar, texnik vositalar. Quyidagi rasmda ta'lim vositalarining turlari keltirilgan:



5-rasm. Ta'lim vositalari

Tanlab olingan metod, shakl va vositalar bir-birini to'ldirishi va uyg'unlashuvi kerak. Bundan tashqari, ta'lim vositalarini xususiyatlariga ko'ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar. Ta'lim vositalari olti turga bo'linadi:

- matnli vositalar;
- tasvirli vositalar;
- audiovizual vositalar;
- yordamchi (jihoz) vositalar;
- modelli vositalar;
- haqiqiy vositalar.

Matnli vositalar – ma'lumot olish va ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ishlatiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- o'quv dasturlari;
- mutaxassislik adabiyoti (darslik);
- ma'ruza matnlari;
- tarqatma materiallar;
- imtihon va nazorat varaqalari.

Tasvirli vositalar – umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun foydalaniladi va quyidagilardan iborat:

- fotosuratlar;
- eskiz, chizma, sxemalar;
- ramziy tasvirlar, reja jadvallar, simvollar;
- diagramma va grafiklar.

Audivizual vositalar – jarayonlar va ishlash mexanizmlari to'g'risida tasvir va ovoz orqali tasavvurlarni vujudga keltirish uchun kerak bo'ladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- videofilmlar;
- kompakt disklar;
- audiokassetalar;
- audiomagnitafon, videomagnitafon;
- videokamera;
- televizor.

Yordamchi vositalar – tasvir va matnni yozish va saqlash uchun foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

- doskalar (oq doska, magnit doskasi);
- "Pinbord" doskasi;
- videoproyektorlar, videoproyektor ekrani;
- kodoskop;
- kompyuter;
- flipchartlar.

Modelli vositalar – o'rganilayotgan ob'ektning modeli orqali u haqda tasavvur hosil qilish uchun kerak bo'ladi va quyidagilardan iborat:

- modellar;
- maketlar;
- trenajerlar.

Haqiqiy vositalar – o'rganilayotgan ob'ektlar haqida real tasavvurni vujudga keltirish uchun ishlatiladi va quyidagilardan iborat:

- asbob-uskunalar;
- stanoklar;

- yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlar;
- xomashyolar.

Ta'lim vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi hamda ulardan majmuaviy foydalanish

Ta'lim vositalari tizimini shakllantirish texnologiyasi hamda ulardan majmuaviy foydalanish uchun ularning afzallik va kamchiliklarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim vositalarining afzallik va kamchiliklari quyida "Toifalash jadvali" asosida ifodalangan:

4-jadval

Ta'lim vositalarining afzallik va kamchiliklari

Ta'lim vositalari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Doska	<ul style="list-style-type: none"> • arzonligi; • ma'lumotlarni taqdimot qilish uchun qulay; • yozuvlar yozish uchun; • asosiy punktlarni tushuntirish uchun; chizma va grafiklarni ko'rsatish uchun; • matematik amallarni bajarish uchun; • diqqatni jalb qilish uchun. 	<ul style="list-style-type: none"> • doskaga diqqat bilan yozish o'qituvchidan doskaga qarashini talab qiladi, buning uchun u o'quvchilarga teskari o'girilishga majbur; • doskadagi yozuv (tasvir) saqlanishi mumkin emas va shuning uchun uni qayta qo'llash mumkin emas; • doskaga yozish ko'p vaqtni talab qiladi.
Flipchart	<ul style="list-style-type: none"> • doskani boshqa joyga siljitish mumkinligi; • foydalanishning qulayligi; • o'zgaruvchanligi (varaqlarni olib qoyish va yopishtirib qoyish mumkin); • turli ranglardagi markerlardan foydalanish mumkin, bu o'z navbatida o'quvchilarning diqqatini jalb etishga yordam beradi. 	<ul style="list-style-type: none"> • yozuv tushunarli bo'lishi kerak, aks holda uni o'qish qiyin bo'ladi; • xato yozmaslikka harakat qilish kerak, aks holda hamma to'g'rilangan joylar doim ko'rinib turadi; • varaqlarni nusxalash-tirish faqat fotosurat yoki ko'chirib yozish orqali mumkin, xolos; • ko'p flipchart qog'ozlari talab etiladi.
Kadoskop	<ul style="list-style-type: none"> • kodoskopni boshqa joyga siljitish mumkinligi; 	<ul style="list-style-type: none"> • kodoskop doska yoki flipchartga qaraganda qimmatroq;

2-BOB. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etish masalalari

2.1. Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalariga qo'yiladigan talablar va ularni jihozlash

Reja:

1. Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalarini tashkil qilish bo'yicha umumiy talablar, kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalaridagi ta'lim va tarbiyaning vazifalari hamda ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar.

2. Kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish va ularni o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni jihozlash.

Tushunchalar va tayanch iboralar: o'quv xonalari, talablar, o'quv ustaxonalari, jihozlar.

Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalarini tashkil qilish bo'yicha umumiy talablar, kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalaridagi ta'lim va tarbiyaning vazifalari hamda ularning jihozlanishiga qo'yiladigan talablar

Ta'lim muassasalaridagi mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa inventarlardan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to'g'risidagi yo'riqnomada oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish va ularni saqlash to'g'risida ma'lumotlar berilgan:

"X. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish va ularni saqlash"

1. O'quv-laboratoriya jihozlari, ustaxona anjomlari va o'quv-texnika vositalaridan foydalanishni tashkil etish tartibi

1.1. Ta'lim muassasalarida mavjud jihoz, asbob-uskuna va o'quv texnika vositalari (avtomobil, traktor, o'ziyurar mexanizmlar va kompyuter orgtexnika vositalari)dan samarali foydalanish bo'yicha rahbar va pedagog kadrlar hamda moddiy javobgar shaxslarning majburiyatlari va vazifalari:

a) o'quv reja va dasturlariga muvofiq amaliy, laboratoriya va o'quv amaliyoti mashg'ulotlarini tashkil etishda mavjud jihoz va kompyuter orgtexnikalaridan to'liq foydalanishni ta'minlash;

b) fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarini ishlab chiqishda mavjud jihozlardan samarali foydalanishni e'tiborga olish;

v) professor-o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining taqvim mavzu rejalaridagi tegishli mavzularga jihozlarni mos ravishda bog'lash;

g) har bir jihoz, asbob-uskuna va texnikadan bir o'quv yilida foydalanish yuklamalarini ishlab chiqish va o'quv yilining yakunida ulardan foydalanish bo'yicha hisobot tayyorlash;

d) hududlarda jihozlardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy seminarlar tashkil etish;

ye) yangi pedagogik va informatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish;

j) jihozlardan foydalanishning texnikaviy xavfsizlik choratadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

z) byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag' topish maqsadida o'quv jarayonini to'liq ta'minlagan holda mavjud jihoz, kompyuter va orgtexnikalardan foydalanib, servis xizmati ko'rsatishni yo'lga qo'yish choralarini ko'rish.

1.2. O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari, o'quv-laboratoriya xonalari va fan kabinetlariga berilgan jihozlarni oldindan ishlab chiqilgan loyiha asosida joylashtirish va o'rnatish.

1.3. Ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha prorektor va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida direktor o'rinbosari umumta'lim fanlari o'quv va laboratoriya xonalarini, moliya va iqtisod bo'yicha prorektorlar, kasbiy ta'lim bo'yicha direktor o'rinbosari maxsus fanlar o'quv va laboratoriya xonalari, ustaxona, o'quv-tajriba xo'jaliklari va avtodromdagi jihozlardan mashg'ulotlarda to'g'ri foydalanishni nazorat qilib borish.

1.4. O'quv-laboratoriya xonalari va ustaxonalaridagi mavjud o'quv jihozlaridan mashg'ulotlarga tayyorlanishda qulaylikni yaratish maqsadida kartoteka tashkil qilish.

1.5. O'quv-laboratoriya xonalari, fan kabinetlari va ustaxonalarga mas'ul etib birlashtirilgan shaxslar rahbarligida mashg'ulot o'tkazadigan professor-o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari bilan xonalarni jihozlashning istiqbol, yillik rejasi va o'z kuchlari bilan jihozlashning ish taqsimotlarini amalga oshirish:

– xonaga birlashtirilgan o'quv guruhlarini bilan birgalikda jihozlarning tozaligi, sozligi va saqlanishi bo'yicha ish olib borish va har o'quv yili yakunida mavjud jihozlarni inventarizatsiyadan o'tkazish.

1.6. Jihozlangan xonalarga birlashtirib qo'yilgan xodimlar xonada xavfsizlik texnikasi (mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi hamda sanitar-gigiyena holati) qoidalarining bajarilishiga, mavjud jihoz hamda materiallardan tejamkorlik bilan foydalanishga va talaba-o'quvchilarni ham tejamkorlikka o'rgatishga mas'ulligini ta'minlash.

1.7. O'quv-laboratoriya xonalari, fan kabinetlari, o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalaridagi mavjud jihozlardan foydalanishda talaba-o'quvchilarni xavfsizlik texnikasi yo'riqnomasi bilan tanishtirish va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish.

1.8. O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida tashkil etiladigan mashg'ulotlar vaqtida dastgohlarda xavfsizlik himoya to'siqlarining mavjudligiga e'tibor qaratish.

1.9. Mashg'ulotlar tugagandan so'ng, ish joylaridagi jihoz va asbob-uskunalarining holatini ko'rikdan o'tkazish, tozalash va ularni doimiy saqlash joyiga qo'yish.

1.10. Ayrim kimyoviy reaktivlar, jumladan, yonuvchi moddalar (natriy, kalsiy, kalsiy karbid, rux, alyuminiy, oltingugurt, temir, temir sulfid chang formalarda) va uchuvchi yonuvchi suyuqliklar (dietil efir, atseton, benzin, spirt, benzol va boshqalar)dan foydalangan holda amalga oshiriladigan tajribalar mo'rili shkaflarda o'tkazilishini ta'minlash.

1.11. Yuqori konsentratsiyali kislota va ishqor (ammiak – 25%) eritmalaridan foydalanganda ularni kuydirish va o'yish xususiyatlarini, nitratlardan foydalanganda esa boshqa kimyoviy moddalar bilan aralashishi natijasida yonuvchi va portlovchi moddalar hosil bo'lishini hisobga olish.

1.12. O'zbekiston Respublikasining o'lchashlar birligini

ta'minlash davlat tizimi O'lchash vositalarini qo'llash (asosiy qoidalar) to'g'risidagi Davlat standarti (O'z DSt 8.003:2005) ning 4.6-bandiga asosan "O'qitish (namoyish) maqsadida qo'llaniladigan o'lchash vositalari"ning yaqqol ko'rinadigan joyiga "O" belgisini yozib qo'yish:

– shuningdek, Davlat standartining 4.4-bandiga asosan davlat metrologik tekshiruvi va nazorati doirasida qo'llash uchun mo'ljallangan o'lchov vositalarini qiyoslashdan o'tkazish.

1.13. O'quv-texnika vositalari ta'lim muassasalariga yetkazib berilgandan so'ng, o'n kun muddatda joylardagi tegishli nazorat qiluvchi muassasalar (Davlat yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi yoki Davlat texnika nazorati inspeksiyasi)da ro'yxatdan o'tkazish va bir yilda bir marta texnik ko'rikdan o'tkazilishini ta'minlash.

1.14. O'quv-texnika vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonaning texnikadan foydalanish bo'yicha qo'llanmasida belgilangan muddatlarda tegishli texnik qarov ko'rsatuvidan o'tqazish.

1.15. Avtotransport vositalari haydovchilari hamda "Keng profilli traktorist" tayyorlash nazarda tutilgan mutaxassisliklari mavjud ta'lim muassasalariga yakka tartibdagi o'quv mashqlari hamda o'quv-tajriba xo'jaliklarida amaliyot vaqtda foydalanish uchun berilgan avtomobil va boshqa texnikalardan birinchi navbatda o'quv maqsadlarida foydalanishga ta'lim muassasalari rahbarlarining shaxsan mas'ulligini oshirish.

1.16. Barcha fan xonalari, laboratoriya, ustaxona, o'quv-tajriba xo'jaligi va avtodromlardagi jihozlarni va ularning ishga yaroqlilik holati ta'lim muassasasining Pasportida o'rnatilgan tartibda qayd etib borish.

1.17. O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalaridagi nosoz holga keladigan dastgohlarni ta'mirlashni soha mutaxassislarini jalb qilgan holda amalga oshirish.

1.18. O'quv-laboratoriya jihozlari, ustaxona anjomlari va o'quv-texnika vositalaridan maqsadli foydalanish va ularning saqlanishini samarali tashkil etgan professor-o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalari, fan xonasi mas'ullarini rag'batlantirish masalasini ta'lim muassasasi rahbariyati to-

monidan yarim yillik va o'quv yili yakuni bo'yicha ko'rib chiqish.

1.19. Mas'uliyatsizlik tufayli xato va kamchiliklarga yo'l qo'yib, o'quv-laboratoriya jihozlari va texnikalarning ishlash muddati qisqarishiga, qismlarining ishdan chiqishiga olib kelgan javobgar shaxslarga nisbatan o'rnatilgan tartibda ma'muriy va intizomiy choralar ko'rish.

1.20. Mavjud jihozlardan samarali foydalanish va ularni saqlash holatini ta'lim muassasasining ilmiy va pedagogik kengashlarida o'quv yilida kamida bir marta muhokamadan o'tkazish.

1.21. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonida foydalanishga ehtiyoj bo'lmagan jihoz va texnikalarni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda kasb-hunar ta'limi markazining buyruqlari asosida boshqa ta'lim muassasalari balansiga o'tkazib berish.

1.22. Yaroqlilik muddati tugagan kimyoviy reaktivlarni yo'q qilish va laboratoriya xonalaridagi shisha va chinni idishlar hamda elektr asbob-uskunalarini hisobdan chiqarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 31-dekabrda "Byudjet tashkilotlari va davlat unitar korxonalarining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan ob'ektlarini sotish, shuningdek, ularni sotishdan tushgan pul mablag'larini taqsimlash tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 343-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004-yil 16-avgustdagi "Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to'g'risida"gi 101-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2004-yil 29 avgustda 1401-raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2008-yil 7-iyundagi "Ta'lim muassasalarining umumta'lim va maxsus fan o'quv-laboratoriya xonalaridagi kimyoviy reaktivlar, shisha va chinni idishlar hamda elektr asbob-uskunalaridan samarali foydalanish va ularni ro'yxatdan chiqarish tartibi to'g'risida"gi 84-sonli buyrug'i asosida amalga oshiriladi.

2. *O'quv-laboratoriya jihozlari, ustaxona anjomlari va o'quv-texnika vositalarini saqlashni tashkil etish tartibi*

Jihoz va o'quv-texnika vositalarini joylashtirish va saqlash tartibi:

2.1. Ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan o'quv-laboratoriya jihozlari, ustaxona anjomlari va o'quv-texnika vositalarini talab darajasida saqlanishi, soz va but holda tutilishi uchun javobgar shaxslar tayinlash.

2.2. O'quv-laboratoriya xonalari, fan kabinetlari, o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari, o'quv-tajriba xo'jaligiga taqsimlangan jihoz va texnikalar ro'yxati rahbariyat tomonidan tasdiqlanib, ta'lim muassasalari pasportlariga kiritish.

2.3. Mehnatni ilmiy tashkillashtirish tamoyillariga asoslangan o'quv jihozlarini to'g'ri va ratsional joylashtirish hamda saqlash tizimi professor-o'qituvchining darsga tayyorlanish vaqtini tejashi va jihozlarni but saqlanishini ta'minlash.

2.4. O'quv jihozlarini joylashtirish va saqlash tizimi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

a) o'quv jihozlarini asrash;
b) jihozni olib ishlatish va qayta joyiga qo'yish uchun qulay bo'lgan doimiy joy, darslarda ishlatish zaruratiga qarab joylashtirish;

v) foydalanishga yaroqsiz bo'lgan jihozlarni hisobdan chiqarish, olish va ularni yangisiga almashtirishni nazorat qilish.

O'quv jihozlarini joylashtirish va saqlashning asosiy tamoyili – o'quv jihozining turi, darslarda qo'llanish darajasi hamda xavfsizlik qoidalarini hisobga olish.

2.5. O'quv jihozlarini joylashtirish va saqlash, yuqorida qayd etilgan talablar asosida, maxsus ajratilgan joylarda, javonlar va boshqa qurilmalarning sig'imidan unumli foydalanishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak:

a) ko'rgazmaviy tajribalar o'tkazishda foydalaniladigan jihozlar laborant xonasidagi shkaflarda;

b) frontal laboratoriya ishlarini o'tkazishda foydalaniladigan jihozlar laboratoriya xonasidagi shkaflarda;

v) jadvallar yirik masshtabli papkalarda saqlanadi yoki kartonga yopishtirilib qutiga joylashtiriladi.

Quti doska ostida yoki alohida joyda saqlanishi mumkin. Kerakli jadvalni topish qulay bo'lishi uchun ular raqamli ro'yxatga olinadi.

2.6. Jihozlarni saqlash joylari tartib bilan raqamlanadi va u yerda saqlanayotgan jihozlar nomlari ma'lumotlar daftari-da belgilanadi. Qutilarda saqlanayotgan jihozlarning ro'yxati yozilgan yorliqlarni quti tashqarisiga yopishtiriladi.

2.7. Mashg'ulotlar fan kabinet, laboratoriya xonasi, o'quv ustaxonalarida o'tkazilganda, mashg'ulot vaqtida jihozlarning saqlanishi mashg'ulotni o'tadigan professor-o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi.

2.8. Laborant laboratoriya xonasidagi o'quv jihozlarining saqlanishi va foydalanilishi uchun javobgardir. Laborant jihozlardan foydalanish tizimini, ularni saqlash va texnik xizmat ko'rsatish qoidalarini bilishi hamda barcha jihozlarni soz, ishlatishga shay holatda tutishga mas'ul.

2.9. Professor-o'qituvchi, fan o'qituvchisi va laborant elektr toki, gaz va qizdiruvchi asbob-uskunalar hamda kimyoviy reaksiyalar bilan ishlashning texnikaviy xavfsizlik qoidalarini, baxtsiz hodisalarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni bilishi hamda uskunalarni but va ishchi holatda saqlanishi uchun mas'uldirlar.

2.10. Ta'lim muassasalarida o'quv-texnika vositalari bokslarda yoki usti yopiq maxsus joylarda saqlanishi zarur.

2.11. Kimyoviy reaktivlarni joylashtirish va saqlash tartibi:

a) yonuvchi moddalar (natriy, kalsiy, kalsiy karbid, rux, alyuminiy, oltingugurt, temir, temir sulfid chang formalarida), uchuvchi yonuvchi suyuqliklar (dietil efir, atseton, benzin, spirt, benzol va boshqalar) og'zi yopiq shisha idishlarda, havoda oksidlanuvchi metallar (ishqoriy metallar, lantanoid va aktanoid) kerosin, benzol yoki vazelin yog'i solingan shisha idishlarda qulflanadigan joylarda saqlanadi;

b) boshqa moddalar bilan aralashganda yong'in hosil qiluvchi (brom, konsentratlangan azot va oltingugurt kislotalari, kaliy permanganati va boshqalar) va zaharli (natriy ftorid, temir geksatsianidi, brom, kristalli yod, kaliy geksatsianoferrat (II), kaliy geksatsianoferrat (III), to'rtxlorli uglerod, xloroform, metil xlorid, anilin) moddalar og'zi berk shisha idishlarda, eshiklari zich yopiladigan seyflarda saqlanadi;

v) joylashtirish va saqlashda maxsus qoidalarga rioya qilinishi talab qilinmaydigan reaktivlar (organik va noorganik reaktivlarning katta qismi) jovon polkalariga joylashtiriladi;

g) yuqori konsentratsiyali kislotalar va ammiak (25%) eritmaları og'zi yopiq shisha idishlarda yorug'lik tushmaydigan quruq joylarda saqlanadi;

d) brom qumli metall bankaga solingan, og'zi priter tiqin

bilan zichlangan shisha idishda saqlanadi;

ye) tuz va asoslarning eritmaları maxsus shisha idishlarda reaktivlar uchun ajratilgan joyda saqlanadi;

j) nitratlar alohida jovon tokchalarida portlovchi aralashma hosil qilishi mumkin bo'lgan reaktivlardan uzoqroqda saqlanishi shart.

2.12. Kimyoviy idishlarni joylashtirish va saqlashga qo'yiladigan talablar:

a) har bir idish turi uchun alohida va doimiy joy ajratiladi;

b) har bir idish hajmiga qarab, ularni olish va qo'yish qulay bo'lgan joyga qo'yiladi.

3. Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida moddiy qiymatga ega o'quv-laboratoriya jihozlari, ustaxona anjomlari va o'quv-texnika vositalarini ro'yxatga olish va hisob-kitobini yuritish tartibi

3.1. Ta'lim muassasasiga olib kelingan barcha moddiy qiymatga ega jihozlar va o'quv-texnika vositalari hisobxona xodimlari va moddiy javobgar shaxslar tomonidan unga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlar: qaysi tashkilotdan olindi, nomi, sifati, miqdori, narxi, summasi, sanasi ko'rsatiladi hamda qabul qilgan moddiy javobgar shaxs imzosi bilan rasmiylashtirilib, kirim qilinadi.

3.2. Amaldagi qonunchilikka ko'ra ta'lim muassasasida to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma 18 yoshga to'lgan xodimlar bilan javobgarligidagi moddiy qiymatliklarning saqlanishini ta'minlamagan holatlarda kelib chiqishi mumkin bo'lgan zararni o'z hisobidan to'liq qoplashi va o'rnatilgan tartibda, qonunda belgilangan tartibda javobgarligini hisobga olgan holda, ma'muriyat va moddiy javobgar shaxs bilan uch nusxada shartnoma rasmiylashtiriladi.

3.3. Shartnoma tomonlarning zimmasiga O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 203-moddasida ko'rsatilgan holatlarga to'liq amal qilgan holda tuziladi. Bunda ma'muriyat moddiy javobgar shaxsga topshirilgan moddiy qiymatliklarni o'rnatilgan tartibda, saqlashi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi. Xodim, moddiy javobgarlik to'g'risidagi amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida, qiymatliklarni qabul qilish va kirim-chiqim hamda saqlanishiga doir boshqa uslubiy qo'llanmalar bilan tanishtiriladi.

3.4. O'quv jihozlari, asbob-uskuna, dastgohlar, o'quv-texnika vositalari, sport anjomlari, biblioteka jamg'armasi, o'quv kabinetlari mas'ullari – professor-o'qituvchilar, o'quv-tajriba xo'jaliklari mudirlari, ustaxona, jismoniy tarbiya va chaqiriqqacha yoshlarni tarbiyalash rahbarlari, laborantlar va kutubxona mudirlari javobgarligida saqlanadi.

3.5. Moddiy javobgar shaxslar ta'lim muassasasining ehtiyojini hisobga olib, asosli takliflar beradi, ta'lim jarayoni uchun keraksiz va ortiqcha moddiy boyliklarni sotib olinishiga yo'l qo'ymaydi.

3.6. Moddiy boyliklarni qabul qilish, saqlash va kirim-chiqimi bilan shug'ullanuvchi shaxslar sinalgan, ishonchli kishilar bo'lishi va quyidagi talablarni qondirishi shart:

- a) yetarli darajada bilim va tajribaga ega bo'lishi;
- b) moddiy qiymatliklarni qabul qilish, saqlash va kirim-chiqimiga doir yo'riqnomalarni, asosiy qoida va talablarni bilishi;
- v) qiymatliklarni tez va aniq sanash, o'lchash va tortish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- g) qiymatliklarning kirim-chiqimini o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirishni bilishi.

3.7. Moddiy qiymatliklarni javobgarligida saqlash va foydalanish bilan shug'ullanuvchi shaxslarni ishdan bo'shatish, boshqa ishga o'tkazish vaqtida mavjud barcha qiymatliklar inventarizatsiya (qayta sanoq)dan o'tkazilib, topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi va rahbar tomonidan tasdiqlanadi¹⁰.

Kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish va ularni o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni jihozlash

O'quv ustaxonalarining mavjudligi o'quvchilarni amaliy o'qitish uchun zarur sharoitlar yaratish, nazariy mashg'ulotlarni ishlab chiqarish ta'limi bilan o'zaro bog'lab turish imkonini beradi, materiallarni dasturga muvofiq izchil o'rganishni ta'minlaydi.

O'quv ustaxonalarini jihozlash ta'lim-tarbiya maqsadlari-

¹⁰ Ta'lim muassasalaridagi mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunolari, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa inventarlardan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to'g'risida yo'riqнома.

ga, ishlab chiqarish ta'limi shakl hamda metodlariga muvofiq bo'lishi ishlash uchun qulay sharoit, juda kam vaqt ichida eng yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi.

O'quv ustaxonalarini jihozlash va ish rejasini tuzish tayyorlanadigan kasblarning tavsifi va ishlab chiqarishning xususiyatlariga muvofiq holda amalga oshiriladi. Ustaxonalar, odatda, birinchi qavatga joylashtiriladi. O'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari o'rgatiladigan kasb (tokorlar, chilangarlar, mexanizatorlar va h.k.) ga qarab me'yorlar bilan belgilanadi. O'quv ustaxonalari rejasini tuzishda qo'yiladigan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

1. O'quv ustaxonalari mashg'ulotlari ishlab chiqarish ta'limi dasturiga hamda operatsion kompleks tizimga muvofiq bo'lishi kerak.

2. Har bir bo'lim maydoni va asbob-uskunolari miqdoriga ko'ra hamda beriladigan kasbga muvofiq 25–30 yoki 12–15 kishilik o'quvchilarni bir vaqtda o'qitishga mo'ljallanadi.

3. Kasblarga xos bo'lgan asbob va materiallar tashkil qilinadi.

4. Bir-biriga bog'liq ish bajaradigan bo'limlar bir-biriga yaqin joylashtiriladi.

5. Yong'inga qarshi zaruriy jihozlar bo'lishi shart.

O'quv ustaxonalari o'quvchilar ishlab chiqarish ta'limi dasturi talablariga muvofiq topshiriqlarni bajarishlari uchun zarur bo'ladigan, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablariga javob beradigan yakka va ommaviy foydalanishga mo'ljallangan asosiy hamda yordamchi o'quv-ishlab chiqarish asbob-uskunolari bilan jihozlanadi.

O'quvchilarning yakka tartibda foydalanadigan asosiy o'quv-ishlab chiqarish asbob-uskunolari quyidagilardir: xizmat ko'rsatish, tekshirish ustaxonalari uchun yonilg'i nasoslarini tekshirish stendi, forsunkalarni tekshirish stendi va boshqalar, chilangarlik ustaxonalari uchun chilangarlik tiskisi o'rnatilgan dastgoh va shu kabilar.

Umumiy foydalanishga mo'ljallangan yordamchi o'quv-ishlab chiqarish asbob-uskunolari, parmalash va charxlash stanoklari, rejalash va to'g'rilash plitkalaridan iborat.

O'quv-ishlab chiqarish asbob-uskunolari, shuningdek

mexanizatsiya vositalari hozirgi zamon texnikasi talablariga javob berishi va o'quvchilarga o'quv dasturidagi barcha mavzularni o'rganish imkonini yaratishi kerak.

Yakka tartibda foydalanishga mo'ljallangan asosiy o'quv-ishlab chiqarish asbob-uskunalarining miqdori o'quvchilarning ko'pi bilan ikki smenada ishlashlarini nazarda tutib belgilanadi. Har bir kasb uchun alohida, kerakli asbob-uskunalar bilan jihozlangan ish o'rni bo'lishi shart.

Shunday qilib, ishlab chiqarish bilan nazariy o'qitish kun ora almashinib turganda bir smenali ish kunida bir o'quvchi o'rnida ikki o'quvchi ishlashi mumkin.

Umumiy foydalanishga mo'ljallangan asbob-uskunalarining turi va tarkibi o'quv dasturining talabi hamda o'quv ustaxonalarida bajariladigan ishning xarakteriga ko'ra aniqlanadi.

Jihozlarni o'quv ustaxonalariga joylashtirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1) ustaga o'z ish o'rnida turib o'quvchilar guruhiga yo'l-yo'riq berish imkoniyatini.

2) o'quvchilarning ishlashlari uchun eng qulay va xavfsiz sharoitni.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalarini tashkil qilish bo'yicha kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalaridagi ta'lim va tarbiyaning vazifalari hamda ularning jihozlanishiga qanday talablar qo'yiladi?

2. Kasb-hunar ta'limi o'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish va ularni o'tkazishga qanday talablar qo'yiladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Mavzuni "Insert jadvali" asosida ishlab chiqing.

2. Quyidagi 1,2-jadvallarni to'ldiring.

1-jadval

Madaniyat va san'at kolleji o'quv xonalari	Jihozlari

2-jadval

Madaniyat va san'at kolleji o'quv ustaxonalari	Jihozlari

2.2. O'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish

Reja:

1. O'quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari.

2. Kasb-hunar ta'limini rejalashtirishning umumiy masalalari, kasb-hunar ta'limini rejalashtiruvchi hujjatlar, o'quv-texnologik hujjatlar, kalendar-tematik reja, dars rejasi.

Tushunchalar va tayanch iboralar: o'quv ustaxonalari, jihozlar.

O'quv ustaxonalarida xavfsizlik texnikasi qoidalari

Ta'lim muassasalaridagi mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa inventarlardan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to'g'risida yo'riqnomada oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida texnika xavfsizligi talablari to'g'risida ma'lumotlar berilgan:

XI. Texnika xavfsizligi talablari

1. Barcha ta'lim muassasalarida sodir bo'ladigan yong'in, portlashlar ko'plab moddiy zarar ko'rishga olib keladi. Tu-

rarjoy, jamoa binolari xomashyo mahsulotlari uskuna va dastgohlar, tayyor mahsulotlar yonib ketadi. Natijada bu xalq xo'jaligini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham quyidagi yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish lozim:

1.1. Yong'in xavfsizligi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari tasarrufidagi ta'lim muassasalari uchun chiqarilgan yong'in xavfsizligi qoidalari asosida tashkil etiladi.

1.2. Jihoz va uskunalar saqlanadigan xonalar, ko'pikli va uglekislotali o't o'chirgich, xabar berish qurilmasi va boshqalar bilan ta'minlanishi kerak.

1.3. Yong'inga qarshi uskunalar saqlanadigan joyni to'sib qo'yish va boshqa maqsadlar uchun ishlatish man etiladi.

1.4. Chang va moyni artish uchun mo'ljallangan foydalanilgan va foydalanilmagan materiallar yopiq qopqoqli temir qutilarda saqlanishi kerak.

1.5. Foydalanilgan jihoz-uskunalarining zang-chang va moyni artish materiallari, qirindi va chiqitlar har kuni, mashg'ulotlardan keyin chiqarib tashlanishi kerak.

1.6. Tez yonuvchan va yong'inga xavfli material (benzin, kerosin, spirt, lak, bo'yoq, moy va h.k.) lar yong'inga qarshi inspeksiya bilan kelishilgan maxsus xonada saqlanishi kerak. Ish o'rinlarida bu materiallarning hidi ish kuni uchun belgilangan me'yordan ortmasligi kerak. Ularni ish kundan so'ng omborxonada qoldirish ta'qiqlanadi. Gaz bosimi ostidagi sig'imlarni saqlash va ishlatish man etiladi.

1.7. Tez yonuvchan, yong'inga xavfli jihozlar, inventarlar va materiallar saqlanadigan xonada elektr yoritkichlari shisha qopqoq bilan berkitilgan bo'lishi kerak.

1.8. Elektr isitkichlar maxsus ajratilgan joyga o'rnatilishi kerak.

1.9. Elektr uskunalarining nosozligi yoki ularni ishlatish qoida va talablariga amal qilmaslik odamni shikastlanishiga olib keladi. Elektr toki odam tanasiga termik, elektrolitik va biologik holda ta'sir etishi mumkin. Natijada odamning nafas olishida, yurak faoliyatida, moddalar almashinuvida, qon tarkibida va boshqa a'zolarida o'zgarish bo'lishi mumkin.

1.10. Elektr uskunalarini o'rnatish va ularga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi xodimlar maktab va xalq ta'limi bo'limiga tegishli boshqa muassasalarda 1000 voltgacha kuchlanishga mo'ljallangan elektr qurilmalarni ishlatishga oid tartib asosida ish ko'rishi va unga to'la amal qilishi kerak¹¹.

Kasb-hunar ta'limini rejalashtirishning umumiy masalalari, kasb-hunar ta'limini rejalashtiruvchi hujjatlar, o'quv-texnologik hujjatlar, kalendar-tematik reja, dars rejasi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning 1-chaqiriq 9-sessiyasida qabul qilingan.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning mazmuni uzluksiz ta'lim tizimining huquqiy asoslarini belgilab berishdan iborat. Qonunning maqsadi 1-moddada belgilangan bo'lib, fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishidan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Fuqarolarning bilim olish huquqlari (4-modda).

Jinsi, tili, yoshi, irqi, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi "Ta'lim sohasidagi davlatning asosiy prinsiplari" deb nomlangan bo'lib, shu prinsiplardan biri – umumiy o'rta va o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi majburiyigidir.

DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI TO'G'RIDAGI NIZOM

1. Umumiy qoidalar

1.1. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qoidalariga muvofiq respublikada idoraviy bo'ysunishi va

¹¹ Ta'lim muassasalaridagi mebel, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, kompyuter texnikasi, sport anjomlari va boshqa inventarlardan samarali foydalanish hamda ularni saqlash to'g'risida yo'riqnoma.

mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, ta'lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo'lgan davlat ta'lim standartlari (DTS) belgilanadi.

1.2. DTS – standartlashtirish ob'ektiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilaydi hamda "Standartlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi.

1.3. DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan talablarni; ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini; o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi.

1.4. DTS ta'lim jarayonini va ta'lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi [22].

2. Davlat ta'lim standartlarining maqsadi va vazifalari

2.1. Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiya-ning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

2.2. Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasbiy malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

- xalqning boy ma'naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- ta'limning barcha turlarida ular mazmunini hamda olib boriladigan ta'lim va tarbiyani kelishib olish, ularning o'zaro bog'liqligini, uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;

- o'quv-tarbiya va ta'lim jarayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

- milliy standartlar talabining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash [22].

3. Ta'limning standartlashtirilgan turlari

3.1. DTS ta'limning quyidagi turlari uchun belgilanadi:

- umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan boshlang'ich ta'lim;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari);

- oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura).

3.2. Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta

tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi [22].

4. Ta'limning standartlashtirish ob'yektlari

4.1. Ta'lim fanlarining tuzilmasi, mazmuni, o'quv yuklamasi hajmi, ta'lim oluvchilar va bitiruvchilarning malaka darajasi va tayyorgarlik sifati.

4.2. Talablar, me'yorlar va qoidalar, pedagogik va axborot texnologiyalari, ta'lim usullari va vositalari, shuningdek, ta'lim tizimida foydalaniladigan atamalar, tushunchalar va kategoriyalar.

4.3. Ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga va kasbiy malakasiga tashxis qo'yish tartibi, bitiruvchilar sifatini, ta'lim faoliyati, pedagog va ilmiy-pedagog xodimlar sifatini baholash [22].

5. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan talablar

5.1. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" maqsadlari, vazifalari va qoidalarini so'zsiz amalga oshirilishiga qaratilganlik.

5.2. Ta'lim va kasb-hunar dasturlarida milliy mustaqillik, demokratiya, boy milliy, madaniy an'analar, xalqning intellektual imkoniyatlari va umuminsoniy qadriyatlar prinsiplarini hisobga olish.

5.3. Ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlash.

5.4. Xalqaro tajriba, texnika, texnologiyalar, fan rivojlanishi darajasi, kadrlar tayyorlashga nisbatan amaliyot tomonidan qo'yiladigan talablar hisobga olingan holda ta'lim standartlarining ilmiy asoslanishi.

5.5. Ta'lim turlari va bosqichlari bo'yicha standartlarning kelishilganligi va izchilliligi, shaxsning har tomonlama rivojlanishini hisobga olgan holda, ularning kompleksligini ta'minlash.

5.6. O'quv yuklamasi maqbulligiga qaratilganlik, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga bog'liq ravishda ta'limning tabaqalashtirilishi imkoniyatlarini hisobga olish.

5.7. Ta'lim oluvchilar va bitiruvchilar tayyorlash, ta'lim faoliyati sifatini baholash mezonlari va tartibotini belgilash

5.8. Standartning texnologikligi – uning bajarilishini nazorat qilish va uning me'yorlari va talablari buzilishini oldini olish imkoniyati.

5.9. Standartlarga tajribada tekshiruvdan o'tgan ta'lim faoliyatining ilg'or me'yorlarini kiritish.

5.10. Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtirishi kerak [22].

6. Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish tartibi

6.1. DTSni ishlab chiqish tanlov shartlarida yoki ta'lim boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan e'lon qilingan innovatsiya loyihalari asosida amalga oshiriladi.

6.2. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish Respublika komissiyasi DTS loyihasi ekspertiza qilinishini va eksperimental tekshirishdan o'tishi tashkil etadi, ularning natijalari bo'yicha xulosani rasmiylashtiradi.

6.3. DTS "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish Respublika komissiyasining xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

6.4. DTS ular tasdiqlangan sanadan boshlab amalga kiritiladi va ta'lim boshqaruvi vakolatli organlari va ta'lim muassasalari tomonidan majburiy ijro etish uchun qabul qilinadi.

6.5. Tasdiqlangan DTSga muvofiq ta'lim muassasalariga ega bo'lgan vazirliklar va idoralar ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ishlab chiqadi va ularning amaliy o'zlashtirilishini ro'yobga chiqaradi.

6.6. Ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga bog'liq ravishda o'quv yuklamasini tabaqalashtirish, DTS tomonidan belgilangan me'yorlardan ortiqcha ta'lim mazmunini belgilash ta'lim boshqaruvi vakolatli organlari va ijro etuvchi hokimiyat mahalliy organlarining vakolatiga kiradi.

6.7. DTSga o'zgartirishlar kiritish respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga muvofiq ta'lim darajasi va kadrlar tayyorlashga nisbatan qo'yiladigan talablar o'zgarishi davomida DTSni tasdiqlash uchun belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi [22].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi "O'zbekiston Respublikasida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 204-sonli qaroriga shu qaror asosida tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi Nizom oydinlik kiritdi.

Yuqoridagi nizomga asosan kasb-hunar bo'yicha chuqurlashtirilgan, tabaqalashtirilgan ta'lim berish, o'quvchilarning

intellektual rivojlanishini va ularning o'z qobiliyatlari va moyilliklariga muvofiq tanlangan kasb-hunar bo'yicha mutaxassisliklarni egallashini ta'minlash O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining vazifalari qilib belgilandi:

- davlat ta'lim standartlari doirasida umumta'lim va kasb-hunar dasturlarini bajarish;
- o'quvchilarning uzluksiz ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirishi, tanlangan mutaxassisliklar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanishi uchun zarur va yetarli bo'lgan bilimlar hamda kasb tayyorgarligi darajasini chuqurlashtirish;

- Respublika iqtisodiyotining malakali kichik mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

Klassifikator (Tasniflagich) – Tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning umumdavlat tasniflagichi (TYKMUT) – O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasida texnikaviy-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida"gi 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli qarori asosida tayyorlangan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklar umumdavlat Tasniflagichi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining me'yoriy hujjatlariga asoslanib tuzilgan.

Mazkur Tasniflagich O'zbekiston Respublikasining hududlarida foydalanish uchun ishlab chiqilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va mutaxassisliklari Tasniflagichning tasniflash ob'ektlari hisoblanadi.

Mazkur Tasniflagichda tayyorlash yo'nalishlari nomi, kodi va shu tayyorlash yo'nalishlari turkumiga kiruvchi kasblar va mutaxassisliklar ro'yxati keltirilgan.

Ushbu Tasniflagichda ta'lim haqidagi me'yoriy hujjatlarni indeksatsiyalash maqsadida foydalaniladigan ta'limni xalqaro standart tasniflash (TXST) kodlari ham keltirilgan.

O'MKHT tayyorlov yo'nalishlari va ixtisosliklar kodi – kasbiy faoliyat sohalariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari ixtisoslashtirilgan ro'yxatining raqamli belgisidir.

Tasniflagichda sakkizta bilim sohasi nazarda tutilgan:

1. Ta'lim
2. Gumanitar fanlar va san'at
3. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq
4. Fan
5. Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari
6. Qishloq xo'jaligi
7. Sog'liqni saqlash
8. Xizmatlar

Tasniflagichga o'zgartirishlar kiritish tartibi

Tasniflagichga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflar kadrlar iste'molchilari tashabbusi bilan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligiga tegishli qaror qabul qilish uchun taqdim etiladi.

Tasniflagichga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi takliflarga quyidagi materiallar ilova qilinadi:

- mutaxassislik xususiyatining asoslanganligi hamda mehnat bozorida mutaxassislikka bo'lgan ehtiyoj;
- mutaxassislikning farq qiladigan xususiyatlari;
- davlat ta'lim standartlari va o'quv rejalar loyihalari;
- yangi mutaxassislik bo'yicha moddiy-texnik sharoit va ilmiy-pedagogik salohiyatning mavjudligini asoslagan hujjat.

Tasniflagich etalonini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi olib boradi.

O'quv rejasi ta'limning umumiy hajmini, fanlarni o'rganish ketma-ketligini belgilaydi. Bu hujjatda ta'lim muddati,

ta'limning tuzilishi va tartibi, o'rganilayotgan fanlar ro'yxati, ketma-ketligi, har bir predmetga ajratilgan soatlar soni ko'rsatiladi. U o'quv ishlarini rejalashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartining tayanch o'quv rejalari ta'lim mazmunidan kelib chiqib, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha alohida tuziladi.

Tayanch o'quv rejalari o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining ishchi o'quv rejalari ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. Tayanch o'quv rejasida o'quv yili 40 hafta va 2 semestr dan iborat. Semestrlar 17 va 23 haftani o'z ichiga oladi.

Tayanch o'quv rejalari umumiy soat – 4560 soat bo'lib, undan 80–220 soati ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar uchun ajratiladi.

Ta'lim muassasalari o'quvchilarining haftalik yuklamasi 54 soatni tashkil etadi. Bundan 16 soati mustaqil ishlashga ajratiladi. Ta'lim muassasalari ilmiy-pedagogik kengashlariga ishchi o'quv rejalari tuzishda tayanch o'quv rejalari ta'lim standartlari talablari doirasida 15–20 % gacha o'zgartirish huquqi beriladi. Quyidagi jadvalda kasb-hunar kollejlari uchun tayanch o'quv rejasini keltirilgan.

5-jadval

Kasb-hunar kollejlari uchun tayanch o'quv rejasini

№	Fanlar	Soatlar miqdori	Umumiy yuklamaga nisbatan foiz hisobida
I	Umumta'lim fanlari	1940	42,5%
II	Kasbiy ta'lim fanlari (umumkasbiy va maxsus fanlar)	1180	25,9%
III	O'quv amaliyoti	600	13,0%
IV	Ishlab chiqarish amaliyoti	648	14,3%
V	Diplom ishi	76	1,7%
VI	Kollej ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar	116	2,6%
Jami:		4560	100%

O'quv rejasini – bu shunday davlat hujjatiki, unda quyidagilar aks etgan bo'ladi:

- o'qish muddati;
- bu muddatning o'quv yillariga bo'linganligi;
- har bir o'quv yilining yarim yillikka bo'linganligi;
- har bir yarim yillikning davrga bo'linganligi;
- har bir davrdagi haftalar soni;
- fan nomlari;
- fanlarning turkumlari;
- har bir fan uchun ma'lum davrda ajratilgan haftalik o'quv soati;
- har bir yarim yillik va yillarda fanlarga ajratilgan o'quv soati;
- umumiy muddat uchun har bir fanga ajratilgan o'quv soati;
- har bir o'quvchi uchun bir haftalik mashg'ulot.

O'quv rejasini – bu ta'lim mazmuni va umumiy sharoitni belgilovchi davlat hujjatidir. O'quv rejasida o'quv fanlarining ro'yxati beriladi, ularning yarim yillik va butun kurs bo'yicha tartibi va izchilligi, har bir fanga butun kurs, yil hamda haftalik dars soatlari ko'rsatiladi. O'quv mashg'ulotlarining rejimi va o'quv yilining tuzilishi konsultatsiya vaqti belgilanadi. Ayrim mutaxassisliklar bo'yicha har bir fanga oid nazariy va laboratoriya amaliy mashg'ulotlarining vaqti taqsimlanadi.

Barcha fanlar o'quv rejasida shunday joylashtirilishi kerakki, ular orasida bog'lanish bo'lsin, o'quv rejasidagi har bir fanni o'rganish kasbiy tayyorgarlik uchun muhimligiga qarab belgilangan. Kasbiy – kasb-hunar kollejlari o'quv rejasini.

Kalendar mavzuli reja. Mavzuli reja o'qitish jarayonida ishlab chiqarish ta'limi temalari, maxsus texnologiya, shuningdek, umumta'lim fanlari qanday qo'shib olib borilishini belgilaydi.

Rejada dasturdagi ishlab chiqarish va nazariy ta'lim mavzularini o'tishning o'zaro aloqasi vaqt hamda mazmuniga ko'ra ko'rsatilib, mavzularning nomi va ularga ajratilgan soatlar soni beriladi.

Ko'pgina dasturlarda mavzularni o'tish izchilligi shunday belgilanganiki, maxsus mavzular kasbiy malakalarni egalagunga qadar yoki bir vaqtda (baravar) o'qitiladi. Bunday holatlarda o'quvchilar amaliy ishlarni o'quv ustaxonalari, poligonlar, ishlab chiqarish maydonlarida nazariy tayyorgar-

likka ega bo'lgan holda boshlaydilar. Bu kasbiy malakalarni normal o'zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirishni ta'minlaydi.

O'quv dasturi. O'quv dasturlari o'quv rejasi asosida ishlab chiqilib, nazariy va ishlab chikarish ta'limining qat'iy hajmi, izchilligi belgilanadi. O'quv dasturlari ko'rinishining asosiy qoidalari quyidagilardan iborat: o'quvchilarda muayyan kasbdagi ishchiga qoyiladigan talablarga javob bera oluvchi bilim, malaka va ko'nikmalarning shakllanishi; fan va texnikadagi yangi yutuqlarni hamda ishlab chiqarish ilg'orlari tajribasi-ning aks etishi; nazariy va amaliy aloqasini amalga oshirish; ishlab chiqarish mehnati asosida o'qitish.

O'quv dasturlari – o'quv rejalari kabi kasb-hunar kolleji uchun berilishi majburiy bo'lgan hujjat hisoblanadi. Dasturga na kasb-hunar kolleji rahbarlari, na o'qituvchi, na ishlab chiqarish ta'limi o'qituvchisi tomonidan erkin o'zlashtirish kiritish mumkin emas. Shu bilan bir qatorda, ular kasb-hunar kolleji dasturining asosiy mazmunini o'zgartirmagan holda, unda texnika, texnologiya va ilg'or ishlab chiqarish tajribasi-ning yangi yutuqlarini aks ettirish, mavzularni o'tish vaqtini o'zgartirish va ularni o'rganishga ajratilgan vaqtni qayta taqsimlash huquqiga ega.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. O'quv ustaxonalarida qanday xavfsizlik texnikasi qoidalari mavjud?
2. Kasb-hunar ta'limini rejalashtirishning umumiy masalalari nimalardan iborat?
3. Kasb-hunar ta'limini rejalashtiruvchi hujjatlar, o'quv-texnologik hujjatlar, kalendar-tematik reja, dars rejasi deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Ma'lum bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha ishchi o'quv rejasini quyidagicha tahlil qiling:
 - a) ta'lim yo'nalishi;
 - b) akademik daraja;
 - v) o'qish muddati;
 - g) ta'lim shakli;
 - d) bu muddatning o'quv yillariga bo'linganligi;
 - ye) har bir o'quv yilining yarim yillikka bo'linganligi;

- yo) har bir yarim yillikning davrga bo'linganligi;
 - j) har bir davrdagi haftalar soni;
 - z) fan nomlari;
 - i) fanlarning turkumlari;
 - y) har bir fan uchun ma'lum davrda ajratilgan haftalik o'quv soati;
 - k) har bir yarim yillik va yillarda fanlarga ajratilgan o'quv soati;
 - l) umumiy muddat uchun har bir fanga ajratilgan o'quv soati;
 - m) har bir o'quvchi uchun bir haftalik mashg'ulot.
2. Quyidagi 1,2-jadvallarni to'ldiring:

1-jadval

O'quv ustaxonalari	Texnika xavfsizligi qoidalari

2-jadval

Kasb-hunar ta'limini rejalashtiruvchi hujjatlar	Mazmuni
Davlat ta'lim standarti	
O'quv rejasi (namunaviy va ishchi)	
O'quv dasturi (namunaviy va ishchi)	
Taqvim-mavzuiy reja	
Dars rejasi (dars ishlanma, ma'ruza matni)	
Texnologik xarita	

2.3. O'quv - ishlab chiqarish ishlarini me'yorlashtirish

Reja:

1. Kasb-hunar kollejlarda me'yoriy hujjatlarni yuritish tartibi.
2. O'qituvchilar ishiga vaqt me'yorini belgilash hamda me'yorlashga qo'yiladigan talablar.

Tushunchalar va tayanch iboralar: me'yoriy hujjat, vaqt me'yori, talablar.


Kasb-hunar kollejlarda me'yoriy hujjatlarni yuritish tartibi

O'quv-tarbiyaviy jarayonni Davlat ta'lim standartlari talablari asosida muvofiqlashtirish, uni yuqori darajada tashkil etish uchun kasb-hunar kollejlarda me'yoriy hujjatlar quyidagi tartibda yuritilishi kerak:

1. O'quv yili boshlangunga qadar, ya'ni 30-avgustgacha kollejning barcha tuzilmalarining yillik ish rejalari tuzilib, muhokama qilingan va direktor tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Jumladan:

- 1.1. Kasb-hunar kollejining yillik ish rejasi.
- 1.2. Ilmiy-pedagogik kengashning yillik ish rejasi.
- 1.3. Ichki nazorat rejasi.
- 1.4. Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining ish rejasi.
- 1.5. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining ish rejasi.
- 1.6. Kasbiy tayyorgarlik bo'yicha direktor o'rinbosarining ish rejasi.
- 1.7. Yoshlarni chaqiriqqacha tayyorlash bo'yicha ish rejasi.
- 1.8. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ish rejasi.
- 1.9. Kutubxonaning ish rejasi.
- 1.10. Homiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda o'qituvchi va o'quvchilarni ilmiy izlanishlari bo'yicha qilinadigan ishlar rejasi.
- 1.11. Darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar rejasi.
2. Har o'quv yilining 10-sentyabrigacha quyidagilar tuzilgan va muhokama qilinib, tasdiqlangan bo'lishi lozim:
 - 2.1. Guruh rahbarlari Kengashining ish rejasi.
 - 2.2. Guruh rahbarlarining ish rejasi.
 - 2.3. To'garaklarning ish rejasi.
3. O'quv yili va semestrlar boshlangunga qadar quyidagilar tuzilib, muhokama qilingan va tasdiqlangan bo'lishi lozim:
 - 3.1. Fanlardan taqvim-mavzu rejalari.
 - 3.2. Dars jadvali.
 - 3.3. Ochiq darslar jadvali.
 - 3.4. To'garaklar jadvali.
 - 3.5. Qo'shimcha darslar jadvali.
 - 3.6. O'zaro darslarni tahlil qilish jadvali.
4. O'quv yilining boshida kollej rahbariyati o'quvchilarni quyidagilar bilan ta'minlashlari lozim:

- 4.1. O'quvchi bileti.
 - 4.2. O'quvchining reyting daftari.
 5. Kollejda quyidagi hujjatlar bo'lishi shart:
 - 5.1. Kollejning ustavi.
 - 5.2. Kollejning pasporti.
 - 5.3. Direktiv hujjatlar.
 - 5.4. O'quv rejalari.
 - 5.5. O'quv dasturlari.
 - 5.6. Fanlardan taqvim-mavzu rejalari.
 - 5.7. O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy tekshirish institutlari bilan tuzilgan shartnomalari.
 - 5.8. Maxsus va fakultativ fanlarning tasdiqlangan dasturlari.
 - 5.9. Kollejning ichki tartib-qoidalari.
 - 5.10. Statistik hisobotlar va ma'lumotlar.
 - 5.11. Ilmiy-pedagogik kengashning bayonnomalari.
 - 5.12. Buyruqlar kitobi (o'quvchilarning buyruqlar daftari, o'qituvchi va xizmatchilar bo'yicha buyruqlar daftari).
 - 5.13. Ishlab-chiqarish va diplom oldi amaliyotlari grafiklari.
 - 5.14. Diplom loyihalari mavzularining (tayinlangan rahbarlar va tugallash muddatlari ko'rsatilgan holdagi) tasdiqlangan ro'yxati.
 - 5.15. Bitiruvchilarga diplomlar berishni qayd qilish daftari.
 - 5.16. Guruhlarning o'quv jurnallari.
 - 5.17. Darslarni tahlil qilish daftari (kollej direktori, direktor o'rinbosarlari, kafedra mudirlari).
 - 5.18. O'quvchilarning nomma-nom kitobi.
 - 5.19. O'quvchilarning shaxsiy hujjatlari.
 - 5.20. O'qituvchi va ishchi-xodimlarning shaxsiy hujjatlari.
 - 5.21. Keluvchi va ketuvchi hujjatlarni qayd etish daftari.
 - 5.22. O'qituvchilarning tarifikatsiya jadvali.
 - 5.23. Shtatlar jadvali.
 - 5.24. Yillik hisobotlar majmuasi.
 - 5.25. Qabul komissiyalarining hisobotlari majmuasi.
 - 5.26. Tashrif daftari [23. 34-36-b.].
- Kasb-hunar kollejlarda me'yoriy hujjatlarni yuritish tartibi "Klaster" metodida tushuntiriladi:



O'qituvchilar ishiga vaqt me'yorini belgilash hamda me'yorlashga qo'yiladigan talablar

O'qituvchilar ishiga vaqt me'yorini belgilash hamda me'yorlashga qo'yiladigan talablar quyidagicha belgilangan¹²:

I. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", "Mehnat kodeksi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 16-fevraldagi 67-F Farmoyishi hamda O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqaruv organlari rahbarlarini attestatsiyadan o'tkazish to'g'risida"gi 2005-yil 19-fevraldagi 51-sonli buyrug'i talablariga binoan ishlab chiqilgan. Unda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari pedagog va muhandis-pedagoglarning o'quv yili davomidagi faoliyati samaradorligini aniqlash mezonlari belgilangan.

1.2. Har o'quv yili davomida o'qituvchilar faoliyati samaradorligini aniqlashdan maqsad ta'lim muassasalari jamoalarida sog'lom raqobatli muhitni yaratish, pedagoglarning o'z ishiga mas'uliyati va javobgarligini oshirish, bajargan ishlari xolis va odilona baholash, erishilgan yutuqlarga muvofiq moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni tashkil etish, shuningdek, toifalari bo'yicha kasbiy malaka darajasiga ko'ra, tabaqalashtirilgan holda malaka oshirishning turli shakllariga jalb etishdan iborat.

1.3. Pedagoglar faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

- o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy tadqiqot, tashkiliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar hajmini belgilovchi "Pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyatini belgilovchi Vaqt me'yorlari" (1-ilova) (bundan buyon – "Vaqt me'yorlari");

- o'qituvchining shaxsiy ish rejasidan tashqari bajarilgan ishlari uchun beriladigan qo'shimcha ballarni hisoblash mezonlari (2-ilova);

- o'qituvchi yo'l qo'yg'an xato va kamchiliklarga beriladigan jarima ballarni hisoblash mezonlari (3-ilova).

¹² Pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyati samaradorligi (reytingi)ni aniqlash mezonlari va ularni rag'batlantirish tartibi to'g'risida muvaqqat Nizom.

1.4. Pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyati samaradorligi mezonlari ta'lim muassasasi hamda faoliyat ko'rsatayotgan kafedralari doirasida aniqlanadi. Ta'lim muassasasi doirasida Ilmiy-pedagogik kengash tavsiyasi asosida ta'lim muassasasi direktori buyrug'i bilan tasdiqlangan Komissiya pedagoglar faoliyati (kasbiy malaka darajasi) monitoringini olib boradi va o'quv yili yakunida, ularning faoliyati samaradorligini xolis va odilona aniqlanishini ta'minlaydi.

II. Pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyati samaradorligini baholash

2.1. Pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyati samaradorligi "Vaqt me'yorlari"da belgilangan ko'rsatkichlar asosida, o'quv yiliga tuzilgan shaxsiy ish rejalari-dagi yuklama va uni bajarishga ajratilgan soatlar (ballar) bo'yicha, qo'shimcha va jarima ballar hisobga olingan holda baholanadi.

2.2. Pedagogning shaxsiy ish rejasidagi umumiy yuklama miqdori 1540 soatga teng etib belgilanadi.

2.3. Pedagog faoliyati samaradorligi uning shaxsiy ish rejasida har bir yuklamaning bajarilishi uchun ajratilgan soatlarga teng bo'lgan ballar miqdori orqali baholanadi. O'quv yili davomida pedagog shaxsiy ish rejasini 100 foizga bajargan taqdirda, uning faoliyati samaradorligi 1540 balga teng bo'ladi.

2.4. O'qituvchi o'quv yili davomidagi faoliyatida xato va kamchiliklarga yo'l qo'ysa, unga jarima ballar belgilanadi.

O'quv yili davomida to'plagan jarima ballari "O'qituvchining shaxsiy ish rejasi"ga kafedra mudiri tomonidan o'quv yili yakunida daliliy hisoblar asosida kiritiladi.

Jarima ballari pedagogning o'quv yili davomida to'plagan ballaridan ayirib tashlanadi.

III. Pedagog va ishlab chiqarish ta'limi ustalari reytingini aniqlash

3.1. O'quv yili davomida joriy reyting ballarini hisoblash kafedra mudiri va o'qituvchilar tomonidan amalga oshirildi.

3.2. Pedagoglar to'plagan reyting ballar o'quv yili yakunida kafedra xulosasi va rahbariyat tavsiyasi bilan ta'lim muassasasi Ilmiy-pedagogik kengashida tasdiqlanadi.

Pedagoglarning tasdiqlangan reyting ballari ta'lim muassasasining "Pedagoglar reyting oynasi"da e'lon qilinadi.

3.3. Shaxsiy ish rejasini to'liq bajargan va o'quv yili yakunida kamida 1540 ball to'plagan pedagoglar ichki attestatsiyadan o'tgan deb hisoblanadi.

3.4. To'plagan reyting ballari hisobidan norozi bo'lgan pedagoglarning murojaatlari Ilmiy-pedagogik kengash qoshida tashkil etilgan Ishchi guruhi (kasaba uyushmasi vakili, o'quv, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kasbiy ta'lim bo'yicha direktor o'rinbosarlari va faxriy o'qituvchilar) tomonidan o'rganib chiqiladi.

IV. Pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining faoliyati samaradorligini rag'batlantirish

4.1. O'quv yili yakunida ilmiy-pedagogik kengashda ta'lim muassasasi doirasida reytingi eng yuqori bo'lgan pedagog, ishlab chiqarish ta'limi ustasi, kafedra mudiri va ta'lim muassasasi rahbar xodimlari ro'yxati aniqlanib, ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi hamda jamoaga e'lon qilindi.

4.2. Pedagog, ishlab chiqarish ta'limi ustasi, kafedra mudiri va ta'lim muassasasi rahbar xodimlari reyting ko'rsatkichlari asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ta'lim muassasasining Ilmiy-pedagogik kengashida qabul qilingan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

4.3. Ta'lim muassasasi Ilmiy-pedagogik kengashida reyting ko'rsatkichi eng yuqori bo'lgan pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari haqida elektron ma'lumotlar bazasi tashkil etilib, har o'quv yili yakunida yangilab boriladi.

4.4. Ta'lim muassasasi direktori Davlat mukofotlariga tavsiya etishda reytingi muntazam ravishda eng yuqori bo'lgan pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari tarkibidan nomzodlarni ko'rsatadi.

O'qituvchilar ishiga vaqt me'yorini belgilash hamda me'yorlashga qo'yiladigan talablar "Toifalash jadvali" asosida ishlab chiqildi:

Pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyatini belgilovchi vaqt me'yorlari¹³

No	Ish turlari	Vaqt me'vori, soat	Eslatma
I. O'quv ishlari			
1	Nazariy, amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlari va o'quv amaliyotini o'tkazish	O'quv rejasiga binoan 1 akademik soatga 1 soat yuklama yoziladi	
2	Fanlar bo'yicha konsultatsiyalar o'tish	Bitta guruhga (30 kishi) o'quv rejasida belgilangan yuklamaning 10% hajmida	Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim uchun 15...20% hajmida
3	Kurs ishlariga rahbarlik, maslahat va retsenziya berish hamda himoyasini tashkil etish	Bitta kurs loyihasiga – 3 soat, bitta kurs ishiga – 2 soat	Kurs loyihasi va kurs ishi himoyasi komissiyasi ishida kamida 2 kishi ishtirok etishi lozim
4	Davlat attestatsiyasi komissiyasi (DAK) ishida ishtirok etish	Har bir DAK a'zosiga, bitta bitiruvchi uchun: yozma ishga – 0,2; og'zaki savol-javobga – 0,4; test nazoratiga – 0,2 soat ajratiladi	DAK a'zolari soni 5 kishidan, DAK a'zosining bir kunlik yuklamasi 6 soatdan oshmasligi lozim
5	O'quvchilarning reyting (hisob-kitob va hisoblash-chizma) ishlarini tekshirish	Har bir o'quvchi uchun: oraliq nazoratga – 0,2 soat; yakuniy nazoratga – 0,3 soat ajratiladi	Oraliq nazorat jami 1 soatdan ko'p emas
6	Yozma ishlarni tekshirish	Ona tili va adabiyot (barcha tillardan) – bir o'quvchi uchun o'quv yili davomida – 2,0 soat	Matematika – 1,5 soat; stenografiya – 0,75 soat; chizmachilik – 1,22 soat; texnik mexanika – 1,22 soat
7	Ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik va hisobotlarni qabul qilish	Bir o'quvchiga bir haftaga 1,0-1,2 soat	Amaliyot bazasining uzoq-yaqinligiga qarab, bitta rahbarga 30 tagacha o'quvchini birlashtirilishi mumkin

¹³ Pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyati samaradorligi (reytingi) ni aniqlash mezonlari va ularni rag'batlantirish tartibi to'g'risida Muvaqqat Nizom¹³ga 1-Illova.

No	Ish turlari	Vaqt me'vori, soat	Eslatma
8	Diplom (bitiruv) ishlariga rahbarlik, konsultatsiya va mulohaza berish	Har bir bitiruvchi uchun rahbarga 16 soat ajratiladi	Diplom rahbariga ajratilgan 16 soat yuklamadan ta'lim muassasasi Ilmiy-pedagogik kengashining qarori bilan bo'limlaridan (konstruktiv, iqtisod, mehnat va tabiiat muhofazasi) konsultatsiya beruvchilar uchun 1 soatdan ajratiladi. Bitta rahbarga 8 tagacha bitiruvchi birlashtirilishi mumkin
9	Diplom (bitiruv) ishlariga taqriz berish	Bitta diplom (bitiruv) ishiga 3 soat	
10	Ochiq darslar o'tish	1 akademik soat ochiq dars o'tishga tayyorlanish 5 soat	O'quv yiliga 15 soatdan ko'p emas (ochiq darslar tashqi ekspertlarning taqrizlari asosida baholanadi)
II. Ilmiy-uslubiy ishlar			
1	Nazariy, amaliy, laboratoriya, seminar mashg'ulotlarini o'tkazishga tayyorlanish	Mavjud fanlar uchun yuklamaning 30%, yangi o'qitilayotgan fanlarga 50% ajratiladi	
2	Chet el loyihasi asosida olingan yangi jihozlardan foydalanib o'quv dasturida belgilangan yangi amaliy mashg'ulot yoki laboratoriya ishini o'tishga uslubiy ishlanma tayyorlash	Bitta uslubiy ishlanma uchun 15 soat vaqt ajratiladi	Uslubiy ishlanma ta'lim muassasasining Ilmiy-pedagogik kengashida tasdiqlangan hamda o'quv jarayoniga joriy etilgan bo'lishi lozim
3	O'quvchilarni fan olimpiadalari, ilmiy konferensiya, tanlov va festival-larga tayyorlash	Bitta o'quvchi uchun: Xalqaro miqyosda – 40; Respublika miqyosda – 30; Viloyat doirasida – 10 soat; Ta'lim muassasasida – 5 soat	Ta'lim muassasasining Ilmiy-pedagogik kengashi qaroriga binoan

No	Ish turlari	Vaqt me'vori, soat	Eslatma
4	O'quv jarayoniga informatika va kommunikatsion texnologiyalarni jalb etish dasturini ishlab chiqish	Bitta dastur uchun – 20 soat	Ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi qaroriga binoan
5	Darslik yozish va nashrga tayyorlash	Darslikning bir bosma tabog'i uchun – 40 soat	O'MKHT Markazi rejasi, shartnomasi va topshirig'iga binoan
6	Elektron darsliklar (ED) va o'qitish multimediya ish-lamalarini tayyor-lash	Bitta ED yoki mul-timediya ishlanmasi uchun – 25 soat	O'MKHT Markazi rejasi, shartnoma va topshi-rig'iga binoan
7	O'quv qo'llanma-larini yozish va nashrga tayyorlash	O'quv qo'llanmasining bir bosma tabog'i uchun – 30 soat	O'MKHT Markazi rejasi, shartnoma va topshi-rig'iga binoan
8	Yangi uslubiy qo'llanmalar yozish va nashrga tayyor-lash	Bitiruv ishi – 30; Amaliyot uchun – 25; Kurs ishi(loyihasi) – 20; Mustaqil ish uchun – 15; Bitta amaliy yoki laboratoriya ishi uchun – 5 soat	Ta'lim muassasasi il-miy-pedagogik kengashi-ning qaroriga binoan
9	Maxsus fan va o'quv ustaxo-nalaridagi jihoz va uskunalaridan foydalangan holda o'quv dasturi aso-sida yangi amaliy yoki laboratoriya ishini yo'lga qo'yish	Bitta ish uchun: Yo'lga qo'yish – 20 soat; Yangilab, takomillash-tirish – 10 soat	Ta'lim muassasasi il-miy-pedagogik kengashi-ning qaroriga binoan
10	O'quvchilar bili-mining reyting nazorati, testning yangi variantini ishlab chiqish	Har bir variant uchun 0,5 soat	
11	Interaktiv darslar uchun uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqib, joriy etish	Bitta uslubiy qo'llanma uchun – 20 soat	

No	Ish turlari	Vaqt me'vori, soat	Eslatma
12	Yangi fan uchun namunaviy o'quv dasturini ishlab chiqish	Bitta fan uchun – 20 soat	O'MKHT Markazi rejasi va topshirig'iga binoan
13	O'quv amali-yotidan instruk-sion-texnologik karta tayyorlash	Bitta mavzu uchun – 10 soat	Ta'lim muassasasi il-miy-pedagogik kengashi-ning qaroriga binoan
14	O'quv yoki ishlab chiqarish amali-yoti uchun ishchi dasturi tuzish	Bitta dastur uchun – 20 soat	O'quv-ishlab chiqarish ustaxonasining jihoz-langanligi va ishlab chiqarish amaliyoti bazalarining holatidan kelib chiqib
III. Ilmiy tadqiqot ishlari			
1	Ta'lim muassasasi Ilmiy-pedagogik kengashi qaroriga binoan ilmiy tad-qiqot ishlarini olib borish	Bajaruvchiga – 50 soatgacha, Rahbarga – 100 soat-gacha (Ta'lim muassa-sasining o'zida ishlagan holatida)	Tadqiqotchining ilmiy mavzusi tasdiqlangan OTM Ilmiy kengashi-ning qarori mavjud holatlarda
2	Ilmiy maqola, doklad, ma'lu-mot_lar yozib chop ettirish	Bitta maqola uchun: Xalqaro miqyosida – 40 soat; Respublika miqyosda – 30 soat; Viloyat doirasida – 10 soat.	
3	Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish	Doktorlik dissertatsiya-si – 250 soat	
4	O'quvchilar ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish	Har bir o'quvchi uchun – 10 soat	
5	Dissertatsiya yoki konsertga taqriz berish	6 soat	
IV. Tashkiliy-uslubiy ishlar			
1	9-sinf bitiruvchi-larini akademik litsey va kasb-hu-nar kollejlariga kirishlari uchun targ'ibot-tash-viqot ishlarini olib borish	O'qishga qabul qilingan har bir o'quvchi uchun 1,0 soatdan	Hisobotlar, tashviqot asosida o'qishga kirgan o'quvchilar ro'yxati keltiriladi

No	Ish turlari	Vaqt me'vori, soat	Eslatma
2	O'zaro darslarga kirish va yozma rasmiylashtirgan holda tahlil uyushtirish	Bitta dars uchun 3 soat, semestr davomida 12 soatgacha	O'zaro darslarga kirish jadvali asosida
3	Konsertlar berish – xorijda – respublikada – konservatoriyada	Har biriga 8 soat; 6 soat; 4 soat	
4	Ta'lim muassasasi-ning konsultativ markazlari ishida ishtirok etish	Bir yilga 60 soatgacha	
5	Sport, madaniy va ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish	Bir tadbirga 20 soatgacha	
6	Ilmiy-pedagogik va uslubiy kengash kotibligini olib borish	Bir yilda 40 soatgacha	
7	"Iqtidorli mutaxassis" ko'rik tanlovini o'tkazish	Bir yilda 10 soat	
8	"Barkamol avlod" sport o'yinlarini o'tkazilishida ishtirok etish	Bir yilda 20 soat	Uch yilda bir marotaba o'tkaziladi
9	O'quv-ishlab chiqarish ustaxonasining jihoz va uskunalariga texnik qarov o'tkazish	Har bir jihozga 1,5–2 soat	Yozma hisobot beriladi
10	O'quv-tajriba xo'jaligini o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari o'tkazishga tayyorlash	Har bir amaliyot turiga 6 soatdan	
11	O'quv xonalari mudiri	Bir yilga 30–50 soat hajmida	
12	Kafedra mudirligi	Kafedra fanlari soni va yuklamasiga qarab 120–150 soatgacha	
13	O'quv xonalari sikli, ilmiy va metodik boshqarilganligi uchun	Bir yilga 50 soat hajmida	

No	Ish turlari	Vaqt me'vori, soat	Eslatma
14	Bo'lim mudirligi	O'quvchilar soni: 100–125 ta – 160 soat 126–150 ta – 200 soat 151 va undan ko'p – 240 soat	
15	Bo'lim mudirligi: San'at va musiqa kasb-hunar kollejlari	O'quvchilar soni: 50–100 ta – 160 soat 101 va undan ko'p – 240 soat	
V. Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar			
1	Shahar va tuman tadbirlarida darsdan tashqari vaqtda o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish	Bir yilga 30 soatgacha	O'MKHT boshqarmasi va ta'lim muassasasi topshirig'iga binoan
2	Akademik guruhga murabbiylik qilish	Bir yilga 80 soatgacha	Bir oyga eng kam ish haqining 50% miqdorida to'lanadi. Yozma ravishda hisobot topshiriladi
3	Yotoqxonasi bo'lgan ta'lim muassasasi direktori va ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha o'rinbosarlariga	O'quvchilar soni: 200 tagacha – 160 soat 201 va undan ko'p – 240 soat	
4	Ta'lim muassasasi o'quvchilarini Respublika miqyosida o'tkaziladigan turli tanlov va musobaqalarga tayyorlash	Respublika miqyosida bitta o'quvchi uchun 20 soatgacha; Viloyat miqyosida bitta o'quvchi uchun 10 soatgacha	Ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi qaroriga binoan
5	Ijtimoiy-gumanitar fanlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida maxsus kurslarni o'qitilish holati va sifatini oshirishga qaratilgan uslubiy qo'llanmalar tayyorlash	Qo'llanmaning bir bosma tabog'i uchun 30 soat	O'MKHT Markazi rejasi, shartnoma va topshirig'iga binoan

No	Ish turlari	Vaqt me'vori, soat	Eslatma
6	“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar holati, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitilishini takomillashtirishda ilg'or tajribalarni ommalashtirish” mavzuida hududiy va respublika seminarini tashkil etish	Bir yilga 30 soatgacha	O'MKHT boshqarmasi va ta'lim muassasasi topshirig'iga binoan

Eslatma:

1. Kafedra yuklamasini aniqlashda tajriba tariqasida (o'qituvchi uchun 1540 soat) quyidagi nisbatlardan foydalanish tavsiya etiladi:

Yuklama turi	Kafedra mudiri	Bosh o'qituvchi	Yetakchi o'qituvchi	Katta o'qituvchi	O'qituvchi
O'quv	600-628	660-684	750-766	810-816	890-900
Ilmiy-uslubiy	480-494	490-496	410-416	360-366	240-250
Ilmiy tadqiqot	200-224	210-224	21-216	140-158	90-94
Tashkiliy-uslubiy	160-162	90-94	80-100	90-94	80-100
Ma'naviy-ma'rifiy-tarbiyaviy	80-100	80-100	80-100	240-258	240-250

2. “Vaqt me'yorlari” pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyati samaradorligini aniqlovchi me'voriy-huquqiy hujjat bo'lib, ular kollejning shtatlar birligini aniqlash uchun asos bo'la olmaydi.

3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari yozilganda, muallifning Markaz bilan tuzgan shartnomasi mavjud bo'lsa, ta'lim muassasasi Ilmiy-pedagogik kengashining qarori bilan darslikning yozilishi pedagogning o'quv ishlari yuklamasi hisobidan amalga oshirilishi mumkin [24. 266–286-b.].

O'qituvchining shaxsiy ish rejasidan tashqari bajarilgan ishlari uchun beriladigan qo'shimcha ballarni hisoblash mezonlari¹⁴

No	Ta'lim sifatini ta'minlovchi ko'rsatkichlar	Ballar
I. O'quv ishlari		
1	Murabbiylik guruhi o'quvchilarining o'qitilgan fanlardan o'rtacha o'zlashtirishi:	
	86-100%	20
	71-85%	10
	55-70%	0
2	Guruh o'quvchilarining darslardagi o'rtacha davomati:	
	91-100%	25
	86-90%	10
3	Davlat test markazi sinovlarida o'qituvchining ko'rsatgan bilim darajasi:	
	86-100%	20
	71-85%	10
	55-70%	0
4	O'qituvchining fanidan o'quvchilar ko'rsatgan bilim darajasi:	
	86-100%	20
	71-85%	10
	55-70%	0
II. Ilmiy-uslubiy ishlar		
1	Chop etilgan darslikka (1 bosma tabog'i uchun):	
	– yakka mualliflik,	40
	– hammualliflik	20
2	Chop etilgan o'quv qo'llanmaga (1 bosma tabog'i uchun):	
	– yakka mualliflik,	30
	– hammualliflik	15
3	O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi kutubxonasiga topshirilgan elektron darslikka (1 mega-bayt yoki bosma tabog'i uchun)	20
4	Chop etilgan uslubiy ishlanmaga (1 bosma tabog'i uchun):	
	– yakka mualliflik,	10
	– hammualliflik	6
5	Tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturiga:	
	– yakka mualliflik,	12
	– hammualliflik	6

¹⁴“Pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyati samaradorligi (reytingi) ni aniqlash mezonlari va ularni rag'batlantirish tartibi to'g'risida Muvaqqat Nizom”ga 2-Illova.

No	Ta'lim sifatini ta'minlovchi ko'rsatkichlar	Ballar
6	Fan bo'yicha ta'lim muassasasi tasdiqlagan ishchi dasturga: – yakka mualliflik, – hammualliflik	6
		3
7	Darslik, o'quv qo'llanmaga mas'ul muharrirlik va taqriz berish (1 bosma tabog'i uchun)	2
8	Fandan mustaqil ish topshirig'i va uni tashkillashtirish bo'yicha uslubiy ishlanma: – yakka mualliflik, – hammualliflik	6
		3
9	Bitiruvchilarning yakuniy attestatsiyasini tashkil etish bo'yicha uslubiy ishlanma: – yakka mualliflik, – hammualliflik	6
		3
10	Xorijdagi malaka oshirish tajribalarini ta'lim muassasasiga joriy etganligi (har bir uslubiy yo'nalish yoki pedagogik texnologiya uchun)	6
III. Ilmiy tadqiqot ishlari		
1	Dissertatsiyani yoqlaganligi uchun	20
2	Chop etilgan ilmiy maqolalarning har biri uchun – xorijda, – respublikada	40
		30
3	Konferensiya va seminarlardagi ma'ruza hamda konsertlar uchun (har biriga) – xorijda, – respublika (konservatoriya)da, – viloyatda, – ta'lim muassasasida	20
		10
		5
		3
4	Dissertatsiya yoki konsertga taqriz yozish	6
5	Ilmiy ish olib borayotganligi: – doktorantura, – mustaqil tadqiqotchi	40
		20
6	Ixtiro uchun (1 ta guvohnomaga): – davlat patenti, – dastlabki patent	40
		20
7	Ta'lim muassasasida amaliy mashg'ulot yoki laboratoriya uchun yangi yaratilgan jihozga	20
IV. Tashkiliy-uslubiy ishlar		
1	Chet el loyihalari asosida olingan jihozlarni amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish uchun yaratilib, 100 nusxada chop etilgan bitta uslubiy ishlanma	30
2	Chop etilgan ilmiy maqolalar yoki berilgan konsertlarning har biri uchun – xorijda, – respublikada, – konservatoriyada	40
		30
		30
		10

No	Ta'lim sifatini ta'minlovchi ko'rsatkichlar	Ballar
1	Tasdiqlangan bitta yangi laboratoriya, amaliy mashg'ulot, o'quv amaliyoti ishlanmasi: Hududiy boshqarma tomonidan: – yakka mualliflik, – hammualliflik, Ta'lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan: – yakka mualliflik, – hammualliflik	10
		5
4	Chet el loyihalari asosida olingan jihozlarni amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarida foydalanish uchun yaratilib, ta'lim muassasasida foydalanilayotgan bitta uslubiy ishlanma	10
		5
5	Ishlab chiqarish amaliyoti uchun o'quv qo'llanma (1 bosma tabog'i uchun): – yakka mualliflik, – hammualliflik	10
		5
6	O'quv amaliyoti uchun uslubiy qo'llanma (1 bosma tabog'i uchun): – yakka mualliflik, – hammualliflik	20
		10
7	"Iqtidorli mutaxassis ko'rik tanloviga o'quvchi-shogird tayyorlash (bitta o'quvchiga): – respublika, – viloyat, – ta'lim muassasasi	20
		10
		5
		5
8	O'quvchilardan fan olimpiadalari, sport musobaqalari va tanlov g'oliblarini tayyorlaganligi uchun (1 g'olibga): – xalqaro, – respublika, – viloyat, – ta'lim muassasasi	40
		30
		20
		8
9	Amaliy ishlar ko'rgazmalarida sovrindor o'rnlarni egallagan o'quvchini tayyorlaganligi uchun: – xalqaro, – respublika, – viloyat, – ta'lim muassasasi	40
		30
		20
		8
10	"Barkamol avlod" sport o'yinlariga g'olib o'quvchini tayyorlaganligi uchun (har bir o'quvchi uchun): – respublika, – viloyat, – ta'lim muassasasi	20
		15
		15
		6

No	Ta'lim sifatini ta'minlovchi ko'rsatkichlar	Ballar
V. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar		
1	Ta'lim muassasasidagi guruhlar tanlovida egallangan: 1-o'rin, 2-o'rin, 3-o'rin	10 5 3
2	Semestr va yil yakunlari bo'yicha guruhdagi o'rtacha o'zlashtirish: 86-100%, 71-85%, 55-70%	20 10 0
3	Ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ko'rik tanlovlarda guruh o'quvchisining sovrindor bo'lganligi (har bir o'quvchi uchun): – respublika, – viloyat, – ta'lim muassasasi	30 20 5
4	“Barkamol avlod” sport o'yinlarida guruh o'quvchisining sovrindor bo'lganligi (har bir o'quvchi uchun): – respublika, – viloyat, – ta'lim muassasasi	7 5 1

O'qituvchi yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarga beriladigan jarima ballarni hisoblash mezonlari¹⁵

No	Xato va kamchilik mazmuni	Jarima ballar
1	Mehnat intizomini uzrsiz sabablar bilan buzganligi uchun: – darsga kelmaslik, – darsga kechikib kelish, – darsni muddatidan oldin tugatish, – sababsiz darsni tashlab chiqib ketish	-25 -10 -10 -5
2	Ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga muvofiq o'tkaziladigan tadbirlarda uzrsiz sabablar bilan qatnashmaslik: – ta'lim muassasasida, – o'quvchilar uyida, – tuman miqyosida, – shahar miqyosida	-5 -5 -5 -10

¹⁵ Pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyati samaradorligi (reytingi) ni aniqlash mezonlari va ularni rag'batlantirish tartibi to'g'risida Muvaqqat Nizom¹⁵ga 3-Illova.

No	Xato va kamchilik mazmuni	Jarima ballar
3	O'qituvchining darslarida o'quvchilar davomatining muntazam pastligi uchun 71-85%, 55-70%, 55% dan past	-5 -10 -40
4	Davlat test markazi o'tkazgan sinovlarda o'qituvchining bilim darajasi 55%dan pastligi	-20
5	Davlat test markazi sinovlarida mas'ul guruh o'quvchilarining o'rtacha bilim darajasi 55%dan pastligi	-40
6	Guruh o'quvchilarining o'qitiladigan fandan o'rtacha o'zlashtirish darajasi 55%dan pastligi	-20
7	Mashg'ulot jurnallarini yuritishdagi xato, kamchiliklar uchun: – mashg'ulotlar jurnali yozuvlariga o'zgartirish kiritilganligi; – mashg'ulot jurnallari yuritilishini nazorat qilinmaganligi (ta'lim muassasasi rahbar xodimlari uchun); – joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalarini o'z vaqtida qayd etilmaganligi; – o'quvchilar davomatini doimiy ravishda qayd etilmaganligi; – uy vazifalari jurnalda aks ettirilmaganligi; – shakllarni belgilangan muddat va o'rnatilgan tartibda to'ldirmaslik; – o'quvchilar bilimini tizimli ravishda baholamaslik; – jurnalda yozilgan mavzular taqvim-mavzu rejaga mos emasligi.	-20 -20 -15 -10 -10 -10 -10
8	Darsga tayyorgarliksiz kelish (Ichki nazorat asosida aniqlanganda)	-5
9	Kiyinish madaniyati talablari buzilgan holatlarda	-3

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Ta'lim muassasasida qanday ish rejaları mavjud?
2. Qanday hujjatlar tasdiqlangan bo'lishi kerak?
3. O'quv yili va semestrlar boshlangunga qadar nimalar tuzilib, muhokama qilingan va tasdiqlangan bo'lishi lozim?
4. O'quv yilining boshida kollej rahbariyati o'quvchilarni nimalar bilan ta'minlashlari lozim?
5. Kasb-hunar kollejlarda qanday hujjatlar bo'lishi kerak?

6. Pedagoglar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyatini belgilovchi vaqt me'yorlari bo'yicha shaxsiy ish rejasini ishlab chiqing.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Yillik rejalar	Yil boshida tasdiqlanishi lozim bo'lgan hujjatlar	O'quvchilar hujjatlari	Kasb-hunar kollejlari hujjatlari

2. O'qituvchining shaxsiy ish rejasini ishlab chiqing.

2.4. Kasb ta'limida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish

Reja:

1. O'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini rahbari sifatidagi boshqarish faoliyati.

2. O'quvchilarning o'quv, ishlab chiqarish va bo'sh vaqtlarini boshqarish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: o'qituvchi, o'quvchi, o'quv jarayoni, ishlab chiqarish, boshqarish.

O'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini rahbari sifatidagi boshqarish faoliyati

Ta'lim sifatini boshqarishga ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish xoriyda XX asrning 20-yillarida, mamlakatimizda esa 50-yillarida boshlangan edi. Bizda bu ish uzoq vaqt mobaynida jahonda amalga oshirilayotgan ishlardan ajralgan holda olib borildi. Agar chet elda ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirish usullarini izlash ishlari avval boshdanoq ijtimoiy boshqaruvning umumiy nazariyasi asosida amalga

oshirilgan bo'lsa, mamlakatimizda asosan pedagogika nazariyasi qoidalari tayangan edi. Ammo 80-yillarning o'rtalaridan boshlab bu uzilish jadallik bilan bartaraf etila boshladi [26. 78–79-b.].

Boshqarish – jarayonni rejalashtirilgan maromda amalga oshirish, o'qitish maqsadlariga erishish dasturini ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladigan pedagogik faoliyat [16. 4-b.].

Boshqarish pedagogikasi – ta'lim muassasalarini boshqarishning nazariy-amaliy asoslari [16. 24-b.].

Avtoritar ta'lim-tarbiya – o'quvchini o'qituvchiga bo'ysundirishdan iborat bo'lgan ta'lim-tarbiya usuli [16. 5-b.].

Ta'lim muassasasi boshqaruviga yondashuv va uning tuzilmasi – tuzilma ta'lim tizimi xarakteri, ta'lim muassasasi turlari va o'lchamlarigagina emas, balki boshqaruv yondashuviga ham bog'liq. Tuzilmaning boshqaruv organi tarkibi va ular ishida o'qituvchilar ishtiroki darajasi, tashkilotchiligi munosabatlarni muvofiqlashtirish usullari, vakolatlar va mas'uliyatlarni aniqlashtirish kabi tavsiflari ta'lim muassasasida boshqaruvning qanday turidan foydalanilayotganligiga bog'liq.

Avtoritar boshqaruvga mexanik, chiziqli va chiziqli-funksional, shu jumladan divizional, kuchli markazlashtirilgan, kollegial organlarning uncha katta bo'lmagan vakolatlari, asosan, konsultativ xarakterdagilari mos keladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, muassasada mehnat taqsimoti gorizontal va vertikal bo'yicha amalga oshiriladi. Mehnat taqsimotini vertikal tarzda amalga oshirish, ya'ni tuzilmaning qanday boshqaruv qarorlari qabul qilinishi to'g'risidagi qarori muassasani boshqarishni markazlashtirishning muayyan darajasini mustahkamlaydi, quyidagi markazlashuv darajasini belgilaydi:

– boshqaruvning quyi darajasida qabul qilinadigan qarorlar;

– bu qarorlarning muhimligi;

– bo'ysunuvdagilarning ishi ustidan nazorat qilish miqdori va qat'iyligi [26. 280-b.].

Umuman olganda, markazlashtirilgan tuzilmalarni yaxlit holda ko'proq yetuklik darajasi yuqori bo'lmagan, jarayonlar-

ni tabaqalashtirish va integratsiyalash darajasi past, variativ bo'lmagan, ommaviy ta'lim vazifalarini bajarishga yo'nalgan jamoalar uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir [26. 281-b.].

Demokratik boshqaruv ta'lim muassasasida boshqaruv tizimlari tarkibini sezilarli tarzda o'zgartiradi va avtoritar tizimdagidan farqli [26. 281-b.] ravishda, butunlay boshqa aloqalar va munosabatlar tizimini yaratadi. Unga ko'proq markazlashuvdan chiqarilgan tuzilmalar mos keladi. Ularda hokimiyat bo'ysunuvi ehromning cho'qqisiga emas, balki boshqaruvning tarkibidagi o'qituvchilarning quyi bosqichlariga ham beriladi.

Boshqaruvning demokratik turi inson tashkilotda ma'lum bir ishlarning va funksiyalarning ijrochisigina emasligiga asoslanadi. U ishi qanday tashkil etilganligi, qanday sharoitda mehnat qilayotganligi, o'z mehnati bilan tashkilotga qanday foyda keltirishiga qiziqishni namoyon etadi. Ya'ni, unda ta'lim muassasasida o'zining faoliyati bilan bog'liq holda kechadigan jarayonlarda ishtirok etish uchun tabiiy intilish bo'ladi [26. 282-b.].

Liberal usulda ish olib boradigan boshqaruv xodimi qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni to'raligicha qo'l ostidagilarga ishonib topshiradi. Ularga to'la erkinlik berib, o'zida faqat vakolatlilik funksiyasini qoldiradi. U tashqi aloqalar bilan shug'ullanib, ichki hayot masalalarini hal etishni jamoaga to'liq ishonib topshirish mumkin, deb hisoblaydi. U boshqaruv funksiyalarini bajarishda sust, ziddiyatlardan cho'chiydi. Odatda, jamoa tomonidan taklif qilingan qarorlarni qabul qiladi, hatto bu qarorlar uning shaxsiy qarashiga mos kelmasa ham, "oqim bo'ylab suzish"ga hozir bo'ladi [26. 363-b.].

O'qituvchilarning ta'lim muassasasi ishi boshqaruvida ishtirokining uch xil darajasini shartli ravishda ajratib ko'rsatish mumkin. Bular – birga ishtirok etish, faol ishtirok etish va sheriklik qilish. Ular bir-biriga o'ziga xos iyerarxik tartibda bo'ysunadi [26. 283-b.].

Bugungi kunda jamoat boshqaruvining bir necha shakllari mavjud:

– Ta'lim muassasi kengashi

– Ota-onalar qo'mitasi

- Vasiylik kengashi
- Kuzatuv kengashi [26. 414-b.].

O'quvchilarning o'quv, ishlab chiqarish va bo'sh vaqtlarini boshqarish

Kasb-hunar kolleji faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki, eng asosiy amaliy ta'lim jarayoni – bu maqsad va natijani ko'zlaydigan jarayon. Erishilgan natijani kutilganda qiyosan qanday baholash mumkin? Buning uchun oddiy, dinamik, amaliy nazorat tizimini yaratish kerakki, u natija uchun epizodik emas, doimiy ishlasin.

Kasb-hunar kolleji faoliyatini nazorat qilishning quyidagi shakllaridan foydalanildi:

- nazariy, ishlab chiqarish ta'limi darslari, darsdan tashqari tadbirlar tahlili;
- DTS, o'quv rejaları va dasturlari bajarilishi tahlili;
- pedagoglar bilan ular faoliyatining turli masalalari bo'yicha suhbat o'tkazish;
- pedagoglarni attestatsiyalash;
- predmetlar (kasblar)ning o'quv-metodik ta'minlanganligini o'rganish va baholash;
- tarbiyaviy ishlar ahvoli, o'quvchilarning bo'sh vaqti tahlili va boshqalar.

Turli xil nazorat metodlari: kuzatish, og'zaki so'rov, nazorat ishi, mustaqil ish, aralash nazorat, to'la foydalaniladigan so'rov, test nazorati, masalalar yechish, grafik diktant, ijodiy ishlar, muammoli ishlab chiqarish masalalari va boshqalardan qo'shib foydalanildi [26. 485-b.].

Asosiy diqqat ta'lim mazmuniga qaratilib, uning asosida quyidagi tamoyillar yotadi:

a) o'qituvchining emas, o'quvchining ehtiyojlari ko'zda tutiladi. O'quv-dasturiy hujjatlarni ishlab chiqishda pedagogik jihatdan puxta o'ylangan tizimlashtirishga, kasbiy jihatdan ahamiyatga ega bilim va malakani saralashga, o'quv jarayonining va har bir fanning mantiqiga (nazariya bilan amaliyotning navbat bilan almashib kelishiga) katta e'tibor berildi;

b) aniq bir ta'lim faniga emas, real muammolarni hal qilishga ahamiyat berildi, ya'ni o'qitishga fanlararo yondashuv amalga oshirildi. Chunki KHKning barcha real muammolari

fanlararo xarakterga ega;

v) o'quvchilarning bilimi yig'indisi emas, ularning o'zini rivojlantirishi nazarda tutildi. O'quvchilarda shaxsiy va kasbiy rivojlanishga ehtiyojni shakllantirishga, ularga zarur axborotni olish yo'lini o'rgatishga, axborot oqimida o'zini qanday tutish hamda professional vazifasini tinmay oshirib borish malakasini shakllantirishga harakat qilindi;

g) ta'lim jarayonining o'quvchilar, mintaqa iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga, akademik ehtiyojga yo'naltirilganligi. O'quv rejasida mintaqaviy komponentga yetakchi o'rin berilgan, barcha umumta'lim fanlari esa fanlararo, ixtisoslashgan xarakterga ega va ishlab chiqarish sohasiga yo'naltirilgan [26. 488–486-b.].

Nazorat savol va topshiriqlari

1. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining rahbari sifatida boshqarish faoliyati nimadan iborat?
2. Avtoritar boshqaruv nima?
3. Demokratik boshqaruv nima?
4. Liberal uslubda boshqaruv nima?
5. O'quvchilarning o'quv, ishlab chiqarish va bo'sh vaqtlari qanday boshqariladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. "Kasb ta'limida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish"ni "Kungaboqar" metodida ishlab chiqing.
2. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Boshqaruv uslublari	Faoliyat darajalari
Avtoritar uslub	
Demokratik uslub	
Liberal uslub	

2.5. Ishlab chiqarish ta'limi malaka tavsifnomasiga qo'yiladigan talablar

Reja:

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari lavozim vazifalari.
2. Kasb-hunar kollejining katta ustasi.
3. Kasb-hunar kollejining o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi mudiri.
4. Kasb-hunar kollejining ishlab chiqarish ta'limi ustasi.

Tushunchalar va tayanch iboralar: malaka tavsifnomasi, ishlab chiqarish ta'limi, funksional vazifalar, usta.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari lavozim vazifalari

Ushbu Yo'riqnama O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 30-iyuldagi PQ-929-sonli "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish va ular mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2008-yil 31–32-son, 296-modda) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 165-sonli "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi Qaroriga (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2008-yil 31–32-son, 303-modda) asosan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini qo'llash tartibini belgilaydi¹⁶.

1. Umumiy qoidalar

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustda-

¹⁶ O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo'yicha Yo'riqnama.

gi 165-sonli "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan belgilangan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari va pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalariga nisbatan mazkur Yo'riqnomaning ilovasiga muvofiq qo'llaniladi.

II. Malaka tavsiflari mazmuni va qo'llash tartibi

2. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– pedagog xodimning lavozimi bo'yicha majburiyatlari ro'yxatini;

– tegishli lavozimni egallab turgan (egallashga nomzod) xodimning bilim ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni;

– tegishli lavozimni egallash uchun zarur bo'lgan ish staji va ta'lim darajasiga qo'yiladigan talablarni.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarida ko'rsatilgan har bir lavozim bo'yicha ish mazmuni, hajmi va bajarish tartibi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasi tomonidan Davlat ta'lim standartlariga, ish ko'rsatmalariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga mos ravishda belgilanadi.

3. U yoki bu lavozim (lavozimlar guruhi), yohud malaka toifasi uchun bir qancha tarif stavkalari belgilangan bo'lsa, nisbatan yuqori bazaviy tarif stavkasiga ega bo'lgan xodim nisbatan kichikroq lovozim yoki malaka toifasidagi xodimlar uchun nazarda tutilgan bilimlar, tajribalar va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

4. Xodimga lavozim (malaka toifasi) belgilash, berish o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalarini berish tartibi asosida amalga oshiriladi.

5. O'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalari xodimlarini lavozim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka toifasining hisobi, shuningdek ish to'g'risidagi barcha hujjatlardagi yozuvlar ushbu malaka tavsiflaridagi lavozimlar va malaka toifalari nomlari bilan qat'iy mos bo'lishi kerak.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga ilovasida O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari keltirilgan.

Lavozim vazifalari¹⁷:

a) ishlab chiqarish ta'limi o'quv jarayonini tashkil etadi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlarida ko'zda tutilgan o'quv, tarbiyaviy rejalar va dasturlarning bajarilishini ta'minlaydi;

b) o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini tanlash va joy-joyiga qo'yishda ishtirok etadi;

v) ishlab chiqarish ta'limi jarayonini boshqaradi, ustozlarning, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining ilg'or tajribalarini o'rganish va umumlashtirishni tashkil qiladi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etadi;

g) pedagogik xodimlar va ishlab chiqarish ta'limi ustalariga uslubiy yordam tashkil qiladi, jamoa, ayrim o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining pedagogik faoliyatini tahlil qiladi;

d) o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining yillik, chorak va oylik ish rejalarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi. Tasdiqlangan reja asosida o'qituvchilarning ish vaqti hisobini yuritadi, dars jadvali, testlar sinovlari, imtihonlar grafigini ishlab chiqadi;

ye) o'quv jarayoni nazoratini tashkil qiladi, ta'lim standartlarining bajarilishi, o'quvchilarning xulqi va o'zlashtirishi monitoringini amalga oshiradi, fakultativ darslar va fan to'garaklarini tashkil etadi;

j) o'quv xonalarini ko'rgazmali va texnik o'quv qurollari bilan hamda axborot-resurs markazini kitoblar, jurnallar va boshqa axborot materiallari bilan ta'minlanishi va rasmiylashtirilishini boshqaradi;

z) o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etadi va nazorat qiladi;

i) korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan bitiruvchilarni ishga joylashtirish va talabnomalar portfelini shakllantirish masalalarida hamkorlik qiladi;

¹⁷ O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo'yicha Yo'riqnoma.

k) ta'lim muassasasi bitiruvchilarini ishga taqsimlash va ishga joylashtirishda ishtirok etadi;

l) umumta'lim maktablari 9-sinf o'quvchilarini faol kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish vazifalarini nazorat qiladi;

m) fanlar bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va yosh mutaxassislariga uslubiy yordam tashkil etish, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ustalarining kasbiy mahoratlari va malakalarini oshirish bo'yicha ishlarni olib boradi, o'quvchilarning o'quv yuklamalarini takomillashtiradi;

n) o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti holati va natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlaydi, ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etadi;

o) pedagoglar, xodimlar va o'quvchilar mehnatini muhofazalash talablari, sanitariya-gigiyena tartibi va texnika xavfsizligiga amal qilinishini ta'minlaydi;

p) doimiy ravishda o'z malakasini oshirib boradi.

Bilishi lozim:

a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlarini;

b) pedagogika fani va amaliyoti, boshqarish psixologiyasining jahon va mamlakat miqyosidagi erishilgan yutuqlarini, o'quv jarayonining amalga oshirilishi va rivojlanishining pedagogik va iqtisodiy asoslari, Davlat ta'lim standartlarining talablari va mazmuni, jamoani boshqarishning samarali shakllari va usullari hamda xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni;

v) ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularni tatbiq etish usullarini, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish usullari, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini;

g) o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va laboratoriyalari mudirlari, ishlab chiqarish ustalari uchun malakaviy talablarni;

d) yoshlarga oid qonun hujjatlarini.

Bajara olishi lozim:

a) ta'lim muassasasi, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ustalari faoliyatini tahlil qilish, eng ahamiyatli muammolarni aniqlash va ularni hal etishning samarali yo'llarini belgilash;

b) kasb-hunar kollejini rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, ta'lim muassasasini boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini hosil qilish, uslubiy tavsiyanomalar, o'quv rejalar, dasturlar, qoidalar, lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqish;

v) majlislar, suhbatlar o'tkazish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim muassasasi monitoringini tashkil etish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash;

g) pedagogik jamoada sog'lom psixologik muhitni yaratish.

Malaka talablari:

a) pedagogik yoki muhandis-pedagogik oliy ma'lumot;

b) pedagogik staji 5 yildan kam emas, jumladan kasb-hunar kolleji yo'nalishida 3 yillik pedagogik staj;

v) malaka darajasi katta o'qituvchidan kam emas.

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlar quyidagi "Toifalash jadvali" texnologiyasida o'z ifodasini topgan (6-jadval):

6-jadval

"Toifalash jadvali" texnologiyasi

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari			
Lavozim vazifalari	Bilishi lozim	Bajara olishi lozim	Malaka talablari
a) ishlab chiqarish ta'limi o'quv jarayonini tashkil etadi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi standartlarida ko'zda tutilgan o'quv, tarbiyaviy rejalar va dasturlarning bajarilishini ta'minlaydi;	a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlarini;	a) ta'lim muassasasi, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ustalari faoliyatini tahlil qilish, eng ahamiyatli muammolarni aniqlash va ularni hal etishning samarali yo'llarini belgilash;	a) pedagogik yoki muhandis-pedagogik oliy ma'lumot;

6-jadvalning davomi

<p>b) o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarini tanlash va joy-joyiga qo'yishda ishtirok etadi; v) ishlab chiqarish ta'limi jarayonini boshqaradi, ustozlarning, ishlab chiqarish ta'limi ustalarining ilg'or tajribalarini o'rganish va umumlashtirishni tashkil qiladi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etadi; g) pedagogik xodimlar va ishlab chiqarish ta'limi ustalariga uslubiy yordam tashkil qiladi, jamoa, ayrim o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining pedagogik faoliyatini tahlil qiladi; d) o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining yillik, chorak va oylik ish rejalarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi. Tasdiqlangan reja asosida o'qituvchilarning ish vaqti hisobini yuritadi, dars jadvali, testlar sinovlari, imtihonlar grafisini ishlab chiqadi; ye) o'quv jarayoni nazoratini tashkil qiladi, ta'lim standartlarining bajarilishi, o'quvchilarning xulqi va o'zlashtirishi monitoringini amalga oshiradi, fakultativ darslar va fan to'garaklarini tashkil etadi;</p>	<p>b) pedagogika fani va amaliyoti, boshqarish psixologiyasining jahon va mamlakat miqyosidagi erishilgan yutuqlarini, o'quv jarayonining amalga oshirilishi va rivojlanishining pedagogik va iqtisodiy asoslari, Davlat ta'lim standartlarining talablari va mazmuni, jamoani boshqarishning samarali shakllari va usullari hamda xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni; v) ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularni tatbiq etish usullarini, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish usullar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini; g) o'quv-ishlab chiqarish ustaxonalari va laboratoriyalari mudirlari, ishlab chiqarish ustalari uchun malakaviy talablarni; d) yoshlarga oid qonun hujjatlarini.</p>	<p>b) kasb-hunar kollejni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, ta'lim muassasasini boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini hosil qilish, uslubiy tavsiyanomalar, o'quv rejalar, dasturlar, qoidalar, lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqish; v) majlislar, suhbatlar o'tkazish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim muassasi monitoringini tashkil etish, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash; g) pedagogik jamoada sog'lom psixologik muhitni yaratish.</p>	<p>b) pedagogik staji 5 yildan kam emas, jumladan kasb-hunar kolleji yo'nalishida 3 yillik pedagogik staj; v) malaka darajasi katta o'qituvchidan kam emas.</p>
---	--	---	---

6-jadvalning davomi

<p>j) o'quv xonalarini ko'rgazmali va texnik o'quv qurollari bilan hamda axborot-resurs markazini kitoblar, jurnallar va boshqa axborot materiallari bilan ta'minlanishi va rasmiylashtirilishini boshqaradi; z) o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etadi va nazorat qiladi; i) korxonalar, tashkilotlar va muassasalar bilan bitiruvchilarni ishga joylashtirish va talabnomalar portfelini shakllantirish masalalarida hamkorlik qiladi; k) ta'lim muassasasi bitiruvchilarini ishga taqsimlash va ishga joylashtirishda ishtirok etadi; l) umumta'lim maktablari 9-sinf o'quvchilarini faol kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshirish vazifalarini nazorat qiladi; m) fanlar bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish va yosh mutaxassislariga uslubiy yordam tashkil etish, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ustalarining kasbiy mahoratlari va malakalarini oshirish bo'yicha ishlarni olib boradi, o'quvchilarning o'quv yuklamalarini takomillashtiradi;</p>			
--	--	--	--

6-jadvalning davomi

<p>n) o'quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti holati va natijalari bo'yicha hisobotlar tayyorlaydi, ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni tashkil etadi;</p> <p>o) pedagoglar, xodimlar va o'quvchilar mehnatini muhofazalash talablari, sanitariya-gigiyena tartibi va texnika xavfsizligiga amal qilinishini ta'minlaydi;</p> <p>p) doimiy ravishda o'z malakasini oshirib boradi.</p>			
---	--	--	--

Kasb-hunar kollejining katta ustasi Lavozim vazifalari¹⁸:

- a) Davlat ta'lim standartlarining zamonaviy talablariga muvofiq kasbiy ta'lim bo'yicha usta ishini tashkillashtiradi;
- b) kasbiy ta'lim ustalarining amaliy faoliyatini nazorat qiladi va boshqaradi, ularni amaliy ishlarni rejalashtirish, ish yuritish va hisobotlar bo'yicha zaruriy hujjatlar bilan ta'minlaydi;
- v) kasbiy ta'lim ustalari o'quv-laboratoriya xonalari, ustaxonalar, poligon va boshqalarning rahbarlari, shuningdek xizmat ko'rsatish xodimlari bilan uslubiy va ko'rsatmalar berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazadi;
- g) kasbiy ta'lim bo'yicha direktor o'rinbosari bilan birgalikda kasbiy ta'lim ustalarining malakasini oshirish va attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etadi;
- d) o'quvchilarning kasbiy ta'lim tayyorgarligini maxsus fanlar bo'yicha nazariy ta'lim dasturlariga uyg'unligini ta'minlaydi;
- ye) o'quvchilar amaliy tayyorgarligining davlat ta'lim standartlari talablariga mosligini nazorat qiladi;
- j) o'quv laboratoriyalari, ustaxonalar, poligonlardagi ish joylariga jihozlarni o'z vaqtida o'rnatishni, zarur holatlarda

¹⁸ O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo'yicha Yo'riqнома.

- ularni ta'mirlashni amalga oshiradi, o'quv-amaliy ish dasturlariga mos xomashyo va materiallar bilan ta'minlaydi;
- z) amaliy o'quv mashg'ulotlari, amaliyotlar o'tkazishda kasbiy ta'lim ustalariga yordam beradi, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishida, texnik sharoitlardan kelib chiqib sifatni ta'minlashda standart talablari bajarilishini tekshiradi;
 - ii) o'quvchilarni amaliy ishlaridagi bilim va ko'nikmalarni rejalashtirishlarining nazoratini amalga oshiradi;
 - k) kasbiy ta'lim ustalari bilan birgalikda ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish korxonasini tanlaydi;
 - l) korxonalar bilan amaliyotni o'tkazish to'g'risida shartnomalar tuzib, ularni tasdiqlashga tayyorlaydi;
 - m) o'quvchilarga texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish bo'yicha tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;
 - n) o'quvchilarni davlat attestatsiyasiga tayyorlaydi.
 - o) doimiy ravishda o'z malakasini oshiradi.
- ### Bilishi lozim:
- a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va boshqa qonun hujjatlari, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining o'smirlar ta'limi va tarbiyaviy ishlar bo'yicha buyruqlari, topshiriqlari va boshqa hujjatlarni, O'smirlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani;
 - d) kasb-hunar kolleji yo'nalishiga mos bo'lgan, respublikamiz va chet ellarda qo'llanilayotgan zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini;
 - ye) kasbiy ta'lim pedagogik asoslarini;
 - j) o'quv-ishlab chiqarish va amaliyot darslarini rejalashtirishni;
 - z) menejment va marketing xususiyatlarini, mehnatni ilmiy tashkil qilishni;
 - ii) o'quvchilar ishining sifati va bilimlarini baholash mezonlarini;
 - k) mehnatni muhofazalash va texnika xavfsizligi qoidalarini;
 - l) hisobotlar, shartnomalar, lavozim yo'riqnomalarini tayyorlash tartibini, suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazish va ish yuritishni;

Malaka talablari:

a) kasb-hunar kollejining ta'lim yo'nalishi bo'yicha muhandis-pedagog yoki muhandislik oliy ma'lumot;

b) maxsus nazariy fanlar o'qituvchisi darajasida 2 yillik ish staji yoki 1-toifali kasbiy ta'lim ustasi.

Kasb-hunar kollejining o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi mudiri lavozim vazifalari¹⁹:

a) o'quv rejasi, dasturi va amaliy mashg'ulotlar, o'quv amaliyotlarini o'tkazish grafigiga mos ravishda o'quv-ishlab chiqarish ishini tashkillashtiradi;

b) ish joylarini zarur jihozlar, inventarlar, yo'riqnomalar va uslubiy materiallar (plakatlar, stendlar, sxemalar, maketlar, namunalar, modellar va boshqalar) bilan o'z vaqtida jihozlashni ta'minlaydi;

v) jihozlash, sozlash, ta'mirlashni, ularni amaliy ishlar texnologiyasiga muvofiq taqsimlash (rejalashtirish)ni tashkillashtiradi;

g) ustaxonaga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar, kasbiy ta'lim ustalari va o'quvchilar bilan ustaxonalarda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlash uchun ish tartibi va sharoitlari to'g'risida tushuntirishlar olib boradi, majlislar o'tkazadi;

d) amaliy mashg'ulot va o'quv ishlari o'tkazishda kasbiy ta'lim ustalariga amaliy yordam ko'rsatadi;

ye) ustaxonada ishlashda mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (yong'in va elektr xavfsizligi) qoidalariga amal qilinishini ta'minlaydi;

j) ustaxonada mos uslubiy qo'llanmalarni tayyorlaydi va uslubiy ishlarni boshqaradi;

z) ustaxonani asboblardan, inventarlar bilan jihozlash ishini tashkillashtiradi, ularning holatini yaxshi saqlash, sanitariya-gigiyena talablari, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishini ta'minlaydi;

i) o'quvchilar kasbiy tayyorgarligining davlat talablariga mosligini ta'minlaydi va nazorat qiladi;

k) kasbiy ta'lim bo'yicha direktor o'rinbosari bilan birgalikda ustaxona xodimlarining malakasini oshirish va attestatsiyasi bilan shug'ullanadi;

¹⁹ O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo'yicha Yo'riqnomasi.

l) ustaxonada faoliyatini tartiblovchi hujjatlarning to'g'ri yuritilishini ta'minlaydi;

m) doimiy ravishda o'z malakasini oshirib boradi.

Bilishi lozim:

a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va boshqa qonun hujjatlarini, ta'limning rivojlanish strategiyasini, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi o'smirlar kasbiy ta'limi, amaliy tayyorgarligi va tarbiyasini tashkil etish va yaxshilash to'g'risidagi hujjatlarni;

b) Davlat ta'lim standartlari talablari mazmuni, ularning uslubiy qo'llanmalarini;

v) kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining tashkiliy-pedagogik asoslarini;

g) ustaxonada mashinalar, apparatlar, asboblardan va moslamalarning tavsiflari va ularning qo'llanish qoidalarini;

d) kasbiy ta'lim ustalari va ustaxonaga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga qo'yiladigan malaka talablarini;

ye) o'quv va ishlab chiqarish, amaliy ishlarni tashkil etishni rejalashtirishni;

j) hisobotlar, shartnomalar, lavozim yo'riqnomalari tuzishni, suhbatlar va uchrashuvlar o'tkazishni, ish yuritishni olib borishni;

z) o'quvchilar bilimini va bajarilgan ishlar, chiqarilgan mahsulotlar sifatini baholash usullarini;

i) pedagogikani, pedagogik psixologiyani, o'smirlar fiziologiyasini, ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishning sanitariya-gigiyena talablarini, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini;

y) yoshlarga oid qonun hujjatlarini.

Malaka talablari:

a) oliy pedagogik yoki muhandis-pedagogik ma'lumot yoki kasb-hunar kolleji yo'nalishi bo'yicha o'rta maxsus kasbiy ta'lim;

b) kasbiy ta'lim ustasi darajasida 3 yildan kam bo'lmagan amaliy ish staji.

Kasb-hunar kollejining ishlab chiqarish ta'limi ustasi lavozim vazifalari²⁰:

- a) biriktirilgan guruhlar bilan amaliy mashg'ulotlarni rejalashtiradi va o'tkazadi;
- b) xonalarni, auditoriyalarni, ko'rgazmali vositalar, jihozlar va boshqa texnika vositalarini, amaliy mashg'ulotlarga, ishlarga kerak bo'lgan materiallarni tayyorlaydi;
- v) amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarda nazariy bilimlarni mustahkamlashda, ularda mehnat va kasbiy tajribalarni shakllantirishni va ular bazasida ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llay olishni ta'minlaydi;
- g) mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar, tashkilotlar va alohida shaxslar, bilan bitimlar tuzishda qatnashadi;
- d) o'quvchilarni malakali ishlarni bajarishga, bitiruv imtihonlarini va kasbiy attestatsiyani topshirishga tayyorlaydi;
- ye) biriktirilgan guruhlarda tarbiyaviy ish olib boradi, bu sohada uslubiy va fan komissiyalari, o'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik ishlarini olib boradi va darsdan tashqari tashkiliy-madaniy va tushuntirish tadbirlarini o'tkazishda qatnashadi;
- j) doimo o'zining kasbiy va uslubiy mahoratini oshirib boradi. Uslubiy tashkilotlarning va uslubiy ishlarning boshqa shakllaridagi faoliyatida qatnashadi;
- z) o'qituvchi va tarbiyachilar bilan yaqin muloqotda ishlaydi, kerak bo'lganda nazariy mashg'ulotlarga kirib turadi;
- i) shaxsning umumiy madaniy shakllanishiga, ijtimoiylashishiga, kasbiy dasturlarni ongli ravishda o'rganishiga va tanlashiga yordam beradi. Davlat standartlari doirasida ta'lim tizimining turli shakllarini, uslublarini, qo'llanmalarni ishlatadi;
- k) o'quvchilarni Davlat ta'lim standarti talablariga mos keladigan darajada tayyorlashni ta'minlaydi;
- l) yong'inga qarshi himoya, texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish qoidalari va me'yorlarining bajarilishini ta'minlaydi;
- m) ta'lim olish jarayonida o'quvchilarning sog'lig'ini va hayotini muhofaza qilishni ta'minlaydi.

²⁰ O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflari bo'yicha Yo'riqnomasi.

Bilishi lozim:

- a) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va boshqa qonun hujjatlarini, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Markazining qo'llanma va axborot-normativ materiallarini, buyruqlarini, ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlarni, Bola huquqlari haqidagi konvensiyani;
- b) o'quvchilarning pedagogikasi va psixologiyasi asoslarini, kasbiy va amaliy faoliyatga tegishli masalalar bo'yicha me'yoriy va uslubiy hujjatlarni, o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha mavjud bo'lgan dasturlar, uslubiy adabiyotlar va tegishli fan, texnika va texnologiya yutuqlari;
- v) tarmoq menedjmenti va marketingining xususiyatlarini;
- g) mehnat qonunchiligi, mehnat muhofazasining qoidalari va me'yorlarini, texnika xavfsizligi va yong'inga qarshi muhofazani.

Bajara olishi lozim:

o'quv dasturi va davlat ta'lim standartlariga tegishli amaliy ishlarning barcha turlarini.

Malaka talablari:

- a) ta'lim muassasining yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumot yoki ish staji so'ralmagan holda muhandis-pedagogik ma'lumot;
- b) ayrim holatlarda ishlab chiqarish ta'limining ustasi lavozimini shu kasb (mutaxassislik) bo'yicha 3 yildan kam bo'lmagan amaliy ish staji va o'rta maxsus kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan yuqori malakali kichik mutaxassis egallashi mumkin.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari lavozim vazifalari nimalardan iborat?
2. Kasb-hunar kolleji katta ustasining qanday lavozim vazifalari mavjud?
3. Kasb-hunar kolleji o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi mudirining qanday lavozim vazifalari mavjud?
4. Kasb-hunar kolleji ishlab chiqarish ta'limi ustasining qanday lavozim vazifalari mavjud?

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 1-avgustdagi 165-sonli "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasasining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari lavozim vazifalari nimalardan iborat?

6. Kasb-hunar kollejining katta ustasiga qanday malakaviy talablar qo'yiladi?

7. Kasb-hunar kollejining o'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi mudiri nimalarni bilishi zarur?

8. Kasb-hunar kollejining ishlab chiqarish ta'limi ustasi vazifasi bilan kasb-hunar kollejining katta ustasi vazifasi o'rtasida qanday farq bor?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida faoliyat yurituvchi hoddimlarning lavozim vazifalarini "T - jadval" texnologiyasi orqali ishlab chiqing.

2. Ishlab chiqarish ta'limi ustalariga qo'yiladigan talablar mavzusi bo'yicha egallagan bilimlaringizni insert jadvalni to'ldirish orqali mustahkamlang.

3. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Lavozimlar	Lavozim vazifalari	Bilishi lozim	Bajara olishi lozim	Malaka talablari
Ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinbosari				
Kasb-hunar kollejining katta ustasi				
O'quv-ishlab chiqarish ustaxonasi mudiri				
Ishlab chiqarish ta'limi ustasi				

2.6. Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash

Reja:

1. Baholashning ob'yektivligi va tabaqalashtirilganligi.
 2. Baholashda e'tiborga olinadigan omillar.
 3. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi va uni amalga oshirish.
 4. Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni tarbiyalash shakllari.
- Tushunchalar va tayanch iboralar:** baholash, reyting tizimi, bilim, ko'nikma, malaka, tarbiyalash shakllari.

Baholashning ob'yektivligi va tabaqalashtirilganligi

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarrayon sifatida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirishni aytamiz. Baho deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholash shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini baholash uchun nazorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladidi. Bunda ta'lim oluvchilar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda, sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoniqarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko'rsatkich (masalan o'rin - 1,2,3,4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmashlik muhim. Baholarni son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholash harfiy (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilan-

gan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi:

$$B = \frac{A}{T} \cdot 100\%$$

nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi.

Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'ringa 100% axborotni to'liq o'zlashtirish va 0% uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funksiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho – pedagog ixtiyoridagi o'qishni, ijobiy motivatsiyani rag'batlantirishning va shaxsga ta'sir ko'rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (ob'yektiv) baholash ta'sirida ta'lim oluvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatlarining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni talab etadi.

Ta'lim beruvchi o'qitish bilan bir vaqtda ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Hisobga olish – bu o'qitishning muayyan bir davrida ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash. Hisobga olish natijasida ta'lim beruvchi ham, ta'lim oluvchi ham o'zlarining keyingi bajaradigan ishlarning shaklini va mazmunini belgilaydi. O'zlashtirishni hisobga olish ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. Shuningdek, o'zlashtirishni hisobga olish ta'lim beruvchining faoliyatini ham tashkil etadi. O'qitish metodlari va shakllarining tobora takomillashuvi natijasida baho o'qituvchining pedagogik mahorati ko'rsatkichiga aylanmoqda va ta'lim beruvchining o'z malakasini oshirib borishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

To'g'ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi.

Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'rganishda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;
- har bir yakunlangan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarning faoliyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish;
- o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;
- ta'lim oluvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlariga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

Nazorat qilish vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda ta'lim beruvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi ta'lim oluvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda ta'lim oluvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki, guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar javob berayotgan ta'lim oluvchining fikrini diqqat bilan tinglashadi va avval egallagan bilimlarini mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yechilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qilishadi.

Nazoratning **tarbiyalash vazifasi** shundan iboratki, ta'lim oluvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni

o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Shuningdek, tekshirish va baholash ta'lim oluvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin ta'lim oluvchining bilimni baholashda ta'lim beruvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham ta'lim oluvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish, shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga qaratilmog'i lozim.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, his-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'ildi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning *rivojlantiruvchi vazifasi* sanaladi [28].


Baholashda e'tiborga olinadigan omillar

Fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni baholash uchun savol va testlar, topshiriqlar va mashqlar, loyihalar, yozma ishlar va h.k.lar beriladi.


Nazorat savollari va testlar talabalarning bilim olishga qiziqishlarini, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish usullaridan foydalanish mahoratlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Yozma savollar va topshiriqlar o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchiga yozma tarzda javob olishga mo'ljallab ishlab chiqilgan baholash vositalari hisoblanadi.

Testlarning bir qator turlari mavjud bo'lib, ta'lim oluvchining nazariy bilimi va aqliy layoqatlarini baholashda foydalaniladi. Amaliy ko'nikmalarni baholashda asosan amaliy topshiriqlardan foydalaniladi. Amaliy topshiriqlarda ta'lim oluvchiga ma'lum bir mehnat faoliyatini bajarish bo'yicha vazifa beriladi. O'qituvchi ta'lim oluvchining faoliyatini ku-

ratib, oldindan ishlab chiqqan mezonlar asosida baholashi kerak.



6-rasm. Test turlari



7-rasm. Yozma savol va topshiriqlar

Fan bo'yicha reyting ishlanmasi va baholash mezonlari amaldagi Nizom asosida kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlanib, unda joriy, oraliq va yakuniy baholashlar nazarda tutiladi. Talabalar mustaqil ishi joriy va oraliq baholashlarda e'tiborga olinadi. Baholash mezonida ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasi hisobga olinadi.

O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning reyting tizimi va uni amalga oshirish

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 204-sonli va 2004-yil 24-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 293-sonli qarorlariga asosan akademik litsey-

lar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimini tartibga soladi²¹.

I. Umumiy qoidalar

1. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 16-oktabrdagi 400-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlari"ning (bundan keyin Davlat ta'lim standartlari deb yuritiladi) tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

2. O'quvchilarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi barcha akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda joriy etiladi va mazkur Nizom asosida amalga oshiriladi.

II. Reyting maqsad va vazifalari

3. Reyting tizimining maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

a) akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalari saviyasi shakllanganligi darajasini nazorat qilish;

b) o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: standartga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) o'quvchilar bilimi, ko'nikma va malakalari darajalarini taqqoslash va ta'lim jarayonida o'zaro musobaqa muhitini yaratish;

g) o'quvchilarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

d) o'qituvchining faoliyatidagi mas'uliyatini oshirish va uning pedagogik mehnati samarasini holisona baholash;

ye) o'quvchilarning har bir fan va amaliyot turlari bo'yicha o'zlashtirish darajalarini aniqlash.

III. Reyting tizimining asosiy tamoyillari va nazorat turlari

²¹ Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida Nizom.

4. O'quvchilarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat tartibotlarini o'tkazish nazarda tutiladi:

a) joriy nazorat – so'rovlar, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar (diktant, bayon, insho) va testlar tarzida bilimlar, malaka ko'nikmalar tekshiriladi;

b) oraliq nazorat – semestr tamom bo'lganda va o'quv dasturining tegishli bo'limi tugallanganidan keyin amalga oshiriladi. Uning asosida o'quvchi reytingi aniqlanadi. Bilimlar, malaka va ko'nikmalarni baholash uchun oraliq nazorat imtihonlar, testlar, sinovlar, kurs va malaka ishlari shaklida o'tkaziladi;

v) yakuniy nazorat – akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qish tugallanganidan keyin davlat attestatsiyasi: imtihonlar, testlar, malaka ishlari, diplom loyihalarini himoya qilish shaklida amalga oshiriladi.

Fan tugallanishida yakuniy nazorat test usulida o'tkaziladi. Boshqa holatlarda yakuniy nazoratning o'tkazilish tartibi, shakli ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.

Har bir kursda o'qish tugagandan keyin reyting nazorati natijalariga ko'ra o'quvchilarni keyingi kursga o'tkazish to'g'risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

5. Reyting tizimini joriy qilishda quyidagi asosiy tamoyillar bajarilishi zarur:

a) har bir fan bo'yicha tegishli kafedralar tomonidan ma'qullangan variantlar asosida boshlang'ich nazorat o'tkaziladi. Boshlang'ich nazorat reyting monitoring va tahlil guruhi tomonidan o'tkaziladi;

b) o'quv dasturining mantiqan tugallangan bo'limi bo'yicha o'quvchi albatta baholanadi va natijasi o'tish balidan (3 ball) past bo'lganda qayta nazorat belgilanadi. Ushbu bo'limlarni tegishli kafedralar aniqlaydi;

v) yakuniy nazorat kafedralar tomonidan tuzilgan variantlar asosida reyting monitoringi va tahlili guruhi kuzatuv ostida o'tkaziladi.

6. Semestr mobaynida o'quv yuklamasi 24 soatdan kam bo'lgan fanlardan oraliq nazorat o'tkazilmaydi.

IV. O'quvchilarning bilim saviyasini baholash va yakuniy reyting ko'rsatkichlarini aniqlash

7. O'quvchilarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida har bir fan(predmet) bo'yicha o'quvchining o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

8. Har bir nazorat (so'rov) turi qanday shaklda o'tkazilishidan qat'i nazar, 5 balli ("5", "4", "3", "2") usulda butun sonlar yordamida baholanadi.

9. Boshlang'ich nazoratning natijasi boshqa nazoratdan olingan ballarga qo'shilmaydi. U o'quvchining semestr davomida ushbu fan bo'yicha o'zlashtirish sur'atini tahlil qilishda, o'qituvchining o'quvchilar bilan ishlash faoliyatining samarasi mezoni sifatida qo'llaniladi.

10. Muayyan fan(predmet) bo'yicha o'quvchining semestr mobaynida to'plashi mumkin bo'lgan umumiy bali (R semestr) maksimum 5 balni tashkil qilib, quyidagicha hisoblanadi:

$$R \text{ semestr} = \frac{JN + ON + YAN}{3},$$

Bu yerda:

JN – o'quvchining semestr davomida joriy nazorat bo'yicha butun songa yaxlitlangan o'rtacha bali;

ON – o'quvchining semestr davomida oraliq nazoratlar bo'yicha butun songa yaxlitlangan, o'rtacha bali.

Agar fanning semestr bo'yicha yuklamasi 24 soatdan kam bo'lib, oraliq nazorat o'tkazilmagan taqdirda

$$R \text{ semestr} = \frac{JN + YAN}{2} \text{ bo'ladi.}$$

11. Muayyan fan yoki o'quv amaliyoti bo'yicha yillik umumiy ball sifatida semestrlarda to'plagan umumiy ballarning o'rtachasi olinadi.

$$R \text{ yillik} = \frac{R1\text{-semestr} + R2\text{-semestr}}{2}.$$

12. Har bir fan bo'yicha umumiy reyting ball R yillar bo'yicha to'plangan ballarining o'rtacha qiymati kabi aniqlanadi (masalan, fan uch yil o'qitilsa)

$$R = \frac{R1 \text{ yil} + R2 \text{ yil} + R3 \text{ yil}}{3}.$$

13. O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari uchun ham maksimal semestr bali 5 ball bo'lib, reyting tizimida ularning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib loyihalashtiriladi.

V. Reyting monitoringi va tahlil guruhi

14. Ta'lim muassasalarida reyting tizimini to'laqonli joriy etish, o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatish, reyting natijalarini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadida uslubchi, elektron hisoblash mashinasi operatori, kafedra mudirlari, psixolog va boshqa tajribali o'qituvchilardan iborat reyting monitoringi va tahlil guruhi tuziladi. Unga direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari rahbarlik qiladi.

15. Reyting monitoringi va tahlil guruhi o'z faoliyatini mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiradi.

VI. Yakuniy qoidalar

16. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi va O'zbekiston Badiiy akademiyasi bilan kelishilgan.

Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni tarbiyalash shakllari

Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarni tarbiyalash shakllaridan fakultativ mashg'ulotlar, tarbiyaviy soat va axborot resurs markazidagi adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fakultativ mashg'ulotlar quyidagicha olib boriladi:

1) o'quvchilarning maktab va KHK o'quv dasturlari doirasida nazariy bilimlarni mustahkamlashga sharoit yaratish;

2) axborotlarni o'zlashtirishga imkon berish;

3) o'quvchilarning mustaqil nazariy va amaliy faoliyatlarini muqobillashtirish;

4) o'quvchilarda amaliy faollikni oshirishga yordam berish.

Darsdan tashqari mashg'ulot sifatida tashkil etilgan fakultativ mashg'ulotlar "6x6x6" metodi yordamida quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

a) tabiiy fanlar yo'nalishi;

b) ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi;

v) aniq fanlar yo'nalishi.

“6x6x6” metodi – bir vaqtning o'zida 36 nafar tahsil oluvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olishga imkon beruvchi interaktiv metod [16. 167-b.].

Axborot resurs markazi (ARM) – o'quvchilar bilimini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Kasb-hunar kolleji ARM ning kitoblar fondini turli fan sohalariga oid kitoblar bilan to'ldirilishi o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlariga doir ommabop, ilmiy, badiiy adabiyotlar bilan tanishtirib borish uchun turli mazmundagi maxsus adabiyotlar ko'rgazmasi, ayrim adabiyotlar muhokamalari uyushtirilishini ta'minlaydi.

Axborot resurs markazida o'qish o'quvchilarga kitoblarga qiziqishni singdiradi, uni chuqurroq idrok qilishga imkon beradi, tafakkur va nutqini rivojlantiradi, voqelikka to'g'ri munosabatni tarbiyalaydi. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarda ijtimoiy, ommaviy adabiyotlarni, turli kitoblarni o'qishga ehtiyoj hosil qilishdir. O'qish uchun shunday kitoblar tavsiya qilinishi kerakki, ular o'quvchilarda qiziqish uyg'otsin.

Axborot resurs markazidagi adabiyotlar bilan ishlashning faol shakllaridan biri – suhbatdir. Uning jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil o'qishining natijalarini muhokama qilish, nazariy bilimlar darajasini aniqlash, suhbat jarayonida o'quvchilar o'qiganlari to'g'risida fikr aytish, bir-birlari bilan tortishish, o'z nuqtai nazarlarini tasdiqlash va aslashni o'rganadilar. Muhokama natijasida o'quvchilar kitob mazmunini yaxshiroq o'zlashtirib oladilar, ularda mustaqil o'qishga qiziqish mustahkamlanadi.

Tarbiyaviy soat mavzularini “Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” metodi asosida olib borishni tavsiya qilish o'quvchilarning o'z mustaqil fikrlarini bayon qilish hamda mavzular bo'yicha bilimlar darajasini baholay olish imkonini beradi.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Baholashda e'tiborga olinadigan omillar qaysilar?
2. Baholash metodikasi deganda nimani tushunasiz?
3. Mezonga va normaga asoslangan baholash tizimlarining yutuq va kamchiliklarini mustaqil ravishda o'rganing.

4. Reyting tizimining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
5. Kasb-hunar kollejarida o'quvchilarni qanday tarbiyalash shakllari mavjud?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Baholash tizimi bo'yicha “Nima uchun?” texnologiyasini ishlab chiqing.
2. Baholash tizimining avzalliklari va kamchiliklarini “Klaster” texnologiyasi orqali ishlab chiqing.
3. Fakultativ mashg'ulot rejasini ma'lum bir fan yuzasidan ishlab chiqing.
4. Tarbiyaviy soat ishlanmasini bir mavzu yuzasidan ishlab chiqing.

2.7. Kasb ta'limi o'qituvchisining metodik ishlari

Reja:

1. Kasb-hunar ta'limida metodik ishlarni tashkil qilish strukturasi.
2. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ommalashtirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: mustaqil metodik ishlar, mahorat, pedagogik kengash, ilg'or pedagogik tajribalar, ilmiy-amaliy konferensiyalar.

Kasb-hunar ta'limida metodik ishlarni tashkil qilish strukturasi

O'qituvchining mustaqil metodik ishlarida o'z siyosiy ongini o'stirish, kasbi bo'yicha bilim va tajribani kengaytirish, ta'lim-tarbiya sohasidagi o'z bilim va mahoratini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'qituvchilar ishini rejalashtirishda metodik ishlarni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Individual metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja bo'yicha olib boriladi. Unda o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi beruvchi ustozlarning o'z pedagogik mahoratlarini va o'z bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida individual metodik topshiriqlar nazarda tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi: fan boyich ma'ruza matnlarini takomillashtirib berish, pedagogik mavzular boyicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturining eng qiyin mavzulari boyicha metodik ko'rsatmalar

tuzish; o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqish; maqolalar tayyorlash; ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

O'qituvchiga metodik jihatdan yordam berish nuqtai nazaridan nazariy va amaliy mashg'ulotlarga boshqa o'qituvchilarning kirishini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday darsga kirishlar natijasida hamkasblar dars o'tishdagi kamchiliklarni aniqlab, uni bartaraf etishga yordam beradilar, ilg'or tajribalarni esa boshqa o'qituvchilar orasida yoyilishiga ko'maklashadilar.

Metodik ishlarining shakllari xilma-xil ekanligi sababli, ular mazmuni va o'tkazilish muddatiga ko'ra aniq rejalashtirilishi kerak.

O'tkaziladigan tadbirlarni rejalashtirish ayrim metodik ishlarining takrorlanishini istisno qiladi, ishning reja asosida olib borilishini, pedagoglar jamoasida ishning barobar taqsimlanishini ta'minlaydi.

Metodik ishlarni o'tkazish uchun haftaning ma'lum bir kunini ajratish kerak.

Aytaylik, agar bu maqsad uchun seshanba kuni ajratilsa, shu kuni jamoa ravishdagi metodik ishlarining bir fo'rmasi o'tkaziladi. Masalan: har oyning birinchi seshanba kuni pedagoglar kengashi majlisiga, ikkinchi seshanba – metodik komissiyalar majlisiga, uchinchi – metodik kengashlar uchun, to'rtinchisi – pedagogik xodimlarning malakasini oshirish uchun ajratiladi.

Xuddi shu kunlari seminarlar, amaliyotlar, metodik materiallarni o'rganish ishlari va hokazolar o'tkaziladi. Uslubiy ishlar uchun ajratilgan kunda boshqa hech qanday tadbir o'tkazilmasligi lozim.

Kasb-hunar kollejlariidagi metodik ishlarni ikki turga ajratish mumkin (7-jadval):

Pedagogik kengash – kasb-hunar kolleji direktori pedagogik kengashning doimiy raisi hisoblanadi. U bo'lmagan vaqtlarda pedagogik kengashning majlislarini direktorning o'quv ishlab-chiqarish bo'yicha o'rinbosari tashkil qiladi.

Kengash 2-oyda 1 martda chaqiriladi.

Pedagogik kengash qarorlarining bajarilishi ustidan nazorat qilish kengash raisiga yuklanadi. U bor ishni shaxsan o'zi bajaradi yoki kengash a'zolaridan biriga topshiradi.

Metodik ishlarining shakllari

Jamoa	Shaxsiy
Pedagogik kengash	G'oyaviy-nazariy saviyani oshirish
Uslubiy kengash	O'z ish malakasini takomillashtirish
Ilmiy-amaliy konferensiya	Muntazam pedagogik mahoratni oshirish
Ilg'or tajriba maktablari	Dars berish metodikasini takomillashtirish
Seminarlar	
Konsultatsiyalar	
Ochiq darslar	

Kasb-hunar kollejining pedagogik kengashlari bo'lg'usi kichik mutaxassislarini tayyorlash va ularni tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p va xilma-xil masalalarni ko'rib chiqadi.

Pedagogik kengash – bu kasb-hunar kollejlariida o'quv-tarbiyaviy va metodik ishlar bo'yicha jamoa bo'limi hisoblanadi. Kasb-hunar kolleji hayotida o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish; pedagogik faoliyatga fan yutuqlari va ilg'or pedagogik tajribani joriy qilish; o'quv va tarbiyaviy ishlar jarayoniga muhandis-pedagog jamoaning mas'uliyatini oshirish; pedagogik jamoaning o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan nuqtai nazar va talablarni bir yo'nalishga solish kabi qator masalalar borki, ularni jamoa bo'lib ko'rib chiqish, muhokama qilish talab etiladi. Bu esa pedagogik kengash tuzishni taqozo etadi.

Pedagogik kengash tarkibiga barcha o'qituvchilar va muhandis-pedagoglar doimiy a'zo qilib kiritiladi. Bundan tashqari, unda qaysi korxonalar, zavod va fabrikalar bilan shartnomalari bo'lsa, o'sha tashkilotning vakillari ham kiritiladi. Ularning hammasi kengash ishida faol ishtirok etadilar.

Metodik kengash – kasb-hunar kollejida 5 yoki undan ko'p muhandis-pedagog hamda bir yoki bir nechta o'xshash mutaxassisliklar bo'yicha maxsus fan o'qituvchilari bo'lsa, metodik komissiyalar tuziladi.

Agar o'xshash fan o'qituvchilari kam bo'lib, kasb-hunar kolleji fanlariga oid metodik komissiya tuzish imkoniyati bo'lsa, kasb-hunar kolleji direktori bu o'qituvchilarni yaqin orada joylashgan (qo'shni) kasb-hunar kollejlariidagi

o'quv-metodik kabinetidagi tegishli metodik komissiyalarining ishida qatnashishiga jalb qilishi, shuningdek ular bilan individual metodik ishlarni o'tkazishi kerak.

Pedagogik kengashning tavsiyasiga binoan, shu buyruq bilan har bir komissiyaning raisi tayyorlanadi. Raislar, odatda, maxsus oliy ma'lumotli, pedagogik ish tajribasiga ega bo'lgan ancha tajribali o'qituvchilar yoki ishlab chiqarish ta'limi muhandis-pedagoglaridan tanlanadi.

Metodik kengash raisi ishning tashkil etilishiga va uning mazmuniga javob beradi. U kengashning ish rejasini tuzadi, reja asosida rahbarlik qiladi, metodik kengash majlislarini, tayyorlaydi va o'tkazadi uning qarorlarini bajarilishini ta'minlaydi, kengash a'zolariga metodik yordam ko'rsatadi, ochiq darslar, seminarlar va praktikalar tashkil etadi va o'tkazadi, ishlarni hisobga oladi va hisobot ishlarini yo'lga qo'yadi.

Metodik kengashlarda ta'lim-tarbiyaviy ishlar saviyasini oshirish uchun ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik va metodik xarakterdagi ayrim muommolar, kollejdagi o'tkaziladigan ochiq darslar, tadbirlar, o'qituvchilar darslarida qatnashish, o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish, malaka oshirishga yuborish kabi jadvallarni ko'rib chiqish alohida e'tibor talab qiladi.

Ilmiy-amaliy konferensiyalar – ta'lim-tarbiya jarayoni, metodik ishlarni tashkil etishda ko'pgina yangi masalalar paydo bo'ldiki, ularni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish talab etiladi.

Ilmiy-amaliy konferensiya pedagogika va metodika sohasidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish va bilim darajasini oshirishning ta'sirchan vositasi sifatida professional-texnika ta'limi tizimidagi har bir kasb-hunar kollejdagi an'anaga aylinishi kerak.

Ilg'or tajriba maktablari – ilg'or pedagogik tajribalarni va ishlab chiqarish tajribalarini joriy qilish hamda kasb-hunar kollejlari xodimlarining pedagogik mahoratini oshirishning eng muhim shaklidir.

Ilg'or tajriba maktabining eng asosiy maqsadi – kasb-hunar kollejlari xodimlariga o'z faoliyatlarida ta'lim-tarbiyaviy ishlarning hozirgi zamon talablariga mos bo'lgan darajada natijalarga erishishiga yordam berishdir.

Seminarlar – jadval bo'yicha kamida oyda bir marta o'tkaziladi. Seminarga barcha muhandis-pedagog va o'qituvchilar

qatnashishlari kerak. Seminarlar mazmuniga ko'ra har xil bo'lishi mumkin: 2 soatlik seminar, 1 kunlik seminar, 3 kunlik seminar va h.k.

Konsultatsiyalar – shaxsiy va guruhli bo'lishi mumkin. Shaxsiy konsultatsiyalar muhandis-pedagog va o'qituvchilarning mustaqil ishlash soatlarida muntazam o'tkaziladi. Kasb-hunar kolleji rahbarlari, tajribali muhandis-pedagog va o'qituvchilar konsultant bo'lishlari mumkin.

Guruhli konsultatsiyalar ma'lum bir mavzular bo'yicha vaqti-vaqti bilan tashkil etiladi. Konsultatsiya o'tkazish uchun korxonalarining mutaxassislari, ishlab chiqarish ilg'orlari, ilmiy xodimlar, malakali metodistlar taklif qilinadi.

O'qituvchilar ishini rejalashtirishda metodik ishlarni rejalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Individual metodik ish butun o'quv yiliga tuzilgan reja boyicha olib boriladi. Unda o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi beruvchi ustozlarning o'z pedagogik mahoratlarini va o'z bilimlarini chuqurlashtirish maqsadida individual metodik topshiriqlar nazarda tutiladi. Ularga quyidagilar kiradi: fan bo'yicha ma'ruza matnlarini takomillashtirib borish, pedagogik mavzular boyicha ma'ruzalar tayyorlash; o'quv dasturining eng qiyin mavzulari boyicha metodik ko'rsatmalar tuzish; o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqish; maqolalar tayyorlash; ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish. Bu topshiriqlar har bir pedagog uchun majburiy minimum hisoblanadi.

Har bir o'qituvchining ish rejasi to'rtta bo'limdan tashkil topishi kerak, ya'ni:

1. G'oyaviy-nazariy saviyani oshirish.
2. O'z ish malakasini takomillashtirish.
3. Muntazam ravishda pedagogik mahoratni oshirish.
4. Dars berish metodikasini takomillashtirish.

Bu reja metodik komissiya majlisida ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi. Rejaning bajarilishi haqida o'qituvchilarning hisobotlari eshitib boriladi.

Eng muhimi, har bir rejalashtiriladigan ish ma'ruzada, metodik ko'rsatmada, metodik tavsiyalarda, referatda, konpektnda, fanlarga doir jadval va kartochka-topshiriqlarda, individual kompleks topshiriqlarda, seminar yoki konferensiyaga tayyorlanadigan materialda o'z amaliy tatbiqini to-

pishi kerak. Rejaning har bir bo'limiga yuqorida ta'kidlanganlardan bitta-ikkitasini kiritib, aniq bajarilish muddatini ko'rsatib qoyish zarur. Shuni aytib o'tish kerakki, o'z bilimni mustaqil oshirish rejasi boyicha yuqoridagi ishlarning hajmini oldindan belgilab qoyib bo'lmaydi. U bajariladigan ishning xarakteriga, ijodiy izlanishning maqsadiga, o'qituvchi qobiliyati va imkoniyatlariga, uning mehnat staji va mahoratiga bog'liq bo'ladi.

“G'oyaviy-nazariy saviyani oshirish” bo'limiga doir materiallar ishlab chiqilayotganda hozirgi zamon hayoti va turmushini nazarda tutish lozim.

“Ish malakasini takomillashtirish” bo'limining asosiy yo'nalishi fan va texnika yutuqlari doimo mukammallashtirish borishini nazarda tutadi.

“Muntazam ravishda pedagogik mahoratni yaxshilash” bo'limi bo'yicha tayyorlanadigan ma'ruzalar, ko'rsatmalar, tavsiyalarda o'quvchilar bilan bo'ladigan o'quv va tarbiya ishlari shaklini mukammallashtirib borish nazarda tutiladi.

“Dars berish metodikasini takomillashtirish” bo'limida pedagogik kollektiv shug'ullanayotgan metodik muammo bilan har bir o'qituvchi shug'ullanadigan muammo bir-biri bilan bog'lanadi. Bu yerda yangi metodik ko'rsatmalar tayyorlash, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish masalasini yechish, ilg'or pedagogik tajribaga ijodiy baho berish, uni amalga joriy etish yo'llarini qidirib topish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgan.

O'qituvchiga metodik jihatdan yordam berish nuqtai nazaridan nazariy va amaliy mashg'ulotlarga boshqa o'qituvchilarning kirishini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday darsga kirishlar natijasida hamkasblar dars o'tishdagi kamchiliklarni aniqlab, uni bartaraf etishda yordam beradilar, ilg'or tajribalarni esa boshqa o'qituvchilar orasida yoyilishiga ko'maklashadilar.

Ochiq darslarni metodik kengash rejalashtiradi va tashkil etadi. Ochiq dars o'tkazadigan o'qituvchiga tashkiliy va metodik yordam ko'rsatish zarur.

Ochiq darsdan maqsad – ish yuzasidan tajriba almashish, dars berishning ilg'or metodlarini yoyish, ta'lim berish metodikasidagi kamchiliklarni bartaraf etib, uni tuzatishga yor-

dam berish. Ochiq dars o'tishdan avval kengaytirilgan reja tuzib, unda darsdan ko'zda tutilgan o'quv-tarbiyaviy ishlar maqsadi, uni amalga oshirish bosqichlari ko'rsatiladi. Bunday dars rejasi metodik kengash tomonidan tasdiqlanib, barcha o'qituvchilarga tarqatiladi.

Namuna sifatida quyida *amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining darsga tayyorgarligini* tavsiya qilamiz:

- o'tilayotgan dars mavzusi bo'yicha axborotlar materiallarini o'rganish;
- ish bajarish bo'yicha mehnat uslublarini ko'rsatish;
- o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarish uchun jihozlarni tayyorlash;
- dars uchun o'quv va texnik hujjatlarni tayyorlash;
- o'quv jarayonini rejalashtirish;
- darsning har bir tarkibiy qismi bo'yicha vaqtini belgilash;
- darsning har bir tarkibiy qismi bo'yicha ishlanma ishlab chiqish.

Mehnatning *oqilona uslublarini egallash* – kasb asoslarini dastlab egallashda mehnatning oqilona uslublarini mustahkam o'rganish, yo'riq xaritalaridan foydalanish orqali kasb asoslarini o'rganish, amaliy kasbiy ta'limning barcha bosqichlari davomida o'quvchilar tomonidan mehnat uslublarining to'g'ri qo'llanilishiga, amaliy kasbiy ta'lim o'qituvchisining doimiy talabchanligidan, o'quvchilarda o'quv-ishlab chiqarish mehnatining samarali uslublarini mujassamlashtirishda mashq jihozlari va moslamalarini qo'llash, mehnat uslublarining to'g'ri bajarilishini o'quvchilar amaliy kasbiy ta'limi muvaffaqiyatini baholashning muhim mezonlaridan biri sifatida belgilashdan tarkib topadi.

Mehnatning *ilg'or (yangi) uslublarini egallash* – o'quvchilarga amaliy kasbiy ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab mehnatning egallash mumkin bo'lgan eng ilg'or uslublarini o'rgatish, ya'ni mehnat jamoasining qurilish ishlarida erishgan yangi yutuqlari bilan tanishib, bu jarayonda bevosita ishtirok etish, mehnatning yangi, ilg'or uslublarini egallash bo'yicha o'quvchilarning maxsus mashqlarini tashkil qilish, o'quvchilar avtomobil yo'llari, sun'iy inshootlar va aerodromlar qurilishi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan malakali ishchi va mutaxassislardan ish joylarida mehnatning

ilg'or uslublarini o'rganishini tashkil etishdan, yo'l qurilish mashinalari (avtogreyder, buldozer, asfalt-beton yotqizgich, katok va h.k.) va moslamalarida mehnatning ilg'or uslublarini bajarib ko'rishdan iborat.

Texnikaviy madaniyat – amaliy kasbiy ta'lim jarayonini nazariya va amaliyotning o'zaro uzviy aloqadorligi asosida tashkil etish, avtomobil yo'llari qurilishida ishtirok etayotganda o'quvchilar bilimining qo'llanilishini rag'batlantirish, o'quvchilar o'quv-ishlab chiqarish mehnatining onglik darajasini oshirish, mashina-mexanizm va asbob-uskunalar bilan ishlayotganda xavfsizlik qoidalariga amal qilish, ilg'or zamonaviy texnologiyalardan foydalanib murakkab yo'l qurilish ishlarida ishtirok etish, yangi zamonaviy mashinalarning imkoniyatlaridan unumli foydalanishga sharoit yaratib beruvchi o'quv-ishlab chiqarish ishlari, texnologik jarayonlar va rejimlarni tanlashda aks etadi.

Mehnatning mustaqilligi – o'quvchilarning ish jarayonida qarorlar qabul qilishida mustaqillik talab etiladigan vaziyatlarga tushirish, xilma-xil ishlab chiqarish vaziyatlarida o'quvchilarning mustaqil ravishda qarorlar qabul qilishlari uchun maxsus mashqlar bajarilishini tashkil etish, o'quvchilar bilan ishlab chiqarishga oid oyinlarni o'tkazish, texnologik topshiriqlarni ochish, o'quvchilarni doimiy ravishda ishlarining borishi va natijalari boyicha o'z-o'zini nazorat qilishga o'rgatish, o'quvchilarni joriy xatoliklar, murakkabliklar hamda ish natijalarining tahliliga keng jalb qilish, o'quvchilarning o'quv-ishlab chiqarish ishlari sifat va samaradorligini oshirish yo'llarini birgalikda izlashda o'z ifodasini topadi.

Mehnatga ijodiy yondashuv – o'quvchilarni mumkin qadar tez-tez bilim va ko'nikmalarini ijodiy qo'llash sharoitlariga tushirish, amaliy kasbiy ta'limning faol shakl va uslublari: suhbat, munozara, "samarali" texnologik topshiriqlarni yechish, o'quvchilarning ixtirochilik takliflarini muhokama qilish, o'quvchilar tomonidan texnologik jarayonlarni mustaqil ishlab chiqish va shu kabilarni keng joriy etish, o'quvchilar tomonidan ijodiy mazmundagi topshiriqlarning bajarilishi, nosozliklarni qidirish, ixtirochilik, moslamalarni konstruksiyalash, texnologiyalarni modernizatsiya qilish va takomillashtirish; o'quvchilarning ijodiy yutuqlarini keng namoyish

etish, o'quvchilar ijodiy faoliyati bo'yicha tajriba almashinuvini tashkil etishda aks etadi.

Mehnat madaniyati – o'quvchilarni o'zlarining o'quv-ishlab chiqarish mehnatini batafsil rejalashtirishga o'rgatish, o'quvchilarda mehnatni va ish o'rinlarini to'g'ri tashkil etish odatini shakllantirishga doimiy e'tibor qaratish, o'quvchilarda ishlab chiqarish estetikasi, sarishtalik, vijdonlilik, sharaf va g'urur, kasbiy nafosat fazilatlarini va mehnat jarayonida o'zaro muomala madaniyatini shakllantirish, o'quvchilarga o'quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishda xavfsizlik qoidalarini haqida muntazam yo'riqlar berib borish hamda o'quvchilar tomonidan o'quv-ishlab chiqarish ishlari jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qilinishi uchun muntazam nazoratga olishda shakllanadi.

Mehnat faoliyatining ekologik maqsadga muvofiqligi – o'quvchilarda bajarilayotgan mehnat faoliyatini iqtisodiy-ekologik tahlil etish qobiliyatlarini shakllantirishda, ya'ni avtomobil yo'li qurilayotganda atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, atmosferaga ortiqcha chang va gazlarning tarqalishiga yo'l qoymaslik; o'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish ishlarida iqtisodiy-ekologik jihatdan maqsadga muvofiq texnika va texnologiyalarni tanlashga rag'batlantirish, iqtisodiy-ekologik jihatdan qulay va xavfsiz uslublarni qo'llashga o'rgatishda mujassamlashadi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llanishi

Hozirgi zamon o'qituvchisi to'plagan tajriba bilimlarini mustaqil ravishda oshirib, pedagogik layoqatini yuksaltirib, yangi bilimlar bilan boyitib borilmasa, mohirlik, layoqat, tajriba kabi fazilatlar hech qachon o'z-o'zidan shakllanmaydi. Shu sababli o'qituvchidan o'z ustida mustaqil ishlash taqozo etiladi.

Ta'lim muassasalarida ilg'or pedagogik tajribaning salmog'i juda katta bo'lib, mazkur tajribalarni o'rganishni talab qiladi. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish shakllari va metodlarini quyidagilar tashkil qiladi:

- darslarni kuzatish va tahlil qilish;
- pedagoglarning metodik hujjatlarini o'rganish;

- ta'lim muassasasining ichki nazorati;
- o'quvchilar bilan suhbatlar;
- darsdan tashqari tadbirlarni kuzatish va tahlil qilish;
- darslar va darsdan tashqari tadbirlarni o'zaro kuzatish;
- zamonaviy o'qitish vositalari va axborot texnologiyalari dan foydalanish;

– ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganib borish.

Kasb-hunar kollejlarda ilg'or tajribani joriy etish shakllari hamda metodlarini rivojlantirish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun quyidagi ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish lozim:

- tajribali pedagoglarning namunali ochiq darslarini o'tkazish;
- ilg'or tajribani axborot vositalari orqali bayon etish;
- metodik ishlarni tashkil etish;
- pedagoglarning o'z tajribalari haqidagi ma'ruzalari;
- ilg'or pedagogik tajriba maktablarini tashkil etish;
- metodik ko'rgazmalar tashkil etish.

Kasb-hunar kollejlarda ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori darajaga ko'tarish uchun guruh murabbiylik ishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Nazorot savol va topshiriqlari

1. O'qituvchining asosiy lavozim vazifalari nimalardan iborat?
2. O'qituvchi lavozim vazifalaridan tashqari yana nimalarni bilishi zarur?
3. O'qituvchining metodik ishlarini qanday turlari mavjud?
4. Jamoaviy metodik ishlarga nimalar kiradi?
5. Shaxsiy metodik ishlarga nimalar kiradi?
6. O'qituvchining mustaqil metodik ishlari deganda nimani tushunasiz?
7. O'qituvchining metodik ishlari shakllarini sanang.
8. Kasb-hunar ta'limida metodik ishlarni tashkil qilish strukturasi qanday?
9. Ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish deganda nimani tushunasiz?
10. Kasbiy madaniyat deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Kasb ta'limi o'qituvchisining metodik ishlari mavzusi bo'yicha "Muammoli ta'lim" texnologiyasini ishlab chiqing.

2.8. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining pedagogik amaliyoti

Reja:

1. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari. Aktiv va passiv amaliyot.

2. Kasb-hunar kolleji bilan tanishish, ta'lim muassasasi rahbarlari ishlarini o'rganish. Kasb-hunar ta'limi ustasining o'quv-tarbiyaviy ishlarini o'rganish.

3. Kasb-hunar kollejida darsdan va o'qishdan tashqari ishlarni o'rganish. Ishlab chiqarish ustasi va guruh rahbari olib boradigan kasbga qiziqtirish ishlari usullari va metodlari bilan tanishish hamda ularni o'rganish.

4. Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan talablar, pedagogik amaliyot bo'yicha hujjatlar, ularni rasmiylashtirish, hisobot tayyorlash tartibi va pedagogik amaliyotni yakunlash.

Tushunchalar va tayanch iboralar: pedagogik amaliyot, malakaviy amaliyot, usta, hujjatlar.

Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari.

Aktiv va passiv amaliyot

Talabalarning malakaviy amaliyoti haqida Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Unda oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakavmi amaliyotini o'tkazish shakllari, tartibi va usullari belgilangan²².

1. Umumiy qoidalar

1.1. Bakalavriat yo'nalishlari va magistratura ixtisosliklari bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning muhim qismi bo'lgan talabalar amaliyoti ilg'or korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o'tkaziladi.

²² Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 30.10.1998 yil 305-sonli buyrug'idagi 5-ilovasiga asosan ishlab chiqilgan.

Talabalar amaliyoti bakalavriat yo'nalishlari va magistratura ixtisosliklari fanlarining nazariy qismini mustahkamlash uchun zarur bo'lgan, o'qish jarayonlarining bevosita ishlab chiqarish sharoitlarida o'tkaziladigan davomidir.

Malakaviy amaliyotlar bakalavriat yo'nalishlari va magistratura ixtisosliklari davlat ta'lim standartlarida (DTS) ko'zda tutilgan turli shakllarda tashkil qilinadi.

Institut, ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xosligini hisobga olib, kadrlar buyurtmachilar talablariga binoan, ilmiy kengash qarorlariga muvofiq amaliyotning boshqa turlarini kiritish huquqiga ega.

1.2. Har bir amaliyotning maqsadi, muddati va mazmuni DTS, o'quv rejalari va amaliyot dasturlarida belgilangan.

1.3. Amaliyot dasturlari tanlangan yo'nalish (ixtisoslik) ning malakaviy talablari, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning (bundan buyon – amaliyot ob'ektlari) tavsifi hisobga olingan holda tegishli mutaxassislik kafedralari tomonidan ishlab chiqiladi, ular institut ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etiladi va rektor tasdiqlaydi.

2. Amaliyotni tashkil qilish va unga rahbarlik

2.1. Talabalar amaliyoti institutning davlat va aksiyadorlik korxonalari, madaniy-ma'rifiy muassasa, tashkilot, firma, qo'shma korxonalar va boshqarmalar bilan tuzilgan shartnomalari asosida tashkil qilinadi.

Ikki tomonlama bitimlar asosida amaliyotni xorijiy davlatlar korxonalari, muassasalari va tashkilotlarida o'tash mumkin.

2.2. Yuridik shaxslar bilan tuzilgan kontrakt asosida o'qiydigan talabalar amaliyot o'tash uchun tegishli amaliyot ob'ektlariga yuboriladilar.

2.3. Amaliyotni tashkil qilish va o'tash uchun javobgarlik institut rektori zimmasiga yuklanadi.

2.4. Sirtqi bo'lim talabalari diplom oldi ishlab chiqarish amaliyotini o'tash uchun bir oy muddat bilan tanlangan mutaxassisligi bo'yicha amaliyotga yuboriladi.

2.5. Amaliyotga o'quv rejasida ko'rsatilgan fanlardan qarzi bo'lmagan talabalar yuboriladi. Qarzlarni topshirgan talabalar amaliyotga rektorning qo'shimcha buyrug'iga binoan yuborilishi mumkin.

2.6. Institut:

– har yili, 1-dekabr dan kechikmagan holda, navbatdagi kalendar yili uchun amaliyot ob'ektlari Blank shartnomalar tuzadi. Amaliyot boshlanishidan ikki oy oldin talabalar amaliyotni o'tkazish dasturi va kalendar jadvalini amaliyot ob'ektlari bilan kelishib oladi va bu masala institut uslubiy kengashida tasdiqdan o'tkaziladi;

– amaliyot rahbari tajribali professor, dotsent va katta o'qituvchilardan tayinlanadi, lozim bo'lgan holatlarda institut uslubiy kengashi qarori bilan ayrim o'qituvchilar ham amaliyot rahbari etib tayinlanadi;

– fan, texnika va madaniyatning eng yangi yutuqlari, ishlab chiqarish iqtisodiyoti, uni ilmiy tashkil etish, boshqarish va shunga o'xshash masalalar bo'yicha amaliyot ob'ektlari ma'muriyat bilan birgalikda mutaxassislarning ma'ruzalari tashkil etadi;

– talabalar va amaliyot ob'ektlari, amaliyot dasturlari bilan ta'minlanadi;

– ob'ektlardagi talabalar amaliyotini tashkil etish tartibi va o'tkazilishini hamda amaliyot muddati va mazmuniga rioya qilinishini nazorat etadi.

2.7. Institut tayinlagan amaliyot rahbari:

– talabalar kelishiga zaruriy tayyorgarliklarni tashkil etish uchun ob'ektlarga amaliyot boshlanishidan oldin boradi;

– talabalarning amaliyotga borishidan oldin tashkiliy tadbirlar (amaliyot o'tkazish tartiblari, xavfsizlik texnikasi haqida ko'rsatmalar berish va h.k.) ni o'tkazishni ta'minlaydi;

– talabalarning kafedra topshiriqlarida ko'zda tutilgan ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qiladi;

– amaliyot ob'ektlari talabalarning mehnat va maishiy xizmat sharoitlari me'yorida gidek ta'minlanganligi nazorat qilinadi;

– talabalarning ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlari nazorat qilinadi;

– amaliyot yakunlari bo'yicha talabalar ilmiy anjumanlari tayyorlanishida va amaliyot natijalarini baholovchi komissiya ishida ishtirok etadi;

– talabalarning amaliyot bo'yicha hisobotini ko'rib chiqadi, ularning ishi haqida tavsiyanoma beradi. Talabalar amaliyot

o'taganligi, ularning amaliy tayyorgarligidagi kamchiliklar, ko'rsatilgan amaliyotni takomillashtirish haqida takliflar kiritilgan yozma hisobotini kafedra mudiriga taqdim etadi;

– barcha ishlarni amaliyot ob'ekti tomonidan birlashtirilgan rahbar bilan birgalikda o'tkaziladi.

2.8. Talabalar amaliyotining umumiy rahbarligi amaliyot ob'ekti rahbarning buyrug'i bilan mas'ul xodimlarning biriga yuklatiladi.

Bo'lim, laboratoriya kabilarda talabalar amaliyotining bevosita rahbarligi amaliyot ob'ekti boshlig'ining buyrug'i bilan ko'rsatilgan tarkibiy bo'limning yuqori malakali mutaxassisi zimmasiga yuklanadi.

2.9. Shartnoma majburiyatlariga muvofiq amaliyot ob'ektlari:

– talabalar amaliyotini amaliyot dasturi va mazkur Nizomga muvofiq tashkil qiladi va o'tkazadi;

– dasturga muvofiq talabalar amaliyot o'tkazishining samaradorligini ta'minlovchi ish joylari bilan ta'minlaydi;

– talabalar ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'z ish joylari mavjudligida, amaliyotchilarni tegishli ish haqi bilan lavozimlarga qabul qiladi;

– amaliyotni o'tashda institut bilan kelishilgan oy-kunlik ish jadvaliga amal qiladi;

– talabalarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini beradi;

– kurs ishi va malakaviy bitiruv ishlari uchun mavzular tanlashda yordam ko'rsatadi;

– hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha majburiy ko'rsatmalar beradi, zarur bo'lgan holatlarda talabalarni mehnatning xavfsiz usullariga o'rgatadi va bu haqda hujjatlar rasmiylashtiriladi;

– amaliyotchi talabalarning mazkur amaliyot ob'ektida joriy qilingan ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlaydi va nazorat qiladi;

– yaqin atrofda joylashgan boshqa korxonalar, muassasa, tashkilotlarga birgalikda tashriflar o'tkazadi;

– shartnoma asosida talabalar yashashi uchun qulay sharoitli yotoqxonalar bilan ta'minlaydi. Zarur bo'lganda ularni joylashtirish uchun turar joylarni ijaraga oladi;

– zarur bo'lgan holatlarda, ichki mehnat intizomini buzgan amaliyotchi talabalarga amaliyot ob'ekti rahbarining buyrug'i bilan jazo choralari ko'radi va bu haqda oliy ta'lim muassasasi rektoriga xabar qiladi;

– amaliyot o'tayotgan talabalar baxtsiz hodisaga uchragan holda to'la javobgarlikni oladi;

2.10. Talaba amaliyot o'tashda:

– amaliyot dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarishi;

– amaliyot ob'ektining ichki mehnat tartib-qoidalariga bo'ysunishi:

– mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o'rganishi va qat'iy rioya qilishi;

– bajarilgan ish va uning natijalari uchun shu korxonalar ishchilari qatori javobgarlik olishi;

– kundalik daftar yuritishi, chizmalar, tasvirlar va boshqalarni bajarishi;

– amaliyot rahbariga barcha topshiriqlar bajarilgani haqida yozma ravishda hisobot berishi va amaliyot bo'yicha reyting balini olishi shart.

3. Amaliyot natijalarini yakunlash

3.1. Amaliyot yakunida talaba yozma ravishda hisobot tayyorlaydi va uni bevosita amaliyot ob'ektidan tayinlangan rahbar imzolagan kundalik daftar bilan birga institut tayinlangan rahbarga topshiradi. Hisobot – talabaning amaliyot davrida bajargan muayyan ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar, amaliyot ob'ekti bo'limlarining qisqacha izohi (sex, bo'lim, laboratoriya va boshqalar). Ular faoliyatining tashkil qilinishi, hayot faoliyatining xavfsizligi to'g'risidagi masalalar, amaliyot natijalari bo'yicha xulosa va takliflarni o'z ichiga olishi lozim.

3.2. Amaliyot yakunida talaba o'z hisobotini institut tomonidan tayinlangan komissiya oldida himoya qiladi.

Komissiya tarkibiga o'tilayotgan amaliyot fanini olib boruvchi o'qituvchi, institut tomonidan birlashtirilgan rahbar va imkoni bo'lsa, amaliyot ob'ektidan tayinlangan rahbar ham kiritiladi.

Amaliyot natijasi bahosi talabaning kursdan kursga o'tishi va stipendiya belgilashda hisobga olinadi.

Amaliyot yakuni institut ilmiy-uslubiy anjumanida muhokama qilinadi.

Institut va fakultet ilmiy kengashida amaliyotning natijalariga ko'ra yakun yasaladi.

3.3. Amaliyot dasturini bajarmagan, ishi haqida qoniqarsiz taqriz yoki hisobot himoyasida qoniqarsiz baho olgan talaba ta'til vaqtida o'z hisobidan qayta amaliyot o'tishga jo'natiladi.

Ayrim holatlarda, bunday talabaning kelgusida oliy ta'lim muassasasida o'qishi mumkinligi masalasi rektor tomonidan ko'rib chiqiladi.

4. Moddiy ta'minot

4.1. Amaliyot ob'ekti xodimlariga amaliyotga rahbarlik qilgani uchun ish haqi institut bilan tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan mablag'lar hisobiga to'lanadi. Buning uchun butun muddat davomida tegishli talabalar guruhiga bitta rahbar hisobidan quyidagi me'yorlar bo'yicha har oyda haq to'lanadi (asosiy ish joyining o'rtacha ish haqidan foiz hisobida):

a) amaliyotchi talabalarining soniga qarab umumiy rahbarlik qiluvchi amaliyot rahbariga:

11 dan 20 kishigacha – 25%

21 dan 30 kishigacha – 35%

31 dan 40 kishigacha – 45 %

41 dan 40 kishigacha – 50%

b) amaliyotchi talabalarining soniga qarab amaliyotga bevosita rahbarlik qiluvchi rahbarga:

4 kishigacha – 20 %

5 dan 7 kishigacha – 35%

8 dan 10 kishigacha – 50 %

Talabalar amaliyotiga rahbar bo'lmagan mutaxassislar tomonidan amaliyot ob'ektida o'tkazilgan ma'ruza, maslahat va tashriflar uchun to'lovlar institutning amaldagi tartibda ko'rsatilgan, soatbay to'lov maoshi bo'yicha, ishlab chiqarish amaliyoti uchun ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan oliy ta'lim muassasasi amalga oshiradi.

4.2. Talaba amaliyot davrida amaliyot o'tash joyidan ish haqi olish-olmasligidan qat'i nazar, uning umumiy qoidalar asosida stipendiya olish huquqi saqlanib qoladi.

4.3. Sirtidan o'qiydigan oxirgi bosqichdagi talabalarga, tanlangan yo'nalish (ixtoslik) bo'yicha bevosita ishlab chiqa-

rishda ish bilan tanishish va bitiruv ishi (loyiha)ga zarur ma'lumotlarni tayyorlash uchun, tegishli o'quv yurtining tavsiyasiga ko'ra, muassasa rahbarlari ish haqi saqlanmagan holda bir oylik qo'shimcha ta'til beradilar.

Ushbu talabalarga ko'rsatilgan ta'til davrida umumiy qoidalar asosida stipendiya beriladi.

4.4. Institut hududidan ketish bilan bog'liq amaliyotga jo'natilgan kunduzgi talabalarga oliy o'quv yurtining sarf-xarajatlar jadvali hisobidan butun amaliyot davri uchun kunbay-safar puli to'lanadi. Safar puli to'lash amaliyotchi talabalarining ob'ektga borish va qaytish vaqti hisobga olingan holda amalga oshiriladi. Amaliyot davrida ekspeditsiya va geologik guruhlarining mansab lavozimlari qabul qilingan va ish haqi, dala ta'minoti yoki tekin ovqat beriladigan talabalarga safar puli to'lanmaydi.

4.5. Kunduzi o'quvchi talabalarining amaliyot ob'ekti joylashgan joyga borish va kelishi uchun yo'lkira haqi oliy o'quv yurti mablag'i hisobidan to'lanadi.

4.6. Amaliyot davrida maosh oladigan lavozimlarda ishlaydigan talabalarga shu mutaxassis uchun tegishli me'yorda navbatdagi ta'til to'lovi to'lanadi. Avval ishlamagan talabalarga lavozimi, ishning boshlanishi va tugallanishini ko'rsatuvchi buyruq nusxasi va mehnat shartnomasi tuzilganligi va to'xtatilganligi haqida sanalari ko'rsatilgan ma'lumotnoma beriladi.

Talabalar amaliyot davrida to'lovli ish joyi va lavozimga qabul qilingan vaqtdan boshlab, amaliyot ob'ektidagi umumiy mehnat qonunlari, mehnat xavfsizligi va ichki mehnat tartib-qoidalariga amal qiladi. Ish joyiga qabul qilinmagan talabalarga ham mehnat va ish kunining tartib-qoidalari taalluqlidir.

4.7. Amaliyotga rahbarlik qilishga ketgan o'qituvchi xizmat safarining to'lovi xizmat safarida bo'lgan butun davr uchun xizmat safari to'lovi haqidagi qoida asosida oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

4.8. Amaliyotni o'tish davridagi talabalarining boshqa korxonalariga tashriflarini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari oliy ta'lim muassasalarining amaliyotni o'tkazish uchun xarajatlar ro'yxatida ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan qoplanadi.

4.9. Yakka ish rejasida belgilanmagan, ammo rektor buyrug'i bilan amaliyot rahbariga soatbay to'lov maoshi bo'yicha ishlab chiqarish amaliyoti uchun to'lov ko'zda tutilgan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi.

4.10. Nizomga zarur o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritish institut ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kolleji bilan tanishish, ta'lim muassasasi rahbarlari ishlarini o'rganish

Kasb-hunar kolleji bilan tanishish, ta'lim muassasasi rahbarlari ishlarini o'rganishda ta'lim muassasasidagi mavjud me'yoriy hujjatlarni tahlil etish maqsadga muvofiqdir (8-jadval).

8-jadval

Kasb-hunar kollejlarning me'yoriy hujjatlar ro'yxati

No	Hujjat turi	Hujjat nomi	Tuzuvchi shaxs	Tasdiqlovchi shaxs
1	30-avgustga qadar ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlanishi zarur bo'lgan hujjatlar	1.1. Kasb-hunar kollejining yillik ish rejasi	O'IBDO'	Rahbar
		a. 1.2. Ilmiy-pedagogik kengashning yillik ish rejasi	O'IBDO'	Rahbar
		1.3. Ichki nazorat rejasi	O'IBDO'	Rahbar
		1.4. Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining ish rejasi	MMIBDO'	Rahbar
		1.5. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining ish rejasi	O'IBDO'	Rahbar
		1.6. Kasbiy tayyorgarlik bo'yicha direktor o'rinbosarining ish rejasi	KTBDM	Rahbar
		1.7. Yoshlarni chaqiriqqacha tayyorlash bo'yicha ish rejasi	Shifokor	Rahbar
		1.8. O'quvchilarni jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ish rejasi	Jismoniy tarbiya o'qituvchisi	Rahbar
		1.9. Kutubxonaning ish rejasi	Kutubxonana mudiri	Rahbar
		1.10. Homiy oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda o'qituvchi va o'quvchilarni ilmiy izlanishlari bo'yicha qilinadigan ishlar rejasi	O'IBDM	Rahbar
		1.11. Darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar rejasi	MMIBDM	Rahbar

8-jadvalning davomi

2	O'quv yilining 10-sentabr tabriga qadar tuzilib, muhokama qilib va tasdiqlanishi kerak bo'lgan hujjatlar	2.1. Guruh rahbarlari Kengashining ish rejasi	Kengash raisi	Rahbar
		2.2. Guruh rahbarlarining ish rejasi	Guruh rahbarlari	Kafedra mudiri
		2.3. To'garaklarning ish rejasi	To'garak rahbarlari	MMIBRM
3	O'quv yili va semestrlar boshlangunga qadar tasdiqlanishi kerak bo'lgan hujjatlar	3.1. Fanlardan taqvim-mavzu rejaları	Fan o'qituvchilari	Rahbar
		3.2. Dars jadvali	O'IBDM	Rahbar
		3.3. Ochiq darslar jadvali	O'IBDM	Rahbar
		3.4. To'garaklar jadvali	MMIBDM	Rahbar
		3.5. Qo'shimcha darslar jadvali	O'IBDM	Rahbar
		3.6. O'zaro darslarni tahlil qilish jadvali	O'IBDM	Rahbar
4	O'quv yilining boshida kollej rahbari o'quvchilarni quyidagi hujjatlar bilan ta'minlashi lozim	4.1. O'quvchi bileti	Guruh rahbari	Rahbar
		4.2. O'quvchining reyting daftari	Guruh rahbari	Rahbar
5	Kollejda bo'lishi shart bo'lgan hujjatlar	5.1. Kollejning ustavi	O'IBDM	Rahbar
		5.2. Kollejning pasporti	XIBDM	Rahbar
		5.3. Direktiv hujjatlar	Rahbar muovinalari	Rahbar
		5.4. O'quv rejaları	Fan o'qituvchilari	Rahbar
		5.5. O'quv dasturlari	Fan o'qituvchilari	Rahbar
		5.6. Fanlardan taqvim-mavzu rejaları	Fan o'qituvchilari	Rahbar
		5.7. O'zbekiston Fanlar akademiyasining ilmiy tekshirish institutlari bilan tuzilgan shartnomalari	O'IBDM	Rahbar

8-jadvalning davomi

5.8. Maxsus va fakultativ fanlarning tasdiqlangan dasturlari	O'IBDM	Rahbar
5.9. Kollejning ichki tartib-qoidalari	Rahbar muovinalari	Rahbar
5.10. Statistika hisobotlar va ma'lumotlar		
5.11. Ilmiy-pedagogik kengashining bayonnomalari	Kengash kotibi	Rahbar
5.12. Buyruqlar kitobi (o'quvchilarning buyruqlar daf-tari, o'qituvchi va xizmatchilar bo'yicha buyruqlar daftari)	Kotiba	Rahbar
5.13. Ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlari grafiklari	KTBDM	Rahbar
5.14. Diplom loyihalari mavzularining (tayinlangan rahbarlar va tugallash muddatlari ko'rsatilgan holdagi) tasdiqlangan ro'yxati	Dekanlar	Rahbar
5.15. Bitiruvchilarga diplomlar berishni qayd qilish daftari	Kotiba	Rahbar
5.16. Guruhlarning o'quv jurnal-lari	Guruh rahbarlari	Rahbar
5.17. Darslarni tahlil qilish daftari (kollej direktori, direktor o'rinbosarlari, kafedra mudirlari)	Rahbariyat	Fan o'qituvchilari
5.18. O'quvchilarning nom-ma-nom kitobi	Guruh rahbarlari	Rahbar
5.19. O'quvchilarning shaxsiy hujjatlari	Guruh rahbarlari	Rahbar
5.20. O'qituvchi va ishchi-xodimlarning shaxsiy hujjatlari	Kotiba	Rahbar
5.21. Keluvchi va ketuvchi hujjatlarni qayd etish daftari	Kotiba	Rahbar
5.22. O'qituvchilarning tarifkat-siya jadvali	O'IBDM	Rahbar
5.23. Shtatlar jadvali	O'IBDM	Rahbar
5.24. Yillik hisobotlar majmuasi	Rahbar muovinalari	Rahbar
5.25. Qabul komissiyalarining hisobotlari majmuasi	Qabul komissiyasi kotibasi	Komissiya raisi
5.26. Tashrif daftari	Navbatchi	Rahbar

Kasb-hunar kollejida darsdan va o'qishdan tashqari ishlarni o'rganish

Tadqiqotchi O.Uzoqov tomonidan dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning o'zaro aloqadorligini "Fizika" fani misolida, G.Saparova umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Orol-bo'yi ekologiyasi" fakultativ kursini o'qitish metodikasini, X.Rahmatullayeva esa o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlar jarayonida ekologik-gigiyenik tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlarini VII-IX sinflar misolida, X.Rahmatova didaktik tamoyillarga amal qilgan holda o'quvchilarning qiziqish va layoqatlari darajasini o'rganib, tajriba-sinov jarayonida pedagogik faoliyatning turli shakllaridan foydalangan, ya'ni yakka, guruhli va ommaviy shakllarda tahlil qilganlar. A.Ye.Isimova darsdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning fanlararo aloqadorligini 5-9-sinflar misolida o'rgangan. Mazkur tadqiqot ishlarida darsdan tashqari mashg'ulotlar nazarda tutiladi.

Darsdan tashqari faoliyat tizimi ko'p komponentli bo'lib, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini quyidagi tarkibda, tartibda, shaklda va joylarda amalga oshirilishi mumkin:

- o'quv yurti tarkibida;
- o'quv yurti jamoasi tarkibida;
- individual (yakkama-yakka) tartibda;
- ijtimoiy birlashmalarda va tashkilotlarda;
- klublarda, to'garaklarda, muzeylarda;
- mehnat jamoalarida;
- alohida fanlarni chuqur, mustaqil o'rganish chog'ida;
- ta'lim muassasasidan tashqaridaga madaniy dam olishning turli shakllarida.

O'quvchilarning darsdan tashqari faoliyat tizimining o'ziga xosligi shundaki, uning har bir komponenti alohida loyihalashtiriladi va har doim ham pedagogik ta'sir doirasi bilan qamrab olinmaydi.

O'quvchilarning darsdan tashqari faoliyat tizimini rejalashtirish shakllari:

- o'quv yurtining ish rejasi;
- o'quv yurtining o'quvchilar bilan olib boradigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi;

– o'quv guruhlari o'quvchilari bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi va boshqalar.

Pedagogik amaliyotga qo'yiladigan talablar, pedagogik amaliyot bo'yicha hujjatlar, ularni rasmiylashtirish, hisobot tayyorlash tartibi va pedagogik amaliyotni yakunlash

Malakaviy amaliyot quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. O'quv-tanishuv amaliyoti.
2. Ishlab chiqarish amaliyoti.
3. Pedagogik amaliyot.
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

Amaliyot bo'yicha me'yoriy hujjatlar quyidagicha:

1. Amaliyot nizomi.
2. Amaliyot kundaligi.
3. Amaliyot rejasi.
4. Amaliyot dasturi.

Talabaning asosiy vazifalari:

1. Amaliyot dasturida ko'rsatilgan topshiriqlarni to'liq bajarish.

2. Amaliyot ob'ektining ichki tartib-qoidalariga, hayot xavfsizligi, gigiyena va sanitariya qoidalariga qan'iy rioya qilish.

3. Kundalik yuritish va unda ob'ekt to'g'risidagi dastlabki taassurotlar, berilgan topshiriqlar, uning ijrosi, tahlil va xulosalarni qayd etib borish.

4. Amaliyot rahbarining boshqa ko'rsatmalariga to'liq amal qilish va barcha qo'shimcha tadbirlarda faol ishtirok etish.

5. Kundalik va yozma hisobotni o'z vaqtida amaliyot rahbariga topshirish.

Mutaxassislik kafedra mudirining vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Amaliyot bo'yicha umumiy nazoratni amalga oshiradi.
2. OTM, amaliyot rahbari bilan birgalikda amaliyot o'tkazish haqida rektor buyrug'i loyihasini tayyorlaydi.
3. Amaliyot boshlaguncha shartnoma tuzilgan amaliyot ob'ekti bilan aloqa o'rnatadi hamda amaliyot tartibi va shartlarini kelishib oladi.

4. Amaliyot bo'yicha rahbar bilan birgalikda amaliyot ish dasturini tuzadi, amaliyot ob'ekti imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va yakka tartibdagi topshiriqlarni belgilaydi.

5. Amaliyotning zarur me'yoriy hujjatlari bilan ta'minlash chorasini ko'radi.

6. Amaliyot oldidan bo'lib o'tadigan tashkiliy yig'ilishni uyushtiradi, talabalarni amaliyot rahbarlari va amaliyot dasturi bilan tanishtiradi.

7. Amaliyotga rahbarlik – tayinlangan o'qituvchiga o'quv amaliyotini yuqori saviyada mazmunli o'tkazish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalarni beradi.

8. Amaliyot tugagandan keyin amaliyot bo'yicha rahbarning hisobotini qabul qiladi.

9. Komissiya a'zosi sifatida talabalar hisobotining himoyasida ishtirok etadi.

10. Amaliyot yakuni bo'yicha fakultet Ilmiy kengashida hisobot beradi.

Amaliyot bo'yicha rahbar vazifalari:

1. Kafedra mudiri bilan birgalikda amaliyot dasturi tuzadi va talabalar uchun topshiriqlar beradi.

2. Amaliyot ob'ektiga oldinroq borib, ob'ektni talabalarni qabul qilishga tayyorlaydi.

3. Talabalarni umumiy va yakka tartibda topshiriqlar mazmuni bilan tanishtiradi va uni bajarish bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar beradi, uslubiy yordam uyushtiradi hamda vaqtida sifatli bajarilishini nazorat qiladi, material yig'ish va tartibga solishga ko'maklashadi.

4. Talabalarning kundalik ishlari, bajarayotgan ishlari va olib borayotgan yozuvlarini tekshirib kuzatib boradi va zaruriy maslahatlar beradi.

5. Talabalarning hisobotlarini qabul qilib oladi.

6. Amaliyot bo'yicha kafedra mudiriga hisobot beradi.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
2. Kasb-hunar kolleji bilan tanishish, ta'lim muassasasi rahbarlari ishlarini o'rganish qanday amalga oshiriladi?
3. Kasb-hunar ta'limi ustasining o'quv-tarbiyaviy ishlarini o'rganish qanday amalga oshiriladi?

4. Kasb-hunar kollejida darsdan va o'qishdan tashqari ishlarni o'rganish qanday amalga oshiriladi?
5. Ishlab chiqarish ustasi va guruh rahbari olib boradigan kasbga qiziqtirishning qanday usullari va metodlari mavjud?
6. Pedagogik amaliyotga qanday talablar qo'yiladi?
7. Pedagogik amaliyot bo'yicha hujjatlar, ularni rasmiylashtirish, hisobot tayyorlash tartibi va pedagogik amaliyotni yakunlash qanday amalga oshiriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Quyidagi 1–2-jadvallarni to'ldiring:

1-jadval

Malakaviy amaliyot	Amaliyot hujjatlari

2-jadval

Malakaviy amaliyot jarayonida talabaning vazifalari	Mutaxassislik kafedra mudirining vazifalari	Amaliyot bo'yicha rahbar vazifalari

2. Malakaviy amaliyot o'tkazilgan ta'lim muassasasining me'yoriy hujjatlaridan nusxa ko'chiring va quyidagi jadvalni to'ldiring:

Hujjat nomi	Hujjat mazmuni

2.9. "Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish va bajarish metodikasi

Reja:

1. Mustaqil ishlar haqida va bajarish texnologiyasi.
2. Mustaqil ta'lim olish metodikasi.
2. "Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ishlarni bajarishda manbalardan foydalanish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: mustaqil ishlar, mustaqil ta'lim, metodika.

I. Mustaqil ishlar haqida va bajarish texnologiyasi

1.1. Ushbu yo'riqnomada O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", DTS talablari va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005-yil 30-sentyabrdagi 217-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni baholashning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat Nizom" xamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 21.02.2005-yildagi 34-sonli talabalar mustaqil ishlarini tashkil qilish to'g'risidagi buyrug'i asosida ishlab chiqildi²³.

1.2. Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv soatining ajralmas qismi bo'lib, u uslubiy axborot resurslari bilan ta'minlanadi.

1.3. Talabaning mustaqil ishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

1.4. Talabalar haftalik mustaqil ishlarining umumiy hajmi bakalavriat yo'nalishida 26 soatni, magistratura mutaxassisliklarida 18 soatni tashkil etadi.

II. Talabalar mustaqil ishining tashkiliy shakllari

2.1. Universitetda mustaqil ta'lim har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda referat, uy vazifasi, prezentatlashi mumkin.

Mustaqil ta'lim turlariga quyidagilar kiradi:

- ayrim mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar va seminarlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- kurs ishlarini bajarish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- mavzu yoki ma'lum bir bob bo'yicha tahliliy ma'lumotlar asosida xulosalar qilish va ilmiy maqola tayyorlash;

²³ Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etish va baholash tartibi to'g'risida yo'riqnomada.

- anjumanlarda ma'ruzalar bilan qatnashish;
- bitiruv malakaviy ishini tayyorlash;
- magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- fanlar bo'yicha uyga berilgan topshiriqlarni bajarish;
- mavzular bo'yicha slaydlar, prezentatsiyalar tayyorlash.

O'qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talabalar mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

2.2. O'qitiladigan fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarida talabalar mustaqil ishining mazmuni, mohiyati, shakli va hajmi hamda manbalari ko'rsatiladi.

2.3. Talaba mustaqil ishi uchun o'quv rejada ajratilgan vaqtga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriq variantlari ishlab chiqiladi va fakultet o'quv-uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

2.4. Mustaqil ishni bajarish uchun har bir fan bo'yicha talabalarga ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda tarqatma material sifatida fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda ularga yetkaziladi.

III. Mustaqil ta'limning asosiy vazifalariga:

- bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish;
- ijodiy faoliyatga qiziqishni shakllantirish;
- ta'lim olish usullarini egallash;
- tushunish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- mustaqil xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish kiradi.

IV. Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish uchun:

- talabalar mustaqil ishining barcha shakllarini tashkil qilishga tizimli yondashish;
- talabalar mustaqil ishining barcha bosqichlari (turlari)ni muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- talabalar mustaqil ishining bajarilishi sifati ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini yaratish va takomillashtirib borish maqsadga muvofiq.

V. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish tartibi

5.1. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilib borish har bir kafedrada tuziladigan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

5.2. Talabalar mustaqil ishi bo'yicha maslahat soatlari mustaqil ta'lim uchun yo'lga qo'yilgan jurnallarda qayd etib boriladi.

5.3. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish bevosita fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

5.4. Talabalar mustaqil ishi reyting ballari bilan (fanga ajratilgan mustaqil ta'lim soatiga nisbatan) baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi.

VI. Mustaqil ta'limni amalga oshirish bo'yicha fan o'qituvchisining vazifalari

Mustaqil ish dasturiga muvofiq talabaga mustaqil ta'limga tegishli materiallarni to'plash, jumladan:

- talaba tomonidan mustaqil ta'limni belgilangan reja asosida bajarilishi ustidan nazorat olib borish;
- darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy risolalar, ilmiy maqolalar bilan tanishib chiqish bo'yicha topshiriqlar berish;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumotlar va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etish;
- mustaqil ishiga o'zi rahbarlik qilayotgan talabalar bilan jadval asosida maslahatlar o'tkazish;
- mustaqil ta'limning bajarilish jarayoni natijalari to'g'risida kafedra yig'ilishlarida muntazam axborot berib borish;
- mustaqil ish natijalarini baholash.

VII. Talabalar mustaqil ishini baholash tartibi

7.1. Talabalar mustaqil ishini baholash mezonlari tegishli kafedralar tomonidan ishlab chiqiladi va fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

7.2. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili semestri boshlanishidan oldin har bir fan professor-o'qituvchisi tomonidan talabalarga o'quv-uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

7.3. Fanlar kesimida talabalar mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirish muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishlarida hamda har o'quv yilida kamida 2 marta fakultet Ilmiy kengashida muhokama etib boriladi.

7.4. Talabalarining mustaqil ishi har bir kafedraning reyting oynasida yoritib boriladi.

7.4. Talabalarining mustaqil ishi har bir kafedrada fan o'qituvchisi tomonidan ro'yhatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

7.5. Oliy ta'lim muassasasida yuqori darajada baholangan talabalarining mustaqil ishlari moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi.

7.6. Yuqori darajada baholangan talabalarining mustaqil ishlari fakultetlarning Web sahifalarida e'lon qilinib boriladi.

Mustaqil ta'lim olish metodikasi


Mustaqil ishlar talabaning umumiy rivojlanishiga va kasbiy mahoratini o'stirishga xizmat qilishi kerak. Shuningdek, talabalarining mustaqil va ijodiy ishlarini tashkil qilish tarbiyaviy, ta'limiy ahamiyatga ham ega bo'lishi kerak. Tarbiyaviy ahamiyati shundaki, talaba o'z bilimini oshirish va mustahkamlash uchun o'zini-o'zi tarbiyalab boradi. Ta'limiy ahamiyati esa talaba bo'sh vaqtdan samarali foydalangan holda o'zining mustaqil bilim olish jarayonini shakllantiradi.

Mustaqil ishlarining turlari, shakllarini tanlashda "oddiydan murakkabga" hamda "umumiydan xususiyga", "mavhumdan aniqlikka" tamoyillariga amal qilish lozim. Mustaqil va ijodiy ish topshiriqlarini ishlab chiqishda har bir talabaning shaxsiy imkoniyatlari, tushunuvchanligi, o'quv materialini o'zlashtirish darajasi inobatga olinishi, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ish muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismi bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyada yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi. Ushbu bo'limda talabalar mustaqil ishini bajarish yuzasidan tegishli kafedralar tomonidan savol va topshiriqlar hamda ularni bajarish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib quyidagi sxemada keltirilgan mustaqil ish turlari bo'yicha topshiriqlar ishlab chiqiladi.

Talaba tomonidan mustaqil ravishda javob yozishni (referat yoki hisobot shaklida) talab etuvchi savollar ishlab chiqila-

di. Talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqiladi (8-rasm).



8-rasm. Mustaqil ish turlari

Yozma mustaqil topshiriqlar:

– hisoblash uchun berilgan vazifalarni bajarish, umumlashtiruvchi va takrorlanuvchi jadvallarni to'ldirish, texnologik xaritalarni ishlab chiqish, laboratoriya, amaliy ishlar to'g'risida hisobotlar tuzish va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Grafik mustaqil topshiriqlar:

– ularga turli loyihalarni tayyorlash chizmachilik ishlarini eskizlashtirish, kesmalar va kesishmalarni tasvirlash (ayrim detal va tugunlarni chizib ko'rsatish va h.k.), sxemalar, grafiklar, diagrammalarni tuzish, kuzatish natijalarini tasvirlash va shunga o'xshash vazifalarni o'z ichiga oladi.

Amaliy xarakterdagi mustaqil topshiriqlar:

– talabalar o'qituvchi topshirig'i asosida mustaqil ishini bajarish jarayonida buyum va mahsulotlarni tayyorlash, jihoz va asbob-uskunalarini ta'mirlash, mahsulotga ishlov berish, hisoblash, yangi moslamalarni loyihalash, maket va modelar, namunalar tayyorlash kabi ishlarni amalga oshiradilar.

“Kasb ta'limi metodikasi” fanidan mustaqil ishlarni bajarishda manbalardan foydalanish

Ma'lumki, o'quv rejalarini bajarish jarayonida asosiy e'tibor talabalarining mustaqil ta'lim olishlariga qaratilgan. Talaba mustaqil ishlash jarayonida ham kompyuter orqali o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olishi, o'zining fikrlari-

ni qo'shimcha sifatida kiritishi hamda tahlil etishi mumkin. Natijada talaba faqatgina tinglovchi bo'lib qolmasdan, mustaqil fikrlovchi, mavzuga oid materiallarni izlovchi, muntazam ravishda bilim olishga intiluvchiga aylanadi. Talabalar, asosan, o'zlarining mustaqil olgan bilimlaridan seminar mashg'ulotlarida foydalanishi mumkin.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalar darslikdan tashqari monografik asarlarni, ilmiy risola va maqolalarni ham o'qishlari, turli mavzudagi materiallarni topishlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni o'rganishlari, ma'ruzalar matnini o'zlashtirishlari, maxsus adabiyotlardan foydalanishlari, badiiy asarlarni tahlil qilishlari, mustaqil ishlashni o'rganishni odat qilishlari hamda nazariy va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil tahlil qilishlari kerak.

"Kasb ta'limi metodikasi" fanidan talabalarning mavzuga oid mustaqil ishlarini (qo'lyozma holda yoki kompyuter vositasida) quyidagi shakllar asosida bajarish tavsiya etiladi (9-jadval):

9-jadval

"Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ish shakllari

T/r	Fandagi mavzular	Mustaqil ish shakllari					
		referat yozish	krossvordlar tuzish	bukletlar tayyorlash	albom tayyorlash	plakatlar chizish	kartochkalar tayyorlash
1	"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida "Kasb ta'limi metodikasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari	+	+	+	+	+	+
2	Kasb-hunar ta'limi tamoyillari	+	+	+	+	+	+
3	Kasb-hunar ta'limining didaktik tizimlari	+	+	+	+	+	+
4	Kasb-hunar ta'limini amalga oshirish metodlari	+	+	+	+	+	+

9-jadvalning davomi

5	Kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari	+	+	+	+	+	+
6	O'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi	+	+	+	+	+	+
7	Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalariga qoyiladigan talablar va ularni jihozlash	+	+	+	+	+	+
8	O'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish	+	+	+	+	+	+
9	O'quv-ishlab chiqarish ishlarini me'yorlashtirish	+	+	+	+	+	+
10	Kasb ta'limida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish	+	+	+	+	+	+
11	Kasb ta'limi o'qituvchisi va o'quv ustasiga qoyiladigan talablar	+	+	+	+	+	+
12	Kasb-hunar kollejlari o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash	+	+	+	+	+	+
13	Kasb ta'limi o'qituvchisining metodik ishlari	+	+	+	+	+	+
14	Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining pedagogik amaliyoti	+	+	+	+	+	+
15	"Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish va bajarish metodikasi	+	+	+	+	+	+
16	Darsdan hamda o'quv muassasasidan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkillashtirish	+	+	+	+	+	+

Talabadagi mustaqil fikr dastlab mikrogruph doirasida shakllanib, so'ng jamoa hukmiga havola etiladi. Yuqorida qayd etilgan mustaqil ishlar namunalari quyidagi manbalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 47 b.

2. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq, 1997. – 64 b.

3. Abdugudusov O. A., Rashidov H. F. Kasb-hunar pedagogikasi. Toshkent: O'MKHTTKMOUQTI, 2009. – 238 b.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.

5. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 512 b.

6. Pedagogika fanidan namunaviy dastur (bakalavr yo'naliishi uchun). Toshkent, 2004. – 40 b.

7. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari uchun me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 291 b.

8. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari uchun me'yoriy hujjatlar to'plami. 2-qism. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 339 b.

9. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari uchun me'yoriy hujjatlar to'plami. 3-qism. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 457 b.

10. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.

Talabalarning mustaqil o'rganadigan mavzulari dastur rejasida ko'rsatilgan ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni bevosita takrorlamagan holda, alohida axborot manbalariga asoslanib, har bir mavzuni chuqur o'rganib, tahlil etishga qaratilmog'i lozim.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Mustaqil ishlar haqida nimani bilasiz?
2. Mustaqil ishlarni bajarish texnologiyasi nimadan iborat?
3. Mustaqil ta'lim olish metodikasi qanday amalga oshiriladi?
4. "Kasb ta'limi metodikasi" fanidan qanday turdagi mustaqil ishlarni bajarish mumkin?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Mustaqil ishlarni bajarish texnologiyasi	Mustaqil ish mazmuni
Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari	
Mustaqil ta'limning asosiy vazifalari	
Talaba mustaqil ishini nazorat qilish tartibi	
Mustaqil ta'limni amalga oshirish bo'yicha fan o'qituvchisining vazifalari	
Talaba mustaqil ishini baholash tartibi	

2.10. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkillashtirish

Reja:

1. Ekskursiyalarni tayyorlash, o'tkazish hamda uning yakuni bo'yicha hisobot ishlari.
2. To'garak ishlarining rejalarini tuzish. To'garak qatnashchilarning faolligini oshirish yo'llari.

Tushunchalar va tayanch iboralar: ekskursiya, to'garak, hisobot.

Ekskursiyalarni tayyorlash, o'tkazish hamda uning yakuni bo'yicha hisobot ishlari

Ekskursiyani uyushtirishdan maqsad – o'quvchilar uchun turli mazmundagi ekskursiyani tashkil etish va uni o'tkazish shakllarini ishlab chiqishdan iborat.

Masalan, ekskursiya jarayonida o'quvchining tabiatda o'zini tutish madaniyati tahlil etiladi. Ekskursiyalar o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rejalashtiriladi. Masalan, hayvonot bog'iga, "Botanika bog'i"ga, tabiat qo'yniga. Mazkur ekskursiyalar davomida olingan bilimlarni "Yumaloqlangan qor o'yini" metodi yordamida mustahkamlash tavsiya qilinadi. "Yumaloqlangan qor o'yini" metodi – mavzuni muayyan qismlarga bo'lgan holda o'zlashtirish imkonini beruvchi, tahsil oluvchilarda guruh va juftlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi interaktiv metod [16. 150-b.].

To'garak ishlarining rejalarini tuzish. To'garak qatnashchilarining faolligini oshirish yo'llari

To'garak – muhim tarbiyaviy vazifani bajaradi. Zero, jonli burchaklar tashkil etilishi jonivorlar, qushlar va o'simliklarni asrab-avaylash mas'uliyatini, burchini, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayrim o'quv fanlari to'garaklarini "Fikrlarning shiddatli hujumi" metodidan foydalanagan holda tashkil etish mumkin. Mazkur metod o'qitishning interfaol metodlaridan biridir [16. 137-b.].

10–11-jadvallarda PK “Boshlang‘ich ta‘lim” yo‘nali-shi uchun ishlab chiqilgan to‘garak dasturi va uning yillik mavzuiy rejasi namuna sifatida berilgan.

10-jadval

**“Fanlararo aloqadorlik” to‘garagining dasturi
(1–3-bosqichlar)**

T/r	Mavzular	Nazariy mashg‘ulotlar (soat)	Amaliy mashg‘ulotlar (soat)	Jami
1	Kirish	1		1
2	Ijtimoiy-gumanitar fanlar va ekologiya	1	1	2
3	Tabiiy fanlar va ekologiya	1	1	2
4	Aniq fanlar va ekologiya	1	1	2
5	Umumkasbiy fanlar va ekologiya	1		1
6	Pedagogika, tabiiy fanlar va ekologiya	1		1
7	Psixologiya, ijtimoiy-gumanitar fanlar va ekologiya	1		1
8	Maxsus fanlar va ekologiya	1	4	5
9	To‘garak ishining yakunlanishi	1	2	3
	Jami	9	9	18

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda malakali kadrlarni tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirish muammosini o‘z oldiga qo‘ymoqda. Shu munosabat bilan oliy ta‘lim tizimidan jamiyat uchun faqat chuqur bilimli, muayyan mutaxassislik malakalarini egallagan shaxslargina emas, ayni vaqtda davr talabiga javob bera oladigan yuksak insoniy fazilatlariga ega bo‘lgan kasb sohibi va uning fidoiysi, xalqiga sodiq, jamiyat fuqarolik kasb va mas‘uliyatini yaxshi anglagan, hayotda va ish faoliyatida o‘z o‘rnini topa oladigan, vatanining kelajagi va ravnaqi uchun xizmat qila oladigan haqiqiy mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini ado etish talab etiladi.

11-jadval

“Fanlararo aloqadorlik” to‘garak mashg‘ulotining yillik mavzuiy rejasi

T/r	Nazariy mashg‘ulotlar	Amaliy mashg‘ulotlar	Soat	Mud-dat
1	Kirish. “Fanlararo aloqadorlik” to‘garagining vazifalari. To‘garakning o‘quv rejasi		1	Yanvar

11-jadvalning davomi

2	Ijtimoiy-gumanitar fanlar va ekologiya		1	
		Ekologik mazmunda ijtimoiy-gumanitar fanlar yo‘nalishidagi mavzular tahlili	1	
3	Tabiiy fanlar va ekologiya		1	Fevral
		Ekologik mazmunda tabiiy fanlar yo‘nalishidagi mavzular tahlili	1	
		Maktab yer maydonchasidagi o‘quvchilar mehnatini kuzatish	1	
4	Aniq fanlar va ekologiya		1	
		Ekologik mazmunda masalalar tuzish, yechish	1	Mart
5	Umumkasbiy fanlar va ekologiya		1	
6	Pedagogika, tabiiy fanlar va ekologiya		1	
7	Psixologiya, ijtimoiy-gumanitar fanlar va ekologiya		1	April
8	Maxsus fanlar va ekologiya		1	
		Ekologik mazmunda tarqatma materiallar tayyorlash	1	
		Ekologik mazmunda mashq, diktant va bayon tuzish	1	
		Ekologik mazmunda masalalar tuzish	1	May
9	To‘garak ishining yakunlanishi		1	
		Konferensiyaga tayyorlanish va o‘tkazish	1	
		To‘garak haqida suhbat	1	

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, barcha sohalar bo‘yicha taraqqiyotning yangi yo‘liga kirib, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik tushunchalari yangi mazmun bilan boyitib borilmoqda.

Xususan, vatan tuyg‘usi, vatanparvarlik tushunchalari o‘zlarining asl ma‘nosini topdi. O‘tgan qisqa davrda barkamol, iymon-e‘tiqodli, mustahkam bilimli, vatanparvar, sado-

qatli va xalqparvar fuqarolarning vatan istiqbolining porloqligiga bo'lgan ishonchi tobora ortib bormoqda. Buyuk kelajak yaratish yo'lidagi dasturiy maqsadimizning pirovard natijasi barkamol, sog'lom avlodni voyaga yetkazishga, ta'lim-tarbiya tizimi jiddiy, ijobiy yangilanishlarni vujudga keltirishga bog'liq.

O'quv yili davomida, odatda, tarbiyachilar hamkasblarining tarbiyaviy soat, axborot soati yoki tarbiyaviy tadbirlarida tajriba almashish maqsadida ishtirok etadilar. Bunday holda eng qiyini kuzatilgan yoki ishtirok etilgan tarbiyaviy soat, axborot soati, tarbiyaviy tadbir haqida fikr bildirish, uni tahlil qilish hisoblanadi. Tahlil qilish mezonlari:

1. Tarbiyaviy soat, axborot soati va tarbiyaviy tadbir tuzilmasining ketma-ketligi va to'g'ri tuzilganligi.

2. Tanlangan mavzuni tarbiyaviy ahamiyati yuzasidan dolzarbligi.

3. Tanlangan mavzuni olib borilayotgan ishga mosligi.

4. O'tkazilayotgan tarbiyaviy ishning to'g'ri rejalashtirilgani va vaqtni to'g'ri taqsimlanganligi.

5. Ishlatilayotgan bezaklar, ko'rgazmali vositalarning mavjudligi va tanlangan mavzuga mosligi, tarbiyaviy ta'siri.

6. Tarbiyachi mahorati:

– tashqi qiyofasi va notiqlik san'atiga egaligi, suxandonligi;

– ishtirokchilarni boshqara olishi va kuzatuvchanligi;

– ishtirokchilarni faollashtira olishi;

– turli tarbiyaviy usullarni ishlata bilishi;

– texnik vositalar, maxsus hissiy samaralardan foydalanishi;

– ma'qullashni va rag'batlantirishni bilishi.

7. O'tkazilayotgan ishga ijodiy yondashilganligi.

8. Ishtirokchilarning ishtiroki.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Ekskursiyalarni qanday tayyorlash hamda o'tkazish mumkin?
2. Ekskursiya yakuni bo'yicha qanday tartibda hisobot ishlari yoziladi?
3. To'garak ishlarining rejalari qanday tuziladi?
4. To'garak qatnashchilarining faolligi qanday oshiriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. To'garak dasturi va yillik ish rejasini ishlab chiqing.

GLOSSARIY

Davlat va jamiyat – Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafolatlovchi sub'yektlari.

Dars – 1) uzluksiz ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta'limning asosiy shakli; 2) o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli, mantiqiy tugallangan, yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning aniq vaqt bilan cheklangan qismi.

Dars-auksion – mashg'ulotlar auksion tarzda o'tkaziladigan dars.

Dars jadvali – o'quv rejasiga ko'ra o'quv haftasining har bir kunida sinflar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq ketma-ketligini belgilovchi hujjat.

Dars tahlili – o'quv mashg'ulotini bir butun yaxlit holda yoki muayyan bo'laklarga bo'lib baholash.

Darslik – muayyan fanga doir bilim asoslarini ma'lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma'naviy-g'oyaviy, ilmiy-uslubiy saviyada yozilgan o'quvchilar va talabalar uchun mo'ljallangan o'quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi.

Darslik yoki manba (kitob) bilan ishlash – materialni og'zaki bayon qilish metodlaridan biri. Bu metod Oliy ta'lim muassasalarida amaliyotida muhim o'rin tutadi.

Darsni jihozlash – o'tiladigan dars mavzusiga ko'ra o'quv-didaktik materiallar, qo'llanma, multimedia, o'quv vositalari kabilarni tanlash va tartibga keltirish.

Dastur – o'quv faoliyatini amalga oshirish rejasini va ushbu faoliyatning mazmunini ifodalovchi me'yoriy hujjat.

Dasturlashtirilgan ta'lim – materialni (qismlarga bo'lib) qadam-baqadam, har bir qismning o'zlashtirilganligini nazorat qilish holda o'rganish texnologiyasi.

Dasturli ma'ruza-maslahat – talabalarni muammo muhokamasiga faol ishtirok etishiga undaydigan ma'ruza turi.

Dasturli ta'lim – tadrijiy ketma-ketlikda joylashgan sertarmoq o'quv materiali qismlaridan tashkil topgan o'rgatuvchi dasturlar yordamida o'qitish texnologiyasi.

Dasturli ma'ruza-maslahat – talabalarni muammo muhokamasiga faol ishtirok etishiga undaydigan ma'ruza turi.

Didaktik material – o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga yo'naltirilgan maxsus o'quv materiallari.

Didaktik material – ko'rgazmali o'quv qo'llanmalarining maxsus turlari.

Didaktika – 1) pedagogikaning ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadigan tarmog'i; 2) ta'lim nazariyasi.

Joriy nazorat – o'rganilayotgan mavzularni o'quvchi-talabalar tomonidan qanday o'zlashtirilayotganini muntazam ravishda dars jarayonida nazorat qilishdan iborat usul.

Kasbga yo'naltirish tizimi – turli davlat va ijtimoiy tashkilotlar, muassasa, maktablar, shuningdek, oilaning tashkiliy va boshqariluvchan faoliyati bo'lib, u jamiyat manfaatlarini va ta'lim oluvchilarning shaxsiy qiziqishlariga ko'ra kasbiy va ijtimoiy o'z-o'zini aniqlash jarayonidir.

Kasbiy yo'nalish – motivatsiya sohasidagi xohish-mayillarga ko'ra aniqlanadigan kasbiy faoliyat motivatsiyasining integral tavsifnomasi bo'lib, shaxs qiziqishlari, munosabatlari va maqsadga qaratilgan intilishlaridan iborat yo'nalishdir.

Kasbiy mahorat – ta'lim jarayonida pedagogik strategiya, strategik maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, qarorlar qabul qilish, ta'lim jarayonini loyihalashtirish, innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish, ta'limni boshqarish jarayoniga tizimli yondashuvlarni loyihalash texnologiyalarini joriy etish hamda boshqaruv usullari, metodlari va tamoyillaridan samarali foydalanishdan iborat kasbiy texnika darajasi.

Kasbiy motivatsiya – kasbga tegishli vazifalarni bajarish va kasb tanlashni belgilovchi, atrof, borliq omillari, kasbga yo'naltirishga oid faoliyat ta'sirida shakllanuvchi mayl.

Kasbiy tajriba – avlodlarning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish va ularni boshqaruv amaliyotida qo'llashni ta'minlab beruvchi tushunchalar tizimi bo'lib, rahbarning o'z faoliyati davomida fan-texnika yangiligiga, ilg'or tajribalarga tayanish hamda mazkur tajribalar asosida o'zining ko'nikma va malakalarini shakllantirib borishi bilan bir qatorda, jamoa faoliyatini boshqarish tajribasi.

Kasbiy tayyorgarlik – ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutadigan pedagogik jarayon.

Kasbiy tarbiya – inson kasbiy madaniyatiga oid strategiya, usul, malaka, kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni.

Kasbiy ta'lim – muayyan sohaga oid ish faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

Kasbiy o'z-o'zini aniqlash – shaxs fikrining tanlangan, o'zlashtirilgan yoki bajarilgan mehnat faoliyatida ifodalanishi.

Kasb-hunar kolleji (KHK) – 1) muayyan kasb-hunarni egalashga ixtisoslashtirilgan o'rta maxsus ta'lim muassasasi; 2) o'quvchilarning kasb-hunar moyilligini, layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb tanlash imkonini beradigan ta'lim muassasasi.

Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi – kasb-hunar kollejlari o'quv-tarbiya jarayoniga ixtisoslashgan pedagogika fanining alohida tarmog'i.

Kasb-hunarga yo'naltirish – o'quvchilarga muayyan kasb-hunar haqida ma'lumot berish orqali ularni shu kasbga qiziqitirish, yo'llash jarayoni.

Klassifikatsiya – tasniflash.

Klassifikator – 1) oliy ta'lim muassasalari va kasb-hunar kollejlari mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan mutaxassislik va ta'lim yo'nalishlari; 2) ta'lim va bilim sohalari, ta'lim darajalarini nazarda tutuvchi kasb, mutaxassislik va ta'lim yo'nalishlarining tizimlashtirilgan ro'yxati.

"Klaster" (tarmoqlar) metodi – 1) o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, atamalar, tushunchalar va voqealarning bir-biri bilan bog'liqligini anglab olishga o'rgatuvchi metod; 2) klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, tahsil oluvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu)lar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bema'lol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradigan usuldir.

Kollej (fran. college – birodar, o'quv joyi) – 1) turli mamlakatlarda o'rta ta'lim o'quv yurti o'quvchilariga Davlat ta'lim standartlari asosida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradigan o'quv muassasasi; 2) o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim, ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslikni egallashga yo'naltirilgan o'quv muassasasi; 3) Buyuk Britaniya, AQSH va ayrim boshqa mamlakatlarda oliy, o'rta, yuqori o'rta o'quv yurti; 4) Fransiya, Shveytsariya, Belgiya, shuningdek, Afrika va Osiyoning bir qancha mamlakatlaridagi o'rta va to'liqsiz o'rta o'quv yurti; 5) O'zbekistonda o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurti.

Kuzatish metodi – 1) ob'yektiv borliqdagi narsa-hodisalarni tizimli, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish jarayoni; 2) psixologik-pedagogik tadqiqotlardagi asosiy empirik metodlardan biri. Psixologik-pedagogik hodisani maqsadga qaratilgan tizimli o'rganishda muayyan sharoitlarda ulardagi xususiy o'zgarishlar va ularning sabablarini aniqlash maqsadida qo'llaniladi; 3) voqelikni

ta'lim jarayonida idrok qilish imkoniyatini beradigan pedagogik tadqiqot metodi.

Kuzatish texnologiyasi – ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish davomida tadqiqotning amaliy jihatlarini muayyan algoritmik tizimda amalga oshirish texnologiyasi.

Masofaviy o'qitish – o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalari asosida olib boriladigan masofadan turib o'qitish.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi – 1) bu inson va texnik resurslarni, ularning o'zaro aloqasini, hisobga olgan holda, ta'lim xizmatining yaxlit tizimli jarayonini yaratish, qo'llash va omalashtirishdan iborat texnologiya; 2) inson bosh miyasi to'qimalarining modulli tashkil etilganligiga asoslangan o'qitishning istiqbolli tizimi; 3) inson va texnik resurslarning o'zaro aloqasi yordamida amalga oshiriladigan ta'lim jarayoni.

Ma'ruza – 1) o'quv materialiga oid biror masala, ilmiy, siyosiy mavzularning izchil, tartibli, og'zaki bayoni. O'quv muassasasida o'quv jarayonining asosiy shakli, ta'lim muassasalarida dars berish usullaridan biri; 2) bir soatlik mashg'ulot davomida o'rganilayotgan mavzuning haqiqiy mohiyatini ochib berish, unda ilgari surilgan g'oyalar asosida ilmiy xulosalar chiqarish va ularni umumlashgan holda bilimlarni muayyan izchillikda bayon etish shakli; 3) ma'ruza, leksiya – o'quv material, biror masala, ilmiy mavzularning izchil, tartibli bayoni.

Ma'ruza ikkovlon – ikki yoki undan ortiq o'qituvchilar tomonidan oldindan tayyorlangan senariy asosida o'tkaziladigan ma'ruza.

Ma'ruza metodi – o'quvchining og'zaki, izchil bayoni.

Ma'ruza-maslahat – munozara ustivorlik qiladigan, amaliy yo'nalishga ega bo'lgan mavzularni o'rganishga mo'ljallangan ma'ruza turi.

Ma'ruza-matbuot konferensiya – talabalar bilimidagi nuqsonlarni yo'qotish va ular tayyorgarligi darajasini tashxislashga mo'ljallangan ma'ruzalar yig'indisi.

Ma'ruza-suhbat – o'quv jarayoniga talabalarni faol jalb etishga qaratilgan, ularni o'qituvchi bilan samarali suhbatga kirishishini ta'minlovchi ma'ruza shakli.

Ma'ruza-tadqiqot – umumiy muammo mavzuning asosiy yo'nalishlari bo'yicha xususiy biluv topshiriqlari yordamida aniqlanishiga mo'ljallangan ma'ruza shakli.

Metod (yunoncha *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – ta'lim jarayonida taqdim etilgan amaliy va nazariy bilimlarni egallash, o'zlashtirish, o'rgatish, o'rganish, bilish uchun xizmat qiladigan yo'l-yo'riqlar, usullar majmui.

Metodik ish – o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish va ularning metodik malakalarini oshirish.

Metodik qo'llanma – o'qituvchilarga mo'ljallangan maxsus kitob.

Metodist – muayyan o'quv predmetini o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis.

Metodologik yondashuv – metodologik yondashuv pedagogik jarayon va unda qatnashuvchilar faoliyatini tashkil etishning yetakchi tamoyillaridan biri.

Metodologiya – tadqiqotchining nazariy-amaliy pedagogik faoliyatini tashkil etish tamoyillari, u amal qiladigan me'yoriy-huquqiy, nazariy-falsafiy yondashuvlar, qonuniyatlar, qarashlar yig'indisi.

Nazorat – o'qitishning barcha bosqichlarida natijalar sifatini nazorat qilish, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalari hamda ularning shaxsiyatini aniqlash jarayoni.

Nazorat qilish dastur vositalari – ma'lumotlar omboridagi o'qituvchi tomonidan tuzilgan topshiriqlar, savollar, test va shu kabilardan foydalanish dasturlarini joriy etish vositalari.

Pedagogik jarayon – aniq maqsadga yo'naltirilgan, mazmunan boy, tarkibi jihatidan qat'iy shakllangan o'quv vaziyatida o'qituvchi va o'quvchilar orasidagi o'zaro hamkorlik.

Pedagogik mahorat – 1) kasbiy ko'nikmalarning yuksak darajada rivojlanishi; 2) shaxsning kasbiy sifatleri, layoqat qobiliyatlari majmui; 3) san'at darajasidagi mahorat; 4) pedagogik mohirlik, san'at va bilimdonlik.

Pedagogik texnologiya – a) o'quv faoliyatini oqilona tashkil etish va jihozlash; b) imkon qadar ozroq vaqt sarflab, ta'lim natijasi- ni kafolatlaydigan izchil pedagogik tizim; v) pedagogik muammolar- ni metodologik darajada hal etishga imkon beruvchi pedagogik hodisa; g) o'quv jarayonini to'liq boshqarish imkonini beradigan tizimli tafakkur usulini pedagogik amaliyotga tatbiq etish shakli; d) pedagogik maqsadga erishishni kafolatlaydigan xarakatlarning izchil tizimi.

Rejalashtirish – pedagogik tahlil natijalariga tayangan holda o'quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish yoki muhim hukm chiqarish.

Seminar – 1) oliy yoki o'rta maxsus maktab talaba (o'quvchi) larining muayyan nazariy kursni qanchalik o'zlashtirganliklari- ni aniqlash usuli, mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan o'quv amaliyotining muhim turlaridan biri; 2) muayyan ta'lim-tadbiri bo'yicha o'tkaziladigan maslahat yig'ilishi; 3) O'zbekistonda doktorlik ilmiy darajasiga da'vogarning tayyorgarligini sinab ko'rish

uchun ilmiy tadqiqot muassasasi va oliy o'quv yurtlaridagi olimlarni o'z ichiga oluvchi ilmiy tuzilma.

Semestr (lot. semestrius – yarim yillik) – o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limda yarim yillik o'quv muddati.

Tasnif – umumiy belgilariga ko'ra predmet, hodisa yoki tushunchalarning guruhlar, bo'limlar va toifalar kesimida taqsimlanishi.

Ta'lim mazmuni – o'quvchilarni haqqoniy, ilmiy dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, nazariyalar bilan tanishtirishga qaratilgan bilimlar tizimi.

Uzluksiz ta'lim – o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi.

Fan – 1) dunyo haqidagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biri; 2) kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismi.

O'zbekiston Respublikasining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim standartlari tarmoq tizimi – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi chuqurlashtirilgan umumta'lim predmetlari bo'yicha va amaliy-nazariy ta'limning asosiy mazmunini ifodalaydigan kasblar, mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy tayyorgarlikning so'nggi maqsadlarini belgilaydigan hamda ta'limning kafolatlangan darajasi va sifatini aniqlaydigan me'yoriy hujjatlar majmui.

O'quv fani – o'quv yurtlarida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, i.ch. faoliyati va b. muayyan sohalaridan tanlab olingan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi.

O'quv faoliyati – o'quvchilarning atrof olamni bilish, bilim va tushunchalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv harakati.

O'quv haftasi – ta'lim oluvchilar o'quv muassasalarida ta'lim oladigan kunlar yig'indisi.

O'quv qo'llanma – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarini chuqur o'zlashtirilishini ta'minlovchi, ayrim bob va bo'limlarini keng yoritishga yoki amaliy mashq va mashg'ulotlar yechimiga mo'ljallangan pedagogik o'quv nashri.

O'quvchi – umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda ta'lim oluvchi yoshlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 47 b.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Azimova Z. E. O'quvchilarning shaxslararo munosabatlari integral diagnostikasi: Ped.fan.nom. ... dis. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009. – 185 b.
4. Abdugudusov O. A., Rashidov H. F. Kasb-hunar pedagogikasi. Toshkent: O'MKHTTKMOUQTI, 2009. – 238 b.
5. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: Sharq, 1997. – 64 b.
6. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1999. – 184 b.
7. Ibragimov X., Abdullayev Sh. Pedagogika nazariyasi: Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 288 b.
8. Ishmuhamedov R., Abdugodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
9. Isayeva G. Integrallashgan ta'lim jarayonida innovatsiyalarni tatbiq etishning pedagogik-psixologik asosi // Umumiy o'rta ta'limning nazariy va amaliy muammolari: Resp.ilmiy-amal.konf. materiallari. Toshkent, 2009. 42–44-b.
10. Ismoilova Z. K. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent: Fan, 2001. – 159 b.
11. Kamoliddinov M., Vahobjonov B. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: Talqin, 2010. – 128 b.
12. Konstantinov N. A., Medinsiy Ye. N., Shabayeva F. M. Pedagogika tarixi. Toshkent: O'qituvchi, 1967. – 549 b.
13. Mavlonova R. A., Raxmonqulova N. H. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent, 2006. – 99 b.

14. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 512 b.
15. Mahkamova M. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 184 b.
16. Pedagogikadan atamalar lug'ati. Toshkent: Fan, 2008. – 195 b.
17. Педагогика: учебник для студентов педагогических вузов и педагогических колледжей / Под ред. Пидкасистого П.И. М.: Педагогическое общество России, 2002. – 608 с.
18. Rasulova Y., Nurmatova O. Pedagogika fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent: Voris, 2009. – 288 b.
19. Roziqov O. R. va boshqalar. Didaktika. Toshkent: Fan, 1997. – 111 b.
20. Salomov A. A. Matematikaning fanlararo aloqadorlik funksiyasi asosida yuqori sinf o'quvchilarining ko'nikma va malakalarini rivojlantirish: Ped. fan. nom. ... dis. Toshkent, 1998. – 182 b.
21. Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi jarayonida fanlararo uzviylikni ta'minlash muammolari: Resp. ilmiy-amaliy konf. materiallari. Toshkent, 2009. 6, 179, 193-b.
22. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari uchun me'yoriy hujjatlar to'plami. 1-qism. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 291 b.
23. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari uchun me'yoriy hujjatlar to'plami. 2-qism. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 339 b.
24. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari rahbarlari uchun me'yoriy hujjatlar to'plami. 3-qism. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 457 b.
25. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2003. 5-t. – 704b.
26. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.
27. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 371 b.
28. <http://www.pedagog.uz>
29. <http://www.ziyonet.uz>
30. <http://www.tdpu.uz>

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-BOB. "Kasb ta'limi metodikasi" fanining umumiy masalalari	
1.1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish jarayonida "Kasb ta'limi metodikasi" fanining predmeti, maqsad va vazifalari	6
1.2. Kasb-hunar ta'limi tamoyillari	20
1.3. Kasb-hunar ta'limining didaktik tizimlari	29
1.4. Kasb-hunar ta'limini amalga oshirish metodlari	34
1.5. Kasb-hunar ta'limining tashkiliy shakllari.....	49
1.6. O'quv jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish metodikasi	74
2-BOB. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etish masalalari	
2.1. Kasb-hunar kollejlari o'quv xonalari, laboratoriyalari hamda o'quv ustaxonalariga qo'yiladigan talablar va ularni jihozlash	82
2.2. O'quv ustaxonalarida mashg'ulotlarni tashkil etish.....	93
2.3. O'quv - ishlab chiqarish ishlarini me'yorlashtirish.....	105
2.4. Kasb ta'limida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish	124
2.5. Ishlab chiqarish ta'limi malaka tavsifnomasiga qo'yiladigan talablar	129
2.6. Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash	143
2.7. Kasb ta'limi o'qituvchisining metodik ishlari	153
2.8. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining pedagogik amaliyoti	163
2.9. "Kasb ta'limi metodikasi" fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish va bajarish metodikasi	176
2.10. Darsdan tashqari mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkillashtirish	185
GLOSSARIY.....	189
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	195

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	3
ГЛАВА 1. Общие вопросы дисциплины "Методика профессионального образования"	
1.1. Предмет, цель и задачи дисциплины "Методика профессионального образования" в процессе реализации Закона "Об образовании" и Национальной программы по подготовке кадров	6
1.2. Принципы профессионального образования	20
1.3. Дидактические связи профессионального образования	29
1.4. Методы профессионального образования	34
1.5. Организационные формы профессионального образования	49
1.6. Методика использования образовательных средств в учебном процессе	74
ГЛАВА 2. Вопросы внедрения среднего специального профессионального образования.	
2.1. Требования к лабораториям, учебным и мастерским кабинетам колледжа	82
2.2. Организация занятий в учебных мастерских	93
2.3. Меры работ учебных производств	105
2.4. Организация деятельности учителя и ученика в профессиональном образовании	124
2.5. Требования навыков характеристики по производственному образованию	129
2.6. Контроль и оценка знаний, умений и навыков ученика колледжа	143
2.7. Методические работы учителя профессионального образования	153
2.8. Педагогическая практика будущих профессиональных учителей	163
2.9. Организация и методика выполнения самостоятельных работ по дисциплине "Методика профессионального образования"	176
2.10. Организация и планирование внеурочных занятий	185
ГЛОССАРИЙ	189
СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.	195

CONTENTS

INTRODUCTION	3
CHAPTER 1. General questions of discipline "methodology of professional education"	
1.1. Subject, purpose and objectives of discipline "Methodology of professional education" in the process of implementation of the Law "On education" and National program for personnel training	6
1.2. The principles of professional education	20
1.3. Didactic connections of professional education	29
1.4. Methods of professional education	34
1.5. Organizational forms of professional education	49
1.6. The method of using of educational means in the educational process	74
CHAPTER 2. Questions of introduction of secondary professional education.	
2.1. Requirements for laboratories, training classes and workshops of colleges	82
2.2. Organization of in training workshops	93
2.3. Measures of educational process of educational productions	105
2.4. Organization of teacher's and student's activity in the professional education	124
2.5. Requirements of the skills characteristics of production education	129
2.6. Monitoring and evaluation of knowledge, abilities and skills of College student	143
2.7. Methodical works of teachers of the professional education	153
2.8. Pedagogical practice of the future professional teachers	163
2.9. The organization and methods of fulfillment of independent work on the discipline "Methodology of professional education"	176
2.10. Organization and planning of extra-curricular classes	185
GLOSSARY	189
THE LIST OF THE USED LITERATURE	195

74.6

I-78

Isakulova N. J.

Kasb ta'limi metodikasi: o'quv qo'llanma / N.J. Isakulova; mas'ul muharrir Yu. G'Mahmudov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rtfa maxsus ta'lim vazirligi; O'zbekiston davlat San'at va madaniyat instituti.-Toshkent : Fan, 2014. -200 b.

KBK:74.6

UO'K: 37.013.46

ISBN 978-9943-19-298-0

*O'zbekiston davlat San'at va madaniyat instituti Ilmiy kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Muharrir: *M.Sodiqova*

Tex.muharrir: *M.Qodirova*

Sahifalovchi: *D.Abdullayev*

Nashriyot litsenziyasi AI №138, 27.04.2009-y.

Nashriyot raqami: z-9. Terishga berildi 05.03.2014.

Bosishga ruxsat etildi 27.06.2014. Qog'oz bichimi 60x84 ¹/₁₆.

Ofset bosma. Ofset qog'ozi. Century Schoolbook garniturasi.

Hisob-nashriyot t.11,0. Shartli-bosma t. 11,62.

Tiraji 300. Kelishilgan narxda.

O'zR FA "Fan" nashriyoti. 100170, Toshkent, Mirzo Ulug'bek
ko'chasi, 81-uy.

Tel.: (+99890)944-81-17, (+99890)955-11-86.

E-mail: fannashriyot@yandex.com

O'zR FA "Fan" nashriyoti matbaa bo'limida chop etildi. 18-buyurtma.
100170, Toshkent, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy.

"Toshkent tezkor" MCHJ bosmaxonasida muqovalandi.
100200, Toshkent, Radial tor ko'chasi, 10-uy.



ISBN 978-9943-19-298-0
9 789943 192980